

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**XALILOVA RUXSORA**

# **CHET EL BOLALAR ADABIYOTI**

*Metodik qo'llanma*

**“STANDART – POLIGRAF” NASHRIYOTI  
BUXORO-2021**

**UDK: 661.727**

**KBK: 24.23**

**X 52**

Xalilova R.

Chet el bolalar adabiyoti: [matn] / R.Xalilova. - Toshkent: "Standart-poligraf"  
nashriyoti, 2021. -128 b.

**KBK 24.23**

Ushbu metodik qollanmada jahon bolalar adabiyoti haqida ma'lumot berish, talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirish yuzasidan amaliy malaka hosil qilishdir. Jahon bolalar adabiyotining rivojlanish davrlarini tahlil qilish, jahon va o'zbek bolalar adabiyoti namoyandalarining ijodini o'rganish, maktabgacha, maktab va katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish da ilmiy-nazariy va metodologik manba sifatidadir.

**ISBN: 978-9943-518-47-6**

**Mas'ul muharir: f.f.d. (PhD) ,dosent Toirova G.I**

**Taqrizchilar:**

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent N.Safarova

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent G Qurbonova.

## **So`z boshi**

Ona tili va adbiyot fani pedagogika universiteti va institutlarining boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish ta'lim yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan bo'lib, uni mutaxassislik o'quv predmeti sifatida bosqichma-bosqich tizim asosida o'qitish ko'zda tutilgan. Fanning asosiy maqsadi - bo'lajak o'qituvchilariga ona tilining fonetik xususiyatlari, talaffuz me'yorlari, lug'at (leksik) boyligi, imlo qoidalari va grammatik qurilishi yuzasidan nazariy bilim berish, bolalar adabiyoti va bolalar folklori, o'zbek va jahon bolalar adabiyoti haqida ma'lumot berish, talabalarning og'zaki va yozma nutqini o'stirish va savodxonligini oshirish, takomillashtirish yuzasidan amaliy malaka hosil qilishdir.

Fanning vazifasi – ona tilining barcha bo'limlari yuzasidan talabalarga nazariy bilimlar berish va amaliyotda qo'llashga o'rgatish, ona tilining davlat tili maqomini olishi hamda “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun materiallariga tayanish bilan bog'liq bo'lgan o'zgartishlarni yetkazish, o'zbek va jahon bolalar adabiyotining rivojlanish davrlarini tahlil qilish, jahon va o'zbek bolalar adabiyoti namoyandalarining ijodini o'rganish, o'zbek va jahon bolalar folklori namunalarini o'rganish, maktabgacha, maktab va katta maktab yoshidagi bolalar kitobxonligining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish.

Ushbu metodik qo'llanma 3-kurs talabalariga mo'ljallangan.

## **1-mavzu: Kirish. Chet el bolalar adabiyoti fani, uning maqsadi va vazifalari**

### **Reja:**

1. Bolalar adabiyoti – har bir xalq axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi pedagogik xrestomatiya.
2. Chet el bolalar adabiyotining paydo bo`lish omillari:
  - a) umumbadiiy asarlarning bolalar kitobxonligi doirasiga o`tish tamoyillari; b) jahon xalqlarining pandnomachilik, didaktik adabiyoti va folklori – bolalar adabiyotining shakllantiruvchi bosh omil.

Tarixning eng qadimgi davrlaridan boshlab, inson nafaqat o`zining tirik qolishi uchun kurashgan, balki u o`z qabilasi, urug`ining ham uzoq yashab qolishi tadbirini ko`rgan. Binobarin, alla, ovutmachiq, ertak va topishmoqlar mazmuni, avvalo, ongli, kuchli, epchil va chaqqon insonni shakllantirishga qaratilgan. Kishilarning atrofni o`rab turgan olam haqidagi tasavvuri va u haqidagi yig`ilgan bilimlari, hayotiy tajriba asosidagi dono hikmatlari hamda xulosalari bolalarga o`ziga xos tarzda pand- nasihatlar shaklida, ularga tushunarli vositalarda etkazilgan. Shuning uchun ham turli xalqlarning, hattoki bir-biridan juda yiroq masofadagi mamlakatlarning xalq og`zaki ijodida ham juda ko`p mushtaraklik mavjud.

Ko`p xalqlarning eng qadimgi adabiy yodgorliklarida, chunonchi, mif va afsonalarida, ertaklarida - bir-biriga o`xshash tomonlar ko`zga yaqqol tashlanadi: bu jihat ko`proq inson va uning Yer yuzidagi ulug`, sharaflari va vazifasi haqidagi eng yuqori tasavvurlari hisoblangan qahramonlik, aql-zakovat, oliyjanoblik, yaxshilik, go`zallik vasf etilgan madhiyalarda o`z aksini topgan.

Olimlar haqli ravishda, ilmiy tasavvurlarning rivojlanishida, falsafaning, adabiyotning, musavvirlik san`atining, haykaltaroshlik, me`morchilik, musiqa, teatr san`atlarining paydo bo`lishida, miflar o`ziga xos manba bo`lib xizmat qilgan, deb ta`kidlashadi. Eng qadimgi ertaklarda turli xalq marosimlari,

an`analari, qabila urf - odatlari tasvirlangan. Yoxud ularning ibtidoiy miflar syujeti (voqeligi) bilan bog`liqligini kuzatish mumkin.

Vaqt o`tishi, kishilik jamiyatining rivojlanishi bilan ertak, mif va afsonalarni bolalar "o`zlashtirib" olishdi (yoki qachonlardir kattalar o`zlari uchun yaratgan eng sara narsalarni kichkintoylarga taqdim qilishganidek), keyinchalik esa jahon adabiyotining eng yorqin namunalari bilan bir qatorda "Robinzon Kruzo", "Gulliver", "Gargantuya" kabi asarlarni "o`zlashtirib" olishgan.

XIU - XV asrlarda G`arbiy Yevropa o`rta asrlardagi har qanday erkin fikrni ta`qib etuvchi aqidalar zulmatidan xalos bo`lgan, madaniyat va san`atning gullab-yashnagan markaziga aylandi. Bu jamiyatda burjuaziyaning paydo bo`lishi hamda shahar madaniyatining rivojlanishi bilan bog`liq bo`lib, Renessans (Uyg`onish) davri deb ataladi. Mazkur jarayonning asosi sifatida uning g`oyaviy tayanchi bo`lib, o`rta asrlarda inson shaxsining mustaqil rivojlanish qobiliyatiga ega ekanligi, uning his-tuyg`ulari va fikrlari erkin bo`la olishi mumkinligi to`g`risida mushohada yuritishning o`zi ta`qiqlab qo`yilgan davrdan keyin - yangi gumanizm, ya`ni insonparvarlik (lotinchadan humanus - inson) g`oyasi paydo bo`ldi.

"Uyg`onish" deb nomlanishning o`ziyoq insoniyat qadim zamonlardan buyon yig`ib kelgan barcha yorug` taassurotlarini rad etib, ko`p asr davom etgan qora tundan keyingi tong – yorug`likka qarab intilishi ma`nosini bildiradi, ya`ni, antik davr me`rosiga qayta qiziqish uyg`onganligi ifodasidir.

Buyuk nemis faylasufi Immanuil Kantning: "O`z aql - idrokingdan foydalanishga jasurlik top!", - degan xitobi, mavjud ijtimoiy munosabatlardan xalos bo`lishga, falsafa, ilm-fan, adabiyot va san`atning din homiyligidan chiqishga shior bo`lib xizmat qildi.

Aynan bolalar adabiyoti, dastlab, didaktik adabiyot namunasi sifatida XVII - XVIII asrlarda paydo bo`ldi. Lekin asta-sekin bu adabiyot o`zining betakror ko`rinishlari orqali nasihatimiz qoliplardan chiqa oldi. Bolalarga mo`ljallangan asarlar mualliflari, eng avvalo, o`z mamlakatlarining xalq og`zaki ijodiga murojaat qilishdi. Masalan, Sharl' Perro birinchi bo`lib kichik

kitobxonlarning qo`ligà fol'klordan oziqlangan va badiiy sayqal berilgan eng yaxshi adabiy ertaklarni taqdim etdi. Negaki, asar xalq ijodi zaminiga tayangan bo`lsa-da, adabiy ertak xususiyatlarini o`zida to`la saqlab qolgan.

XIX asr romantiklarining faoliyati keng kitobxonlar ommasiga xalq og`zaki ijodi va har bir xalqning milliy-adabiy manbalarini ochib berdi. Jumladan, bu bolalar adabiyotining rivojlanishiga ham o`z ta`sirini ko`rsatib, aka-uka Grimmlar, X.K.Andersen va boshqa ko`pgina ijodkorlarning adabiy hamda xalq ertaklari to`plamlari paydo bo`lishiga turtki bo`ldi. Natijada kichik kitobxonlar endilikda ham kitob, ham o`z tengqurlari hayoti aks ettirilgan badiiy tasvirlarni qo`liga ola boshladi. Binobarin, bolalar adabiyoti "katta" adabiyotning mustaqil tarmog`iga aylanib borayotgan edi.

Romantizm insonning ruhiy rivojlanishdagi o`z-o`zini anglash davri bolalikda kashf etilishini ochib berdi. Romantiklar asarlarida bolalik insonning o`zidagi bebaho ichki olam sifatida, shuningdek, teran mohiyati va ajoyibotlari bilan kattalarni ham o`ziga rom etuvchi davr tarzida talqin qilinadi. Katta yoshlik esa xuddi eng samimiy va bolalarcha beg`uborlik tark etilgan davr sifatida yoritiladi. Shuni tan olish kerakki, romantizm nafaqat bolalikni kashf etdi, balki uni eng sof mukammallik namunasi hamda mehr - shafqat timsoli sifatida insonga me`ros qilib qoldirdi.

Realistik tamoyillarning rivojlanishi, ruhiyatshunoslikning chuqurlashishi bilan bolalar adabiyotida keng qamrovli, ko`p qirrali bolalik obrazi mustahkamlandi. Bunda yozuvchilar insoniyat rivojlanishining ibtidolarini, yosh inson xarakterining tub-tubiga etib, bola ichki dunyosining murakkabliklariga asta-sekinlik bilan kirib borib, uning mutanosiblikda va ziddiyatlarda, hayotning yorqin hamda qorong`u ham qayg`uli onlarining kurashlarida shaxs sifatida shakllanishini ochib berishdi. Eng yaxshi yozuvchilar ijodini aniqlovchi asosiy vosita bu bolalikka ishonch, ulg`ayib kelayotgan insonga hurmat, unda rivojlanishning bor imkoniyatlarini, sarchashmalarini hamda asosiy omillarini ko`ra olish qobiliyatining borligidir.

XX asr o`zining revolyutsiyalari, urushlari, keskin ijtimoiy muammolari, o`tkir ziddiyatlari, siyosiy qarashlari bilan bolalar adabiyotini ham o`zgartirib yubordi. Dunyoning dahshatlari kichik kitobxon asari sahifalariga kirib bordi. Ularning qahramonlari - ijtimoiy jonzotlar, ular o`z holicha insonga nisbatan qilingan vahshiylikka qarshi borishadi, o`zlarining do`stlikka, muhabbatga bo`lgan huquqlarini talab qilishadi hamda kattalarni ularni tushunishlariga chaqirishadi. Zamon muammolari nafaqat realistik asarlarga, balki ertaklarga ham kirib bordi. Ular janriy xususiyatlaridan ozgina chekingan bo`lsalar-da, hamon yaxshilik- yovuzlik ustidan g`alaba qozonishiga umid bog`ashadi va shu yo`lda tinimsiz ma`naviy kurashlar olib borishadi.

Ilmiy-texnika revolyutsiyasi asri butun yer yuzidagi inson jamiyatiga yashash uchun katta hayotiy zarurat – Yerda hayotni saqlab qolish kabi muammoni tug`dirdi. Shuning uchun zamonaviy bolalar adabiyotida ekologik muammolar, atrofimizni o`rab turgan olam, hayvonot va o`simliklar dunyosi haqidagi kitoblar salmoqli o`rin egallaydi. Barcha mamlakatlarning naturalist (tabiat haqida yozadigan) yozuvchilari bolalarda tabiatga hamda barcha jonzotlarga nisbatan ehtiyotkorona munosabat va ularga nisbatan muhabbat ruhini tarbiyalash vazifasini o`z oldilariga maqsad qilib qo`yishgan.

Bolalar adabiyoti bugungi kunda o`zining janriy va tematik xususiyatlari jihatidan turli-tuman, o`ziga xos tarzda shakllanib ulgurdi. Unga dunyoning eng taniqli yozuvchilari o`z iste`dodlarini va faoliyatlarini bag`ishlashgan. Chunki ular insoniyat kelajagi o`sib borayotgan avlod qo`lida ekanligini yaxshi anglashadi... Eng asosiysi, yosh inson adabiyot yordamida, fransuz shoiri Polya Elyuara ta`biri bilan aytganda, o`zining dunyoqarashida "bir kishi ufqidan barcha kishilar ufqiga" ko`tariladi. Binobarin, hozirgi zamon chet el bolalar adabiyoti quyidagi omillar ta`sirida maydonga keldi, deyish mumkin:

1. Folklor asarlari hamda klassik yozuvchilarning avval kattalarga mo`ljallangan, ammo vaqt o`tishi bilan bolalar kitobxonligi doirasiga kirib, kichik kitobxonga so`zlab berish uchun hikoya tarzida qayta ishlangan asarlari (qadimgi yunon afsonalari, D. Defo, D. Svift, M. Servantesning romanlari).

2. Bolalar kitobxonligi doirasiga qisqartmalarsiz va qayta ishlanmasdan kirgan fol'klor hamda mumtoz asarlar (fol'klordagi erkalamalar, topishmoqlar, allalar, shuningdek, V. Skott, Ch. Dikens va boshqalarning asarlari).

3. Bevosita bolalarga mo'ljallangan asarlar.

Biz ba'zida adabiy ijodga tirik asos bo'lgan narsa haqida mushohada qilib ham o'tirmaymiz. Bu esa "so'z" edi. Ibtidoiy zamonda aytilgan "hikmatli so'z" odamlar uchun "samo"dan kelgan belgi, "ilohiy ishora" sifatida namoyon bo'lgan, qaysiki, bu hikmatlarni xotirada saqlash, uni avloddan avlodga etkazish mas'uliyati paydo bo'lgan. Bu urinishlar dastlab, aytish mumkinki, sinkretik shaklda inson bilan u ilohiylashtirgan tabiat kuchlari orasidagi bog'liqlikni aks ettiruvchi marosim qo'shiq va raqslarida ifoda etilgan. Asta-sekin insonning mehnat faoliyati davomida, uni tabiat ne'matlaridan foydalanishni o'zlashtirishi davomida hamda hali o'zi ham atrof-muhitda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni to'g'ri anglab yetmagan, qanaqadir kuchlarni o'zicha his etib, uni inson qiyofasid tasavvur qilib, ilohiylashtirib, g'ayritabiiy kuchlarga ega bo'lsa-da, ammo o'zining intilishlari, xatti-harakatlari bilan oddiy insonlarga juda o'xshab ketadigan, xudolar haqidagi miflarni yaratganlar. Bu miflar avval toshlarga o'yilgan rasmlarda, idishlarda, matohlarda aks ettirilgan bo'lsa, yozuv paydo bo'lishi bilan - mixxat shaklida sopolda (tablichkalarda), ierogliflar shaklida papiruslarda, terida, matohlarda birinchi alifbolarning harflari bilan yozilgan. Bunga o'xshash ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi arxeologik qazilmalardan bizga nafaqat qadimgi tariximiz haqidagi dalillar, balki badiiy adabiyotning eng yuqori xususiyatlariga ega bo'lgan asarlar orqali ham ayon bo'ladi. Aytish mumkinki, aynan shu manbalar jahon adabiyotining shakllanish jarayoniga o'z hissasini qo'shgan.

Qadimgi tarixning buyuk sivilizatsiyalaridan (eramizdan avvalgi 4-3 asrlarda) shumer, assiri, Misr, qadimgi yahudiy va forslardan bizgacha yetib kelgan buyuk asarlar hozirda insoniyat madaniyatining nodir durdonalariga aylangan. qadimgi rus tarixining buyuk tadqiqodchisi, akademik N.I.Konrad ta'kidlaganidek, adabiyotning paydo bo'lishi insoniyat olamidagi o'ziga xos



hodisa sifatida va rivojlanishida Gilgamish haqidagi epos, Injildagi tafsilotlar, qadimgi yahudiylar poeziyasi, "Mahabxorat" yoki "Iliada" matnlari katta "chashma" bo`lib xizmat qilgan. "Qadimgi Eski dunyo, - deb yozadi olim, - yangi adabiyot uchun birinchi manba bo`lib xizmat qilgan". Shunday qadimgi asarlardan ko`pchiligi, aniqrog`i, ularning epizodlari bolalarga ham so`zlab berilgan. Aytaylik, qadimgi afsonalarning bolalar kitobxonligida L. Tolstoy tomonidan qayta so`zlangan matnlari, chunonchi, assiriya ("Assiriyalik podsho Asarxadon"), hind ("Ikki og`a"), yunon ("Yetti yunon donishmandi"), rim afsonalari ("Qanday qilib g`ozlar Rimni saqlab qolishdi") keng tarqalgan. Hozirgi zamon bolalar kitobxonligida R. Rubenshteyn, A. Makarova, A. Sizova, S. Shipovskiy va boshqa mualliflarning ham shunday hikoyalari mustahkam o`rin olgan. Qadimgi hikoyalar syujetlari yozuvchilarni bolalar uchun mumtoz asarlar yozishga qayta - qayta ilhomlantirgan.

Birinchi sivilizatsiya hisoblanuvchi yozma yodgorliklarning bizgacha yetib kelgan eng qadimgi manbaalari shumer dostonlaridir. Ular, shubhasizki, eramizdan avvalgi III asrning birinchi yarmida paydo bo`lgan. Arxeologlar tomonidan topilgan sopolda mixxat bilan yozilgan taxtakachlardan (tablichkalardan) insoniyat Gilgamish eposi orqali nafaqat Sharqning, balki butun dunyoning qahramonona epik she`riyati namunasi bilan tanishdi. Ta`kidlash joizki, bu asar Gomer "Iliada"sidan ming yil avval erishilgan badiiy - falsafiy fikrlar cho`qqisidir.

Xudo qonidan va tuproqdan yaratilgan odamzot, ularga ilohiy kuchlar tomonidan yog`dirilayotgan kulfatlar, insonning bu kuchlar qarshisidagi ilojsizlikdan bir umrlik qo`rquvi, "ilohiy tanglik davri" haqidagi hikoyalar juda nozik va mohirona tasvirlangan. Voqea- hodisalar ritmik o`shida, boblarning boshlanishi va oxiri refren bilan birlashtirilgan. Asarning bosh qahramoni tengsiz g`ayritibiiy kuchga ega bo`lgan Gilgamish, og`ir kulfatlarga mahkum etilgan xalqini, o`zining do`sti Enkidu tomonidan ruhlantirilib, yovuzlik qarshi kurashga otlanadi. Do`sti Gilgamishning o`limi uchun yig`lab, sahroga bosh olib ketishi lirik ifodalanadi.

Ierogliflar bilan yozilgan qadimgi Misrnig yozma yodgorliklari eng katta miqdorni tashkil etadi. Bugungi kunda qadimgi Misr yodgorliklarining deyarli barchasi papiruslarda, sag`analar hamda ibodatxonalarning devorlarida, maqbara toshlarida yozib qoldirilgan yozuvlar o`qilgan. Bular ichida miflar hamda duolar, harbiy yurishlar tasvirlari, povestlar hamda sevgi lirikasi, sehrgarlar haqidagi hikoyalar to`plamlari mavjud. "Injil" – g`arb sivilizatsiyasining "kaliti". U ikki qismdan tashkil topgan: eramizdan avvalgi asrlarda yaratilgan qadimgi yoki Tavrotdan hamda xristianlikning birinchi asrlarida yaratilgan Yangi Injildan. Injil qo`lyozmalarining asl nusxalari bizgacha yetib kelmagan, uning eng qadimgi ro`yxatlari O`lik dengiz g`orlaridan 1947 yillarda topilgan. Ma`lumki, Eski Tavrot avval qadimgi yahudiy tilida yozilib, keyin yunon tiliga tarjima qilingan. Bu tarjima ustida 70 Iyerusalimlik "kitobchilar" ishlashgan, uni yana "Septuaginta"- "Yetmish kishining tarjimasi" deb ham atashadi. Oxirgisidan vizantiyalik missioner-monaxlar Kirill va Mifodiylar-Rus cho`qintirilishidan deyarli yuz yil oldin, Tavrotni cherkovslovyan tiliga o`girishgan.

Yangi Tavrot, ya`ni Injil yunon tilida yozilgan edi. "Bibliya" so`zining ma`nosi esa - yunonchada "Kitoblar" degan ma`noni anglatadi. Ular janrlari bir necha turdan iborat bo`lgan asarlarni o`z ichiga oladi: bular ham payg`ambarlar haqidagi oliy bilimlar, sevgining tantanali ovozi "qo`shiqlar qo`shig`ida", ham urushlar bayoni, ham madhiyalardir. Xudo Madhiyasi "Injilda" inson madhiyasi bilan -buyuk Ilohiy mavjudot sifatida hamda Yer yuzidagi barcha ishlari uchun mas`ul javobgar sifatida uyg`unlashib ketgan. O`tgan asrlarda ruhoniyyat P.Vozdvijenskiyning "Injil bolalar uchun hikoyalarda" deb nomlangan kitobi juda mashhur edi. Muallifning o`zi bunga shunday ta`rif beradi: "Men Yangi va Eski Tavrotning barcha voqealarini juda oddiy bolalar tilida so`zlashga harakat qildim, bu kitobni o`zlari o`qishadimi, yoki unga onasi, katta opasi yoki o`qimishli enaga o`qib beradimi, uni farqi yo`q, eng asosiysi, bolalar eng kichik yoshlaridan o`zlarining toza va beg`ubor qalblari bilan o`zlari so`zlangan hikoyalarning mazmunini tushunib, anglab olishsin".

Eramizdan avvalgi birinchi yuz yillik boshlarida, og`zaki manbalar an`ana bo`lib, qadimgi hind eposidek ajoyib san`at asarlari "Mahabxorat" va "Ramayana" yaratilgan deb hisoblashadi olimlarimiz. Yevropada bu haqda ikki yuz yildan sal avvalroq: 1785 Ost -hind savdo kompaniyasining xizmatchisi, hind poeziyasi va falsafasining bilimdoni Charlz Uilks, "Mahabxorat"ning ayrim parchalarini sanskritdan ingliz tiliga tarjima qildi. Deyarli shu tarjima bilan birga rus tilidagi tarjimasi ham chop etildi. Antik adabiyotning ilk davri "Iliada" va "Odisseya" dostonlari bilan boshlanadi. Bu asarning dunyo adabiyotining va keyingi san`atlarning rivojiga ta`siri beqiyos. Ularning muallifi VIII asrda yashab o`tgan ko`zi ojiz qo`shiqchi Gomer hisoblanadi. Yunon eposi syujeti asosiga Troya urushi qo`yilgan. Qadimgilar nazdida bu buyuk voqea edi. "Iliada" urushning faqatgina bir epizodi - buyuk qahramon Axillesni Mikeniya podshosi Agomemnon tomonidan haqoratlanishi va Axillesning qahr ustida Troya ustiga bostirib kelishi, uni egallashi va qamali to`g`risida hikoya qilinadi. "Odisseya" Troyaning boshqa qahramoni -Itaki podshosi Odisseyaning qaytishi va yo`lda shu bilan bog`liq bo`lgan sarguzashtlari haqida hikoya qilinadi. Rossiyada 1829 yili "Iliada"ning N.I.Gnedich tomonidan va "Odisseya"ning V.Jukovskiy tomonidan yaratilgan tarjimalari chop etilgan.

Xalq og`zaki ijodining ajoyib yodgorliklari orasida "Shaxrizoda ertaklari" eng oliy yodgorliklaridandir... Bu so`z ma`nosi? qadim o`tmishda to`qilgan; uning ranginkamon rishtalari butun er yuzini, go`zal so`z gilamlari bilan burkab chiqqan", -deb ta`riflagan M. Gor'kiy "Ming bir kecha ertaklari"ni. Bu ertaklarni o`qimagan yoki u haqda eshitmagan kishi bo`lmasa kerak. Bu go`zal ertaklar olamida o`zini yengil sezadi inson. Bu ertaklarning mashhurligi bir necha asrlardan buyon o`zgarmas. Bu ertaklarni nafaqat bolalar, balki kattalar ham qo`ldan qo`yishmaydi. G`arb kitobxonlari bu ertaklar bilan XVIII asrda fransuz A. Gallan tomonidan t'arjima qilingach tanishdi.

**Tayanch so`zlar:** pedagogik xrestomatiya, ertaknavislik, mixxat, mif, afsona, folklor, romantizm, bolalar kitobxonligi, qo`shiq, Renessans, didaktika,

epos, "Injil", "Bibliya", "Tavrot", "Ramayana", "Mahobxorat", "Iliada", "Odisseya".

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Eng qadimgi adabiy yodgorliklarda mif va afsonalar o`rni.
2. Eng qadimgi ertaklar va ularda ibtidoiy miflar ifodasiga misol keltiring?
3. G`arbiy Yevropada Renessans (Uyg`onish) davri qachon boshlangan va sabablari?
4. Chet el bolalar adabiyotining didaktik namunalari haqida nimalar bilasiz?
5. Yevropa adabiyotida romantizm va realistik tamoyillar ifodasini tushuntiring?.
6. Zamonaviy bolalar adabiyotda ijtimoiy hayot va dolzarb muammolar talqini haqida so`zlang.
7. Hozirgi zamon chet el bolalar adabiyoti tasnifotini oydinlashtiring?
8. Eng qadimgi epos va dostonlarning mavzuviy mundarijasi haqida mulohaza bildiring?

## **2-mavzu: Nemis bolalar adabiyoti**

### **Reja:**

1. Nemis bolalar adabiyotining shakllanishi.
2. Nemis klassik adabiyotining bolalar adabiyotiga munosabati.

**Tayanch tushunchalar:** klassik adabiyot, ertaknavis, mahorat

**IPT** – sharhlovchi ma'ruza.

**IAT** – mavzuga doir slayd.

Qadimgi nemis poeziyasi haqida qadimgi Rim yozuvchilari va keyingi davr yozma yodgorliklari yordamida mushohada qilish mumkin. Rim tarixchisi Tatsita tomonidan qadimgi olmonlarning jangovor va g`arbiy yurishlari haqida esga olinadi. Bunga qadimgi olmon yodgorliklarining epik she`riyati, 800 yilga qadar yozilgan "Xildebran haqida qo`shiq" asari misol bo`la oladi. "Qo`shiq"da (V-VI asrlarda) "xalqlarning buyuk ko`chishi" haqidagi voqealar tasvirlangan.

"Nibelunglar haqida qo`shiq" asari adabiy jihatdan XVIII asr boshlarida qayta ishlangan, va albatta ritsarlar, saroy hayoti tavsilotlari, ritsarlik sha`niga muhabbat bilan xizmat qilish va unga sodiqlik motivlari yotadi. Lekin shu qolip orasidan feodallikkacha bo`lgan davr olmon hayoti chizgilari bo`rtib chiqqan hikoyalar asosida yosh, navqiron Zigfridning ajdarni engishi, Nebilunglar xazinasini topishi, buyuk Ditrix Bernskiy va uning drujinasi haqidagi afsonalar ham o`rin topgan. Agar folklor kattalar adabiyoti uchun birinchi navbatda mavzu, syujet, janrlar manbai deb qaralsa, bolalar adabiyotida uning o`rni bu bilan tugamaydi. Folklor asosida bolalar adabiyotining, bola dunyoqarashining paydo bo`lishi hamda shakllanishida "uy" og`zaki ko`rinishi paydo bo`lgan. Taxmin qilish mumkinki, agar uyda, og`zaki tarzda yaxshilik va yomonlik haqida, yovuz va oq-qo`ngil ruhlar haqida, o`rta asrlar qahramonlari, yalmog`iz va ajdarlar haqidagi yozma yodgorliklar avval og`zaki aytilib, og`izdan–og`izga ko`chmaganda edi, balki bizgacha bu xalq durdonalari yetib kelmagan bo`larmidi?

Vilyam va Yakobson Grimmlar "Bolalar va oilaviy ertaklar" to`plamining so`zboshisida, bu dono an`anani baholay turib: "Bolalar ertaklari, bolalarga samimiy, yumshoq va toza qalblardagi nur bilan hayotga eng birinchi his-tuyg`ularni hamda fikrlarni uyg`otish maqsadida so`zlab beriladi. Lekin uning oddiy poeziyasi har bir kishini xursand qilishi hamda to`g`rilikka o`rgata olishi mumkin, yana bir afzalligi, u uy devorlari ichida qolib, bir umrga me`rosga aylanishi uchun ham bu ertaklarni oilaviy deb atadik", - degan edilar.

Olmoniyada Uyg`onish davri milliy madaniyatning shaxdam rivojlanishi bilan belgilanadi. Kitob chop etishning yutuqlari antik davr shoir va yozuvchilarining kitoblarini keng targ`ib qilishga imkon yaratib, jamiyatda umuminsonoiy g`oyalarni ilgari surdi. Nemis yozuvchilari, olimlari, rassomlari, haykaltaroshlari: Til`man Rimenshneyder yog`och haykaltaroshligi bobida o`zining o`lmas asarlari bilan, Gol`beyn kichkina tasviriy san`at asarlari bilan, Al`brext Dyurer - rassom, olim, gravyurachi, shoir - Evropa madaniyati Uyg`onish davrining yirik namoyondalaridan biri, tasviriy san`atning portret,

peyzaj va natyurmort janrlarini rivojlantirish bilan birga Injilga hamda Sebastian Brantning "Axmoqlar kemasi" (1457- 1521)asari - satirik va didaktik "oyna" deb shon-shuhrat qozongan asariga illyustratsiyalari bilan Renessans madaniyati xazinasiga o`zlarining ulkan hissalarini qo`shdilar. Nemis adabiyoti rivojiga hissa qo`shgan buyuk shoir va yozuvchilar sifatida quyidagilarni sanab o`tish mumkin: Iogann Vol'fgang Gyote, Iogann Xristof Fridrix Shiller, Lyudvig Tik, Axim fon Arnima va Klemens Brentanolar.

### **3-mavzu: Aka-uka Grimmlar hayoti va ijodi**

#### **Reja:**

1. Aka-uka Grimmlarning hayoti, faoliyati.
2. Aka-uka Grimmlarning bolalar adabiyotini rivojlantrishdagi hissasi
3. Ertaknavislik mahorati.

**IPT** – sharhlovchi ma'ruza.

**IAT** – mavzuga doir slayd.

**Aka-uka Yakob** (1785-1863), **Vilgelm** (1786-1859) **Grimmlar**. Ikki yuz yildan ko`proq vaqt ilgari ovloq Gessenning Xanau shaharchasida, hurmatli byurgaerlar oilasida (bu nasldan ko`pgina taniqli huquqshunoslar va ruhoniylar yetishib chiqqan) Filipp Vilgelm Grimm va uning ayoli Doroteyalar nikohidan katta o`g`illari Yakob, bir yildan so`ng esa uning ukasi Vilgelm dunyoga keldi. Tez orada butun oila o`rmonli tog`lar bilan o`ralgan, tinch osuda shaharcha - Shtaynauga ko`chib o`tishdi.

Oila kattagina edi: besh bola va bir qiz - Lotti ismli kichik qizaloq. Bu oilada barcha g`ayritabiiy ravishda mehnatsevar edi. Va barcha bir -birini sevar, hurmat qilardi. Lekin ular orasida bir yashar farq bilan Yakob va Vilgelm o`zgacha mehr bilan bir-biriga bog`langan edilar. Yoshlik chog`laridanoq aka-uka Grimmlar juftligi tug`ilgan edi. Taqdir ularga uzoq hayotni o`lchab bergan edi. Va ular o`zlarining qarilik chog`larigacha bu mustahkam bog`liqlik hamda mehr -oqibatni tark etishmadi.

Yakob 11 yoshga to'lganda ular otalaridan ajrab qolishdi. Bola oila boshlig'i bo'lib qoldi. U otasi tobuti oldida bolalarcha to'xtamay yig'lar, ammo umuman kattalarcha hamda qat'iylik va iroda bilan endi kichik ukalarining, mitti qizaloq Lottining, g'amdan gavdasi bukilgan bechora onasining eng katta g'amxo'ri, tayanchi o'zi ekanligini anglagan edi.

Keyin Kasselda gimnaziyada o'qidi. Belgilangan sakkiz yil o'rniga – tig'izlashtirilgan to'rt yil ichida aka-ukalar o'qishni bitirib, Marburg universitetiga o'qishga kirishadi. Universitetda ular qadimgi olmon she'riyati, runalari bilan qiziqib, shu qiziqishlarini umrlarini oxirigacha olib borishdi.

Universitetni tugatgach Grimmlar Kasselga qaytishadi. Va shu yerda katta bo'ron boshlandi: Napoleon armiyasi Olmoniyaga bostirib kirdi. Fransuz hukmronligi - begona odamlar, begona urf-odatlar, shaharning har bir burchagidan eshitilib turgan begona so'zlashuv Olmoniyaga, uning tiliga, urf-odatlariga, tabiatiga, adabiyotiga mehr qo'ygan o'spirinlarni qattiq iztirobga solardi. O'z vatani kishilarning so'ngan ruhiyatini ko'tarish, yurakni ezadigan sukunatga chek qo'yish ilinji yosh olimlarni nemis xalqi tarixi va adabiyotiga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttirdi. Aka-uka Grimmlar vaqtlarini kutubxonalarda o'tkarishdi. Ular noyob qadimgi olmon manuskriptlarini (qo'lyozmalarni), masalan, nemis adabiyotining birinchi yodgorligi "Xil'debran haqida qo'shiq" asarini o'rganib, qadimgi nemis she'riyati to'plamlarini chop etishdi. Bu bilan ular xalq yuragining tubida mudrab yotgan qadimgi hikmatlarni uyg'otish kabi maqsadlarini amalga oshirishdi. Ammo bular faqat yozma manbalar bilan bog'liq edi. Ularni esa yana yiroqroq manzillar - xalq qalbining tubi, zamonlarning eng qadimi qiziqtirayotgan edi. Va ular folklorga murojaat qilishdi. Aka-uka Grimmlar o'zlarining harakatdagi faoliyatlari-ertaklar to'plash bilan mashg'ul bo'ldilar.

Birinchi mustaqil topilmalar 1807 yilga taalluqli bo'lib, ular kasseldagi ikki oila: Vil'dlar va Xassenpfluglar bilan bog'liq. "Boshmaldoq - bola", "Aqli Gretel", "Navqiron Pahlavon", "Oq kabutar", "Mushuk va sichqonning do'stligi", "It va chumchuq" kabi ertaklar Vildlar va Xassenpfluglar oilasi a'zolarining

og`zidan yozilgan to`plamlar sirasiga kiradi. To`plamlarning jamlanishida o`zining katta qissasini qo`shgan dorifurush (aptekachi) Vil'dning beshinchi qizi Ganriett Doroteya Vild, kelajakda Vilgelmning turmush o`rtog`i (Yakob umrining oxirigacha ham uylanmagan) haqida albatta aytib o`tish joiz. Doroteyadan aka-uka Grimmlarga "Ganzel' va Gritel'", "Yerto`la Bekasi", "Kuylaydigan danakcha" kabi erataklarni taqdim etdi. Askarlarning achinarli, nochor-kambag`allikdagi hayotlari, kamsitilgan shaxsiyatlari haqida so`zlab beruvchi Grimmlarning qayg`uli ertaklari qariya Krauze bayonidan yozib olingan.

"Bolalar va oilaviy ertaklar" kitobining ukasi Lyudvig(1790-1863) tomonidan illyustratsiyalar chizilgan nashri, kitobxonlar qo`liga 20 dekabrda Rojdestvo bayrami arafasida qo`lga kirdi va kitoblar qarindoshlar uchun eng katta sovg`a bo`ldi. To`planning shubhasiz shon-shuhrati aka-uka Grimmlarning keng kitobxonlar ommasiga kitobning ikkinchi qismini ham to`plab, chop ettirishga ruhlantirdi. Endi asosiy hikoyachi sifatida Kassel atrofidagi Nidertsveren qishlog`ida yashovchi Doroteya Fiman (1755-1815) ismli qiz aka-ukalarga qirqaqa yaqin ertak tuhfa qildi. Hozirda Doroteya Fimanning uyi va pivoxonasi qishloqchada uning do`stlari jamiyati bilan gavjum (muzey sifatida). Ikkinchi kitob nashrdan chiqqach, Grimmlar qo`lida yana anchagina ertaklar yig`ilib qoldi va ular uchinchi kitobni bosmadan chiqarishni taxmin qilishdi, ammo keyinchalik fikrlaridan qaytib, endilikda ikkinchi qismning keyingi nashrida yig`ilib qolgan ertaklarni qo`shib chop etishni ma`qul topdilar. Hammasi bo`lib Grimmlar bisotida 200 dan ortiq ertak mavjud. Savol tug`iladi: aka-uka Grimmlarning ertaklari - bu haqiqiy asarlarmi yoki shunchaki, xalq ijodi og`zaki bayonining yozma ko`chirmasimi? Javob murakkab va biryoqlama emas. Aka-ukalar, ayniqsa, Yakob, ertaklar o`z aslicha, xalqchil bo`lib qolishi tarafdori bo`lgan, toki ularning qayta bayon etilishida, biror bir tuzatish kiritilmagan, zamonaviy ko`rinishda qayta ishlanmagan yoki o`z didi bilan yo`g`rilmagan bo`lsin, degan fikrida qat`iy turgan. Vil'gel'm olimdan ko`ra, ko`proq shoirtabiat bo`lgani uchun ertaklarga badiiy sayqal berish tarafdori



bo'lgan. Agar joiz bo'lsa, bu ikkifikrlilik juda foydali edi: ularning sa'yi harakatlari bilan Grimmlar ertaklari o'zining halqchilligini yo'qotmagan holda muallif she'riy uslubining birligini saqlab qolgan. Keyin aka-ukalar "Nemis grammatikasi"ni, nemis mifologiyasi maktabiga asos bo'lgan - "Nemis mifologiyasi"ni chop etishadi. Umrlarining so'nggida aka-uka Grimmlar Berlin universitetida ma'ruzalar o'qiydilar hamda nemis tili lug'atini tuzish ustida ishlaydilar. Ikki buyuk olim, tilshunos, adabiyotshunos, buyuk ertakchilar o'zlarining umrlarini shu tariqa o'tkazishgan. Germanistika maktabi asoschilari hamda bolalarning eng mashhur yozuvchilariga aylangan bu ikki buyuk shaxs yashab o'tgan Kassil shahrida muzey tashkil qilinib, ularning shaxsiy buyumlari, kitoblarining yuzdan ortiq dunyo tillariga tarjima qilingan nusxalari, ukalari Lyudvigning san'at asarlari ehtiyotkorona saqlanib kelinmoqda. Ularning asarlari boshqa tillarga tarjima qilingandan keyin Yevropa bo'ylab sayohatni boshlab yuborishdi: 1824 yilda fransuz tiliga tarjima qilindi, 1826 yilda fransuz tilidagi nusxasi rus kitobxonlariga yetib keldi (19 asr Rossiyada fransuz madaniyati, tili va adabiyoti ustuvor edi), rus tiliga Pushkinning do'sti va ustози V.A. Jukovskiy tomonidan tarjima qilinib, "Bolalarning suhbatdoshi" ("Detskiy sobesednik") jurnalida chop etildi.

Tayanch so'zlar: Bolalar va oilaviy ertaklar, germanistika, "Xildebran haqida qo'shiq", "Nibelunglar haqida qo'shiq", Olmoniya, portret, peyzaj, natyurmort, illyustratsiya, Vil'dlar, Xassenpflug, Rojdestvo, Kassel, Nidertsveren, xalq ijodi, og'zaki bayon, grammatika, mifologiya.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Qadimgi nemis poeziyasi qaysi manbalarda tilga olingan ?
2. "Xildebran haqida qo'shiq" qanday asar?
3. "Nibelunglar haqida qo'shiq" asari-chi?
4. Nemis bolalar adabiyotining fol'klorga munosabati?
5. Olmoniya Uyg'onish davrini boshlab bergan omillar?
6. Nemis adabiyoti rivojiga hissa qo'shgan buyuk shoir va yozuvchilarni sanab bering?

7. Aka-uka Grimmlarning adabiy-ilmiy ijodi va tadqiqotchilik faoliyati haqida nimalarni bilasiz?
8. Grimmlarning ertaklar to`plami va folklorshunoslikka oid asarlarini sanang?
9. Ikki buyuk olim, tilshunos va adabiyotshunos, ertakchilarning nemis bolalar adabiyotiga qo`shgan ulkan hissasi nimalardan iborat?

#### **4-mavzu: Angliya bolalar adabiyoti va uning ayrim tamoyillari**

##### **Reja:**

1. Angliya bolalar adabiyotining yuzaga kelish omillari.
2. "Beovulf" - qadimgi ingliz poemasi va bolalar kitobxonligining asosi sifatida.
3. Balladalarning bolalar adabiyoti rivojiga ta`siri.
4. Daniel Defo, Djonatan Svift, Artur Konan Doyl, Lyuz Kerrol, Djozef Redyard Kipling – bolalar adabiyotining yetuk namoyondalari sifatida.

Buyuk Britaniya bolalar adabiyoti hech qachon shaxsan bolalar adabiyoti bo`lmagan va har doim kattalar adabiyoti uchun metaforalar hamda obrazlar vositasining xazinasini sifatida foydalanilgan. Shuni ta`kidlash mumkinki, tumanli Albionning chuqur tarixi davomida qandaydir g`ayritabiiy odat mavjud: "kattalar" kitobini maroq bilan bolalar o`qiydi (mumtoz namuna - Daniel Defoning "Robinzonning sarguzashtlari" asari), kattalar esa bolalar uchun yozilgan kitoblarni ishtiyoq bilan qo`lga oladilar. Shunday "kattalar" bolalar kitobiga Angliyaning qadimgi ingliz poemasi "Beovul'f" hamda Aylana stol atrofidagi ritsarlar haqidagi afsonalari kiradi. Bu yerda shunday dalilga e`tiborni qaratish joizki, boshqa davlatlar kabi Angliya ham murakkab tarixiy davrlarni boshdan kechirgan. R. Kipling ertagining qahramoni Pak ta`biri bilan aytganda, tumanli Albionaga xudolar kelishgan va ketishgan, ular bilan birga esa turli xalqlarning madaniyatlari ham kelib ketishgan. Qadimgi zamin tarixiga og`ir qismatlar yog`ilgan: bir necha bor ishg`ol qilingan hamda talon-taroj qilingan.

Avval bular Sezar boshchiligidagi rimliklar edi, keyin piktlar hamda skotlar, keyinchalik esa Genet va Gorz boshchiligidagi anglosakslar bostirib kirishgan.

IX asrda anglosakslarning yetti grafligi (davlati) korol Egbert boshchiligida birlashtirilib Angliya degan umumiy nom oldi. Egbertning o'limidan so'ng anglosakslarga, butun G'arbiy Yevropani larzaga solgan Shimol xalqi - normandlar yoki vikinglar bilan kurashishga to'g'ri keldi. Birinchi bo'lib Angliyaga datalik bostirib kirib, o'zlarining davlatlarini - Data huquqi oblastiga (viloyatiga) asos solishdi. Ularning tashrifidan Angliyani Buyuk Al'fred xalos qildi (880-893 yillar). Lekin bu g'alaba qisqa muddatli bo'lib, vikingalar Angliya tinchligiga tez-tez rahna solib turadigan bo'lib qolishdi. Faqatgina bir necha yillardan so'ng Data va Angliya qiroli Knut o'limidan so'ng Angliya danlardan xalos bo'ldi, va normandlar sarkardasi Jahongir Vilgelm boshchiligadgi qo'shinlar istilosi ostida yashadi. Shu vaqtdan boshlab bir necha asrlar davomida Angliyada Fransuz hukmronligi ta'siri davom etib keldi. Yagona anglosakscha qahramonlik poeziyasining namunasi sifatida, bizgacha xalq an'analari voqeligini saqlab qolgan "Beovul'f" dostoni yetib kelgan va bolalar uchun minglab hikoyalar hamda qo'shiqlarda dunyo bo'ylab tarqalgan. Doston asosida badiiy filmlar va multfilmlar olingan, uning materiallaridan foydalanib, bolalar va o'smirlar uchun fantastik povestlar va romanlar yozilgan. Dostonning syujeti ikkiga bo'linadi, bosh qahramonning shaxsi va uning qahramonliklarining tasviri: birinchi qismda Beovul'f botqoq maxluqi Grendel hamda uning qahrli, badbashara onasi bilan olishishi haqida, ikkinchi qismida - ellik yil davomida davlatni baxtli, farovon boshqargani, keyin olovli ajdar bilan olishib yaralanib, umrini oxirlagani haqida bayon qilinadi. Asarning xalq folkloridan kelib chiqqan, deyilishiga ham asos bor.

Ko'p tadqiqotchilar, dostonning bosh qahramoni ayiqdan kelib chiqqan ertak qahramoniga juda o'xshash, bunga uning ismi guvohlik berishini, chunki qadimgi ingliz tilidan kelib chiqqan Beowulf "asalari bo'risi", ya'ni ayiq degan ma'noni anglatishini dalil deb ko'rsatishadi.

Markaziy epizodlarning birinchi qismida qadimgi Islandiya sagalari bilan parallellik kuzatiladi, bu narsa asarning juda qadimiy ekanligidan dalolat bersa, ikkinchi qismi esa umumolmon ertaklari bilan hamohangdir. Olimlarning aksari qismi "Beovulf" Angliya xristianlikni qabul qilmasdan oldin yaratilgan desa, hozirgi zamon olimlari asar VIII yoki IX asrlarda xristian kiriklari` tomonidan yozilgan degan fikrni ilgari surishadi. Bunga esa asarning bir butunligiga mone`lik qiluvchi, Eski Tavrotdan katta hajmdagi parchalarning keltirilishi guvohlik beradi.

"Beovulf" alliteratsion (badiiy nutqda, she`rda bir xil yoki ohangdosh undoshlarning qaytarilishi, ketma-ket, yonma-yon kelishi) she`rlar shaklida yozilgan. Zamonaviy ingliz tiliga "Beovulf" bir necha marotaba tarjima qilingan, lekin Uil'yam Morris (1895) va Archibal'd Stronglarning (1925) tarjimasi eng zo`r deb tan olingan. Hech mubolag`asiz aytish mumkinki, karol Arturning ritsarlari haqidagi afsonalar biror -bir o`spirinni befarq qoldirmasa kerak. Karol Artur haqida V asrning oxiri VI asrning boshlaridagi asarlarda eslanib, uni Britaniyaga bostirib kirgan anglosakslarga qarshi kurashning boshida turgan, afsonaviy qahramon kel'dlarning tarixiy dohiysi deb tilga olinadi. Kelgusi asarlarda Atrur qiyofasi biroz o`zgartirilib, u qirol Uter Pentragorning donishmand o`g`li qiyofasida gavdalansa, keyinchalik u ritsarlik timsoli qilib tasvirlanadi. Ritsarlik an`anasi Provansda Janubiy Fransiyada paydo bo`lgan va boshqa xalqlarga namuna bo`lib xizmat qilgan. Ritsarlik muhitida ma`lum kurtuaz (juda muloyimlik, nazokatlik, xushmuomalalik) qoidalari paydo bo`ldi - ritsarlar o`zini tutishida rioya qilishi kerak bo`lgan ma`lum qoidalar, chunonchi, o`ta xushmuomala bo`lib, o`zining Go`zal Xonimini sevishi, o`zining hamyurtlarini hurmat qilishi va kambag`al bechoralardan yordamini ayamasligi, mard-jasur bo`lishi, Muqaddas Cherkovga beg`araz hamda sodiq bo`lib xizmat qilishi singari g`oyalar ritsarlik romanlarida o`z aksini topdi. Ingliz tilida birinchi ritsarlik romanlari XIII asrda paydo bo`ldi. XIV asrda Shimoliy Angliyada yoki Shotlandiyada "Arturning o`limi" poemasi yaratiladi ( lotin tarixidagi Galfred Monmutskiyning she`riy qayta ishlangan shakli bo`lishi ehtimoldan xoli emas).

Karol Atrur haqidagi dostonlarning bir necha xil ishlanmalari bo`lib, ularning barchasida ertak elementlari mavjud, romanlarning syujetida esa Muqaddas Greale haqidagi diniy-mistik motivlar mujassamlashib ketgan. XIV va XV asrlar - ingliz va shotland xalq she`riyatining gullab yashnagan davri. Qo`shiqlar va balladalar - uning eng ko`p tarqalgan shaklidir. O`smirlar kitobxonligi uchun ko`p bitilgan afsonaviy qahramon, serhimmat qaroqchi Robin Gud haqidagi asarlarning paydo bo`lishi bilan bolalar adabiyoti hamda butun bir ingliz adabiyotining rivojlanishiga balladalarning ahamiyati juda katta bo`ldi. Lirik va dramatik elementlar uyg`unligida yaratilgan, ba`zida musiqiy asboblari jo`rligida kuylashga mo`ljallangan, muallifsiz epik asar ballada deyiladi. Balladalarning kelib chiqishi har xil. Bularga ham xristian afsonalari, ham qadimgi epik qo`shiqlar, ham ritsarlik romanlari, hatto antik syujetlar ham kiritilgan. Barcha balladalar bayonida lavhalar asosiy o`rinni egallaydi, ya`ni voqelik oldindan kirish bayonisiz, sakrab harakatlanadi. Bu dalil, tinglovchilari oldindan tayyorlangan, ya`ni asarning boshi bilan avvaldan tanish bo`lgan auditoriya deb izohlashga asos bo`ladi. Real voqea-hodisalar sharoitida mavjud bo`lgan haqiqiy tarixiy shaxslar haqida so`zlovchi tarixiy balladalar eng katta guruhni tashkil etadi. Ballada qahramonlari turli-tuman bo`lib, ular orasida eng mashuri serhimmat qaroqchi Robin Gud haqidagisidir. Robin Gud haqidagi balladalar XV - XVI asrlar mobaynida ko`chirib yozilgan va bir butun to`plamlarga, sikllarga jamlangan. 1266 yil sanasi bilan ko`rsatilgan xronikalarning birida quyidagi yozuvni o`qish mumkin: "... Xususiy mulklaridan ayrilgan odamlar orasida qaroqchi Robert Gud (muallifdan: xronikada shunday ko`rsatilgan) juda mashur edi, uni xalq juda sevar va o`zining o`yin va teatr tomoshalarida qahramon sifatida ko`rsatishni yoqtirar hamda Aangliya sayyoh qo`shiqchilarning eng sevimli tarixiy qahramoni sifatida kuylanar edi". 1521 yildagi Jon Merining lotincha "Buyuk Britaniya tarixi"da Robin Gud hamda uning ajoyib yordamchisi Kichik Jon Sher Yurak Richard zamonida yashab o`tganligi haqida ma`lumot bor. Tarixnavisning ta`kidlashicha, Robin Gud yuzlab ko`ngilli merganlar to`dasiga boshliq bo`lib, davlat qo`shinlari ularga hech teng kela

olmas ekan. Qaroqchilar faqat boylarni tunashar, kambag'al bechoralarni esa himoya qilishar va ayollarga umuman yomonlik qilishmas ekanlar. XIX asrning birinchi yarmida Angliyani bosib olgan niderlandlarga qarshi kurash olib borgan kurashchi Robin Gud haqidagi talqin juda mashhur bo'lgan. Shu nuqtai nazarni Val'ter Skott ("Ayvengo" romanida) va fransuz tarixchisi Ogyust Terri ("Robin Gud" va "Normandlar tomonidan Angliyaning bosib olinishi" kabi ishlarida) ilgari surishgan. Rus tilida Yskott Linning "Robin Gud va uning ozodligi" hamda A. Gershenzod va I. Tokmakovalarning - saxovatli qaroqchi haqidagi ikkita ajoyib tarjimalari mavjud.

Ba'zi balladalarda o'liklar qabrlaridan chiqib, o'z yaqinlariga yordam berishadi yoki ularga bergan va'dalarini ustidan chiqib, ularni tinchlantirishadi. Hattoki sevishgan qalblar halok bo'lganidan so'ng u dunyoda bir-birlari bilan topishib orom topishgani va ularning qabri ustiga atirgullar yoki na'mataklar unib chiqqani haqidagilari ham bor. Bu turdagi balladalar ertakona yoki fantastik balladalar guruhiga kiradi. Aynan shu kabi asarlar keyinchalik Yevropa romantiklari, shu jumladan, Tennisonn, Koldrij, Sauti, Uayl'd va Kipling kabi yozuvchilarni ham rom etadi.

Rossiyada ingliz va shotland balladalarini A. Pushkin va V. Jukovskiy, N. Gumelyov va R. Rojdestvenskiy, A.K. Tolstoy va S. Marshaklar tarjima qilishgan.

XVI asrda qirolicha Yelizavetaning boshqaruvi davrida bosma stanoklarning paydo bo'lishi bilan Angliyada bolalarga bag'ishlangan kitoblar chiqqa boshladi. Ularning asosiy vazifasi bolani jamiyatda o'zini yaxshi va munosib tutishga o'rgatuvchi kitoblar bo'lgan. Bu kitoblarning aksariyati lotin tilidan tarjima qilingan. "Bola asl tarbiyasida buzilgan...", deb hisoblar edi qarshi chiquvchi cherkov. Aynan shu ta'kid XVI - XVIII asrlarda Angliya bolalar adabiyotining oqimlarini aniqlab berdi. Quruq didaktizm va pand-nasihat o'sha davr bolalar adabiyotini qamrab olgan edi. 1702 yilda bolalar uchun din ishlari vaziri Tomas Uaytning "Kichik bolalar uchun kichik kitobcha" deya nomlangan asari bosmadan chiqadi va bunda muallif bema'ni kitoblarni hamda

balladarni bolalarga o`qib bermaslikni, balki "Injil"ni o`rgatishlarini" tavsiya qiladi. Ko`p kitoblar maslahatlar to`plami - ko`p hollarda yaxshi otalarning o`zlarining itoatkor bolalariga pand-nasihatlaridan iborat bo`lgan. Ammo birinchi kitoblardan oq bolalar uchun darsliklarda qofiyaga tushirilgan topishmoqlar, alifbolar hamda o`yinlar yozilgan.

XVIII asrda hozirda ham bolalar sevib mutoala qiladigan - Robinzon Kruzo hamda Gulliverning sarguzashtlari haqida bayon qilingan kitoblar chop etilgan. Daniel Defo va Jonatan Sviftlar, aslida ular umuman bolalar uchun yozishmagan bo`lsadlar-da, Uyg`onish davri bolalar adabiyotining eng zo`r yozuvchilari sirasiga kiradilar.

**Daniyel Defo** (taxm. 1660-1731 yillar). Bu ajoyib ite`dod sohibi J.J. Russo, V.Gyote, U. Peynlar tomonidan ijodi zo`r maqtovlar hamda zavqlanish bilar tilga olingan, o`zining eng mashhur va eng taniqli romani "Robinzon Kruzo" bilan bolalar adabiyotiga kirib kelgan nafaqat zo`r yozuvchi, balki ajoyib noshir hamdir. O`zining o`ttiz yillik ijodiy faoliyati davomida Defo o`z nomi hamda bir qancha boshqa adabiy taxalluslar bilan siyosiy pamfletlar, huquqshunoslikka hamda falsafaga oid ilmiy asarlar, iqtisodga oid risolalar, savdogarlar uchun qo`llanmalar, o`zini jamiyatda qanday tutishga oid maslahatlar, san`at haqidagi doston, hunarmandchilikning umumiy tarixi va boshqalar haqida asarlar yozgan. To`rt yuzdan ortiq romanlar, esselar muallifi, mashhur jurnalist hamda noshir bo`lishiga qaramay, bir umrga barcha mamlakatlarning kitobxonlari uchun birday, ajoyib asar muallifi sifatida tanilib qoldi. Bu kitob chop etilishining birinchi yillaridanoq (besh oy mobaynida kitobning to`rtta nashri chiqdi) shunaqangi mashhur bo`lib ketdiki, Defo "Robinzon Kruzoning" ikkinchi hamda uchinchi qismlarini yozishiga to`g`ri keldi. Ammo bolalar faqatgina birinchi romanni sevib qolishdi. Rus tilida M.Shishmaryova va K.Chukovskiy tomonidan tarjima qilingan ajoyib nusxalari bor. "Robinzon Kruzo" sarguzasht romanning eng zo`r an`analari asosida yozilgan va shu janrning barcha talablariga javob beradi. Unda ham kemaning

g`arq bo`lshi va quvg`inlar, ham qaroqchilar va piratlar, ham otishmalar va qochqinlar mujassam...

Ammo uzoq muddat tanqidchilar bu asarni faqatgina ongli va maqsadi sari intilayotgan insonning qaynab turgan jo`shqin quvvati hamda uning mehnatining ma`naviy kuchini tarannum etuvchi va umuman, XVIII asr Angliyadagi ijtimoiy tuzumni ko`klarga ko`taruvchi asar deb baho berib kelishgan. "Robinzon Kruzo"ning muvaffaqiyati, eng avvalo, XVII asr va keyingi asrlar mobaynida o`quvchilarga bir xil qiziqish uyg`otgan, kimsasiz orolga tushib qolgan qahramon hayotiga bo`lgan katta qiziqish bilan baholanadi. "Robinzon Kruzo" asarining asosiga Xuan Fernandes orolida yakka-yolg`iz roppa-rosa to`rt yilu to`rt oy qolib ketgan shotlandiyalik matros Aleksandr Selkirk haqidagi real voqea yotadi. Kitobning birinchi nashri haqiqiy shov-shuvga sabab bo`lib ketgan edi, chunki Daniel Defo qo`lyozmani bechora dengizchining haqiqiy kundaliklaridan deb bergan, kitobxon esa dengizchining boshiga tushgan kulfatlariga haqiqiy deb ishonishgan. Asar markazida-har qanday qiyinchilik va musibatlarga bardosh bera oladigan qahramon turibdi. Tadqiqotchilar kitobning muvafaqiyatini ham qahramon obrazi va uning boshiga tushgan kulfatlarda deb bilishadi. Robinzon Kruzo kimsasiz orolga tushib, faqatgina o`zining tinimsiz quvvati hamda mehnati evaziga tirik qoladi. "Robinzon Kruzo" nafaqat o`zining ko`p sonli nashri bilan mashhur, balki rus, fransuz, nemis, shotland, golland, grek tillaridagi qayta ishlanmalari, taqlidlari hamda qalbaki nusxalari orqali dong taratdi. Rossiyada "Robinzon Kruzo" 1762 yildva Peterburgda ikki qismda chop etildi. 1785 yilda N.I.Novikovning "Ong va qalb uchun bolalar kitobxonligi" ("Detskoe chtenie dlya serdtsa i razuma") jurnalida chop etildi, 1819 yilda S. N. Glinkaning "Yangi bolalar kitobxonligi" ("Novoe detskoe chtenie") jurnalining birinchi soni "Robinzon Kruzo" bilan nashr qilindi. XIX asrda Rossiyada bu asarni nafaqat rus tilida, balki boshqa tillarda har xil qayta ishlangan hikoyalarda va parchalarda o`qishgan. Asarning rus tilidagi yangi talqini Lev Tolstoyning "Yasnaya Polyana" deb nomlangan pedagogik jurnalida chop etildi. Bu asar Tolstoyning o`zi tomonidan tarjima qilinmagani ehtimoldan xoli bo`lmasada,



ammo jurnalda bir necha bor uning nomi bilan qayta nashr qilingan. Shuni qayd etib o'tish kerakki, Defoga ingliz adabiyotida birinchi urinish "gotik" asar - "Missis Villning arvohi", ingliz adabiyotiga xos ironiya (iztehzo) tarzida yozilgan asar ham tegishlidir.

**Jonatan Svift** (1667 - 1745). Jonatan Svift, unga zamondosh bo'lgan Defoga nisbatan Angliyada mavjud bo'lgan ijtimoiy tuzumda hukm surgan siyosiy qarashlarga mutlaqo zid fikrlarda bo'lgan. Uning mashhur "Gulliver" asari aristokratik jamiyat va davlat tizimiga qarshi qaratilgan o'tkir satiradan boshqa narsa emas. Asarning to'liq nomi: "Avval xirurg, keyinchalik bir nechta kemalar kapitani Lemyuel Gulliverning dunyoning turli uzoq mamlakatlariga qilgan sayohati" deyilgan. O'tkir kinoya va Angliyaning siyosiy tuzumi ustidan masxaralashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan asar eng avvalo bolalarni o'ziga o'zining shakli bilan jalb etadi, ko'z oldimizda yana mumtoz sarguzasht roman uning barcha o'ziga xos alomatlari bilan gavdalandi. Bu asarni Fransua Rablening "realistik" fantastikasi hamda fol'klor bilan aloqasi bor, deb bemalol ta'kidlash mumkin. Gulliverning g'ayritabiiy sarguzashtlari, uning liliputlar hamda ulkan, bahaybat odamlar (velikanlar) mamlakatiga tushib qolishi, voqea-hodisalarning to'qima va aql bovar qilmas darajada hayratli ekanligi bolalarni juda xursand qilmasligi, o'qish jarayonida ularni aqlini o'g'irlamasligining iloji yo'q, ammo shu bilan bir qatorda boshqalarning fikrini, dunyoqarashini hurmat qilish, yaxshilik va mehribonlikni boshqalarning urf-odatlarini o'z o'rniga qo'yishni, boshqalarning dardiga hamdard bo'lishni ham o'rgatadi. "Men sharaflil maqsad bilan insoniyatni ziyoli qilish va unga o'rgatish uchun yozaman", - deb yozgan edi Svift.

XVIII asrning o'rtalarida ingliz tiliga Charl' Perro ertaklarining birinchi tarjimalari nashr qilindi, asrning oxirida esa "Ming bir kecha ertaklari" chop etildi.

1744-1780-yillarda ingliz va shotland xalq ertaklarining birinchi to'plamlari nashr etiladi. Aynan shu vaqtdan boshlab, shaxsan ingliz bolalar adabiyoti sanasining hisobi boshlanadi, eng avvalo, noshir va tipograf Djon

N'yuberining (1717-1767) kitoblari buning yorqin namunasi bo`la oladi. Aynan shu muallifga birinchi bolalar jurnali "Liliputlar jurnali" tegishlidir. 1750 yilda "Kichkinagina, yaxshigina kitobcha", 1751-1752 yillarda uch tomli "Fanlar olami" kitoblari chop qilinadi. O. Gel'dsmitning ta`rificha, "N'yuberi o`zini bolalarning do`sti deb ataydi, aslida esa u butun insoniyatning qadrdoni edi".

**Valter Skott** (1771 -1832). Bu yozuvchi haqqoniy mumtoz tarixiy roman asoschisi deb tan olingan. U birinchi bo`lib quruq tarix bayoniga tirik insonlarni (aksariyat o`zining to`qima personajlarini) kiritdi va shu narsa uning ijodini jamiyatning barcha qatlamlari uchun qiziqarli bo`lgan asarlar yozilishiga asos bo`ldi. Edenburglik advokat, xalq balladalarini yig`uvchisi, kolleksioner hamda gotik uslubida qurilgan hashamatli qasr egasi ser Val'ter Skottga 26 roman, bir qancha she`riy to`plamlar, to`rtta p'esa, cheksiz tarjimalar, adabiy qayta ishlangan tarjimalar, jurnal maqolalari, retsenziya fel'etonlar, yorqin tarixiy tadqiqotlar tegishlidir. Hozirda Skottning asarlari o`smirlar adabiyoti xazinasini sanalsa, o`z vaqtida uning asarlarini Bayron va Gyote, Geyne va Stendallar o`qigan. Pushkin uni "shotland sehgari" deb atagan bo`lsa, Bal'zak uni o`z ustoziga deb bilgan. Val'ter Skott Shotlandiyaning Edenburg shahrida mashhur va taniqli shotland shajarasiga mansub huquqshunos oilasida tug`ildi. U o`zining ham ota, ham ona tomonidan mashhur sulolardan ekanligi bilan faxrlangan. 1772 yilning fevralida Skott bolalar falaji bilan kasal bo`lib, bir o`ng oyog`i harakatlanmay qoladi. Davolash uchun qilingan urinishlarning bari samarasiz bo`lib, u bir umrga cho`loq bo`lib qoladi. Skottning o`zi, aynan shu kasallikni boshqa bolalar bilan birga o`ynab, harakat qila olmasligini - yoshligidan "sehrli va qo`rqinchli" asarlar mutoolasi bilan mashg`ul bo`lishiga sabab, deb ko`rsatadi. Kasalligi sabab u yoshligini shahar tashqarisidagi buvasining uyida o`tkazadi. Bu davrlar uning yodida bir umrga qolgan. Djanet xola unga tarixiy qahramonlik haqidagi va sehrli balladalarni o`qib berar, Skott esa uni darhol yodlab olardi. Skott 1814 yilda asosan dunyoviy shon-shuhrat keltirgan romanlar yozdi. Uning romanlari orqali bizga Angliya va Shotlandiya tarixi butun borlig`icha gavdalnadi. Skott ijodida romantizmdan realizmga o`tish kuzatiladi. Birinchi

bo`lib uning asarlarida davlat boshqaruvi, jamiyat hayotiga qirollar, podsholar ko`zi bilan emas, balki badiiy qahramonlar nigohi bilan razm solinadi. Jahon adabiyoti tarixiga Val'ter Skott tarixiy roman asoschisi sifatida hamda shu janrning eng zo`r ustasi sifatida kirib kelgan.

**Artur Konan Doyle** (1859 -1930). Artur Konan Doyle detektiv janrning asoschisi, bir qancha ilmiy-fantastik, tarixiy asarlar, ko`p sonli hikoyalar, povestlar, she`rlar muallifi hisoblanadi. U buyuk iztopar, eng chalkash jinoyatlarni o`zining tengsiz iste`dodi bilan fosh qilib, jabrlanganlar va sitamgarlarning himoyachisiga aylangan Sherlok Xolms obrazini yaratdi. Birinchi bor Sherlok Xolms "Shafaqrang etyudlar" da paydo bo`ladi. Xolms va doktor Vatsonlar uning keyingi asarlarining, masalan, "Sherlok Xolmsning sarguzashtlari", "It Baskerviliy", "Sherlok Xolmsning qaytishi", "Sherlok Xolmsning sud amaliyotidagi voqealar"ining qahramonlaridirlar. Sherlok Xolmsni hech bir ikkilanishsiz har bir kishi biladigan adabiy qahramonlar sirasiga kiritish mumkin. Konan Doylening biograflaridan biri X. Pirson: "Hozirda ingliz adabiyotida, xuddi Xolmsdek oddiy ko`cha odamlari qalbidan va ongidan joy olgan faqatgina uchta badiiy qahramon bor: bu uch qahramon - Romeo, Sherlok va Robinzon Kruzo",-deb ta`kidlagan edi. Yana shu dalil ham mavjudki, yozuvchi kezi kelib o`zining ham joniga tekkan qahramonini sekingina o`ldirmoqchi bo`lganida, uni e`tiroz hamda hayajon bilan bitilgan xatlarga ko`mib tashlashdi va Konan Doylening qahramoniga qayta jon bag`ishlab, uni hayotga qaytarishdan boshqa iloji qolmadi.

Konan Doyle, shuningdek, iste`dodli ilmiy-fantastik asarlar ham yozdi, ularning markazida olimlarning g`ayritabiiy kashfiyotlari turadi. Mashhur detektivdan tashqari u etmishga yaqin romanlar yozgan ularni Sherlok Xolms hikoyalaridan muhimroq deb sanagan ("Stouning qarindoshlari ", "Arturning o`limi", "Oq otryad" va boshqalar). Konan Doyle kelib chiqishi Britaniyadagi mashhur sulolalarga tegishli bo`lgan irlandiyalik rassom oilasida dunyoga kelgan. Qiziqarli hikoyalar yozishni Artur bolaligida- maktabdan boshlagan, ammo kelajakda u o`zini yozuvchilik mehnatiga emas, balki vrachlik kasbiga

bag`ishlamoqchi bo`lgan. 1881 yili Konan Doyl bakalavr vrachlik diplomini oladi va yashash uchun hakimlik qilib pul topadi. Lekin yozuvchilik mehnati asta-sekin ko`proq vaqtni olib qo`yadigan bo`lib, undan kelayotgan daromad ham yaxshi hayotni ta`minlashga yetarli edi. Shunday qilib, 1890 yildan boshlab Konan Doyl o`zini hayotini yozuvchilikka bag`ishlaydi. Konan Doyl qahramonlarining prototipi hayotdagi - Djozef Bell bo`lsa-da, Xolmsning ko`proq muallif bilan o`xshashlik tomonlari bor. Bejizga yozuvchi o`zining interv'yularidan birida: "Sherlok Xolms.. - bu mening o`zim",- demagan edi.

Sherlok Xolms - mustahkam mantiqiy fikrga, boy tasavvurga hamda noyob kuzatuvchanlik xususiyatiga ega bo`lgan shaxs. Shu qobiliyatlari unga chuvalashib ketgan voqea-hodisalar chigalligini ochib tashlashga yordam beradi. Bu qobiliyatlari o`zida ham mujassamligini Doyl birda isbotlagan ham: 1906 yilda "Deyli telegraf"da bir qancha maqolalar chop etib, nohaq qamalgan qandaydir Djozef Yodlning oqlashga musharraf bo`lgan. Adabiyot tarixiga hamda o`smirlar adabiyoti kitobxonligida Konan Doyl, eng avvalo, detektiv janr yaratuvchisi sifatida kirib kelgan.

**Tayanch so`zlar:** "Beovulf" , Aylana stol, anglosaks, alliteratsiya, ritsar, ballada, antik syujet, Robin Gud, gotik, kundalik, qo`lyozma, yangi bolalar kitobxonligi, "Robinzon Kruzo", aristokratik jamiyat, mumtoz sarguzasht, realistik fantastika, g`ayritabiiy sarguzasht, liliput, velikan, tarixiy roman, detektiv janr, kameta, jungli, tashxis, badiiy fotografiya.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Buyuk Britaniya bolalar adabiyotidagi ilk qadamlar haqida so`zlang.
2. Kattalar va bolalar kitoblarining o`zaro aloqadorligi haqida fikr bildiring?.
3. "Beovul'f"-qanday asar?
4. Angliyaning barpo etilishi va uning tarixiga oid ilk asarlarni sanang?
5. Ritsarlar haqidagi afsonalar mohiyati nimadan iborat?
6. Robin Gud haqidagi afsonalar va balladalarning bolalar adabiyoti rivojiga ta`sirini qanday baholaysiz?

- 7.D.Defo va uning mashhur qissasining yozilish tarixi haqida nimalarni bilasiz?.
- 8.Gulliverning g`ayritabiiy sarguzashtlari haqidagi asarining janriy xususiyatlari nimalardan iborat?
9. Valter Skott qanday yozuvchi?
10. "Sherlok Xolms" qaysi adibning mashhur qahramoni?
11. Detektiv janr haqida ma`lumot bering?
12. Anamalistik ertaklar asoschisi kim va bu janr xususiyati?
13. Nega Kerrolning kitoblari "Bolalar uchun emas" deb topilgan?
14. Alisa qaysi asar qahramoni?

## **5-mavzu: R. Kipling – bolalar adabiyotining yetuk vakili**

### **Reja:**

1. R. Kiplingning hayoti, faoliyati.
  2. Ijodidagi o`ziga xosliklar.
  3. "Maugli"ning yaratilish tarixi, badiiyati.
- IPT** – sharhlovchi ma'ruza.
- IAT** – mavzuga doir slayd.

**Jozef Redyard Kipling**(1865 - 1936). Kipling ingliz adabiyotida serqirra va anchagina qarama-qarshiliklarga yo`g`rilgan shaxs. Tanqidchilar uning askarlik sharafiga, kuchi va tartibini o`rnatishda idealga intilishlari haqida ko`p fikr bildirishgan. Uning g`oyalari deyarli sodda va g`ayritabiiy: Britaniya imperiyasi saltanati barchadan ustun, inglizlarning o`zlari esa dunyoda eng oliy millat, ularning eng ustun qonunlari asosida boshqa xalqlarni ulardek yashashga majburlovchi. Ammo Kiplingning ertagi dunyoda eng mashhur asarlardan biri bo`lib, bolalar uni o`qishayotganida undagi kuch va tartib-qoida haqidagi g`oyalarga umuman parvo ham qilishmaydi. Kipling ko`p yillar davomida hindular koloniyasida jurnalist bo`lib ishlagan, ajoyib tarzda sharq fol'klori bilan

tanish hamda o`z ko`zi bilan Sharq tabiati go`zalligiga guvoh bo`lgan va bu narsa, albatta, uning ijodida o`z aksini topmay qolmagan.

Kiplingni ingliz adabiyotiga bostirib kirgan "qonunsiz kameta" deb atashgan. Bunga asos ham bor edi: adabiy jimlik davri viktorianlikning intihosida Kiplingning asarlari o`zining jozibasi, tilining aniq va ravonligi, dunyoqarashining hayotiyli va jasurligi hamda sog`lom optimistik ruhdagi personajlari bilan kitobxonlar ommasini zabt etdi. Yozuvchilar, shu jumladan, Oskar Uayl't ham uni ortiqcha qo`pollikda va jurnalistik bachkanalikda (vul'garizm) ayblashadi. Do`stlari, masalan, Genri Jeyms uning "keskin vatanparlik ruhdagi she`rlarini" o`ta shilqimlik, deb baho berishgan. Dushmanlari esa Kiplingni oddiy qilib "adabiy bezori" deb atashgan. Ammo "vaqt yozuvchi va uning fikrlarini kechirdi, chunki u yaxshi yozgan edi", Kiplingning siyosiy qarashlari atrofida turli munozarali fikrlar esa bizning zamonimizda uni yo`g`otgan nomini qaytarib berdi. Uning jajji qizalog`i Effining bitmas-tuganmas "Qayerdan?", "Qanaqa?" deb bergan savollariga javob bera turib yozgan "Ana shunaqa ertaklar" (yoki "Shunchaki ertaklar") to`plamidagi animalistik ertaklari butun dunyo bolalariga tanish. Tanqidchilar ertaklarda Kiplingning "qatigo`o`llik" ("jelezniy") ta`sirini topishga harchand urinishmasin, baribir, uning kulgili hayvonlari hamda noyob sarguzashtlari, "Nima uchun tuyaning bukri bor?", yoki, "Nima uchun kitning halqumi buncha katta?" kabi savollarga bergan hazilomuz javoblari bolalarga yoqadi. Kiplingning avval ham bolalar uchun kitoblari bo`lgan, masalan, "Jasur kapitanlar", ikki tomlik "Jungli haqida kitob" kabi; ammo unga haqiqiy shon-shuhratni aynan "Shunchaki ertaklar" to`plami olib kelgan. Bu "shunchaki" ertaklar emas, balki noyob uy kitobi, mehribon otaning suyukli bolasiga atab yozgani hamdir, buni esa bolalar hech qachon nazardan chetda qoldirishmaydi va yetarlicha baho bera olishadi. Shu o`rinda ta`kidlab o`tish zarurki, Kipling ingliz bolalar adabiyoti an`analarini davom ettirgan, o`zi ertaklarga rasmlar chizib, ularga izohlar bergan. Anamalistik ertaklardan tashqari, Kipling fantastik ertaklar janrida ham ijod qilgan. Uni fantastika janrining asoschilaridan biri, desa ham bo`ladi. "Pek

tepaliklik Pak" va "Feyaning sovg`asi" kabi ikki tomlik asarlarining qahramonlari Shekspirning Pak ismli qahramonidir. Pak yosh singlisi Yunega va ukasi Danga Angliyaning tarixini so`zlab beradi, uning sehrgarliklari hamda o`zining qiziq hangomalari barchani quvontiradi. Ba`zida Kipling hikoyalarning davomini kitobxon fikr-mulohazasiga havola qilib, uni qiziqtirib qo`yadi. Kiplingning o`quvchi bilan bevosita muloqotga kirishishi, ertak bayoni xuddi tarix darslarida o`tirib, o`sha davrga sayohat uyushtirilishi kabi taassurot qoldirishi asarning o`ziga xosligini belgilaydi. Kiplingning deyarli barcha asarlari bayon etilishi lozim bo`lgan prozaik asarning mazmunini mantiqiy takrorlovchi she`riy muqaddima bilan boshlanadi.

**Lyuis Kerrol** (1832-1898). Asl ismi Charlz Dodjons-Oksford universitetining professori, matematik, mantiq va tashxis sohasi bo`yicha mutaxassis, butun dunyoda L'yuis Kerrol' nomi bilan mashhur. Uning sevimli o`quvchisi kollej rektorining qizi Alisa Liddell uchun to`qigan ertaklari, "bema`ni", "mantiqsiz" ertaklar deb nom olgan va shuhrat qozongan. Ertaklar shu qizning ismi bilan "Alisa Liddell" deb nomlangan. U ajoyib matematik. Hozirga qadar uning ishlari o`zining isbotiga muhtoj emasligi hamda fikr va mulohazalarning mantiqan aniq va to`g`riligi bilan barchani hayratga soladi. Professor shu bilan birga, suratga tushirish (fotografiya) bilan ham shug`ullangan. Kerrolning tushirgan suratlari badiiy fotografiya tarixining eng noyob asarlari qatoridan o`rin olgan. Uning nomi ertak tarixiga bir umrga muhrlangan. "Alisa Ajoyibotlar Mamlakatida" ertagi muallifi mumtoz va folklor an`analarni mujassamlashtirgani holda o`ziga xos shunday shaklli asar yaratdiki, alal oqibat, istehzo va parodiya janridagi ertak paydo bo`ldi. "Alisa Ajoyibotlar Mamlakatida" yoki "Alisa Oyna Ortida" ertaklari yana shunisi bilan farqlanadiki, undagi "mantiqsizlik" ortida, xuddi bolalar hazilida ijtimoiy satira yashiringanidek, sog`lom fikr yashirin. Kerrolning kitoblari "bolalar uchun emas", deb topilishining yana bir sababi shundaki, bu viktorianlik jamiyatida fikr yuritish ta`qiqlangan muammolar haqida yozishning yakkayu-yagona yo`li bo`lgan usulni o`ylab topganligidadir. Birinchi bo`lib asarning "bolalar uchun

emas", "kattalarga yo`naltirilgan"ligini asarga rasmlar chizgan illyustrator Alisani "boladek bo`lmagan qizcha" sifatida tasvirlagan, malakali siyosiy karikaturachi Jon Tennil his qildi, ammo muallifning o`ziga bu narsa unchalik yoqib tushmadi. Shunga qaramasdan, bolalar uchun "Alisa"ni g`ayritabiiy ekanligini inkor qilib bo`lmaydi; avvalo, qahramon bilan bir qancha sehrli sarguzashtlar hamda qiziqarli voqealar sodir bo`lishinigina fahmlayotgan o`quvchi uchun. Alisa haqiqatdan ham mangu bo`lib qoldi, Irland dengizi bo`yidagi Landudnoda Alisa va Oq quyoncha sharafiga katta me`moriy yodgorlik barpo etilgan.

## **6-mavzu: Fransiya bolalar adabiyoti va uning shakllanish tamoyillari**

### **Reja:**

1. Eng qadimgi fransuz adabiyoti.
  - a) "Roland haqida qo`shiq" - dastlabki fransuz adabiyoti namunasi;
  - b) ertaklarning oltin asri;
  - v)"Gargantuya va Pantagryuel" - ilk bolalar kitobxonligi namunasi.
2. Charl Perro va uning adabiy ertaklarida bolalar obrazi ifodasi.
3. Jyul Vern-o`smirlarning fantastik adibi.
4. Antuan de Sent-Ekzyuperining "Kichikina shahzoda" ertak- qissasi va masallari bolalar adabiyotining namunasi sifatida.

Fransuz adabiyotining ilk yodgorliklari IX asrning ikkinchi yarmiga to`g`ri keladi. Bu sof diniy mazmundagi asarlar edi. Lekin X asrga kelib lotin adabiyoti bilan tanishgan sayyor qo`shiqchilar, shoirlar tufayli "janglyorlar poeziyasi" paydo bo`ladi. "Janglyorlar" birinchi epik dostonlar – jestlarni, ya`ni, "faoliyat qo`shiqlari"ni yaratishdi. Ular syujetining asosida VIII - X asr boshlaridagi tarixiy voqealar, chunonchi, sarkarda Buyuk Karl xalqlarining ko`chish davri voqealari yotadi. Asta-sekin bu asarlarning syujetiga biror-bir voqea-hodisaning bayoni bosh maqsad etib qo`yila borib, keyinchalik biror-bir



qahramon, buyuk bir shaxs haqida kuylanadigan hamda ular alohida to`plamlarga yig`ila boshlangan. Buyuk Karl nomi bilan bog`liq to`plamlar ancha mashhur bo`lgan. Shunday to`plamlardan mashhur fransuz qahramonlik eposining yodgorligi "Rolland haqida qo`shiq" hozirgi kunlargacha mashhurdir. Bu asar syujetiga yurtini bosqinchilardan saqlab qolish uchun o`zini qurbon qilgan qahramon haqida bayon qilinadi. "Roland haqida qo`shiq" jahon xalqlarining bolalarga bag`ishlangan dastlabki mashhur fransuz adabiyoti namunasidir. XVIII asr Fransiyada adabiy ertaklar an`anaviyligi sifatida e`tirofga sazovor. Bu aslida bolalarga emas, kattalarga mo`ljallangan adabiyot sifatida yuzaga kelgan. Ungacha ham bolalar adabiyoti degan alohida tushuncha mavjud bo`lmay, faqat keyingi asrdagina bolalar kitobxonligi hodisasi voqelikka aylangan. Ya`ni, kattalar adabiyotidan qayta ishlanib, kichkintoylar uchun soddalashtirilgan, ularga moslashtirilgan adabiyot paydo bo`ldi. Shunday nashrlarga Fransua Rablening XVI asrda yozilgan va Uyg`onish davri adabiyotining yorqin namunasi sifatida o`rin olgan "Gargantuya va Pantagryuel" asaridir. Butun Evropada bo`lgani singari Fransiyada ham bu davr dunyo va insonni kashf etish, inson qadriyatlarini, uning ijodiy imkoniyatlari va intilishlari davri bo`ldi. Uyg`onish davri yozuvchi va shoirlari o`zlarining ijodlari bilan insoniyat olamining barcha jabhalarini qamrab olishdi. Shunday bo`lsa-da, adabiyotda hali ertak va masallarga nisbatan past nazar bilan qarash illati mavjud edi. Go`yoki, "ertakona" an`ana faqatgina jiddiy bo`lmagan, "badiiy jihatdan zaif adabiyot"dagina uchragan. Ammo Rable o`zining mashhur romanida hech ikkilanmay, folklordagi ulkan odamlar (velikanlarning) obrazidan foydalandi. Fransiyada romantizm bilan birga xalq ijodi va madaniyatiga yetuk estetik hodisa sifatida qiziqib murojaat qilish, Yevropaning boshqa mamlakatlaridan ancha keyin shakllandi. Bilamizki, xalq ertaklarini yig`ib yozish esa XIX asrning yetmishinchi yillaridagina boshlandi.

XVII asr oxiri Charl' Perro ertaklarining yaratilishi bilan belgilanadi va uning ertaklari fransuz adabiy ertaklarining eng zo`r hamda yorqin namunalari sifatida e`tirof etiladi. Fransiyada XVIII asr esa ertaklarning oltin asri

hisoblanadi. Uyg`onish davrida talaygina shoir va yozuvchilar bu universal janrga ko`p murojaat qilgan va uning estetik imkoniyatlaridan foydalanib, dolzarb mavzular bilan boyitib borishgan. Masalan, Val'ter falsafiy ertaklar yozgan. Sharqning "Ming bir kecha" ertaklari fransuz tiliga tarjima qilingach, sharqona ertaklarga o`xshatishlar paydo bo`ldi. Ammo shu XVIII asrning o`zidayoq ertaklarning urf bo`lishi ancha pasaydi. Ilgari bolalarga mo`ljallangan maxsus adabiyot yo`qligi uchun kichkintoylar kattalarning asarlarini o`qishar edi. Keyingi asrlarda esa Sharl' Perroning qisqartirilgan ertaklaridan aynan bolalar uchun namunalar tayyorlangan. Ulardan shafqatsizlik, erkinlik, badiiy o`yinlar olib tashlanib, anchayin soddalashtirilgan. Russoning inson aql-zakovatiga siqinish hamda dunyoga ongli ravishda nazar solishi kabi pedagogik nazariyalari ham Uyg`onish davri bilan bog`liq. Qomusiy olimning ijodiy va falsafiy me`rosiga, xuddi o`sha davr yangi g`oyalarining hamda bolalar ta`lim-tarbiyasining xazinasida murojaat qilishgan.

**Fransua Rable** (1494 - 1553) Fransiya Uyg`onish davrining ulkan adibi va Yevropaning buyuk insonparvarlaridan biri. U Shinonda kichik sud amaldori oilasida dunyoga kelgan. Rable fransiskan cherkovining monaxi, keyin ruhoni darajasini oldi. U tabiiy fanlar, tabobat bilan shug`ullangan va 1528 yilda cherkov hukumatining ruxsati bilan Parijga jo`nab ketadi. Keyinroq esa Lionda katta kasalxonaning vrachi bo`lib ishlaydi hamda shu shaharning o`zida yozganlarini chop ettiradi. Bir qancha vaqt Rable Italiyada yashab, botanika bilan shug`ullanadi. Ma`lumki, faqatgina cherkov va monastirlar o`zlarining mevazor bog`lari hamda seleksiya ishlari bilan mashhur bo`lishgan. Rable o`ziga tanish bo`lmagan meva, sabzavotlarning urug`larini va navlarini yig`ib, Fransiya jo`natar edi. 1533-yilda "Pantagryuel"ning birinchi qismi paydo bo`ldi. Aslini olib qaraganda, Rable "Buyuk va bahaybat ulkan odam (velikan) Gargantyua haqidagi bebaho va buyuk xronikalar" deb nomlangan xalq ertagi syujetini qayta ishlagan va undan foydalangan. Badiiy jihatdan zaif "Gargantyua" o`zida keng folklorni hamda eski ritsarlik romanlarining qahramonlariga yo`naltirilgan o`tkir satirani o`z ichiga olgan. "Pantagryuel" esa

Rable tomonidan o`ylab topilgan bo`lib, shu xalq kitobining davomi, ya`ni, asl nusxaning sodda yasamasi edi. 1534-yili "Pantagryuelning otasi, buyuk Gargantyuaning dahshatli hayoti haqidagi povest" deb nomlangan kitob bosmadan chiqadi. Lekin bu kitob "Pantagryuel"ni orqaga surib, romanning birinchi kitobi bo`lib oldi. Bu asarda Rable tomonidan ko`tarilgan savollarning eng asosiysi sifatida Gargantyuaning tarbiyasi haqidagi muammoni keltirish mumkin. Qirol Granguz'e avval o`z o`g`lining tarbiyasini sxolastlarga topshiradi. O`rta asrlarda cherkov dogmalarini hech qanday mantiqiy sharhlarsiz, sun`iy ravishda izohlashga asoslangan falsafa va shu yo`nalish murabbiysi. Ammo sxolastika shu davrga kelib quruq yod oldirish usuliga o`tib olgan edi. O`qituvchilar bolaga o`rgatilayotgan narsalarni tutilmasdan, aytilayotgan so`zning mantiqiga yetmay turib, barchasini yod olishga majbur qilishar edi. Buning natijasida bola hech narsani o`rgana olmasdi. Rable kitobxonlarga Gargantyuaning gumanistlar tomonidan o`qitib-o`rgatilishi haqidagi boblarda o`zining ideallarini bayon qiladi. Rablening asosiy pedagogik qarashlari italyan gumanistlari va Erazm Rotterdamskiyning qarashlari bilan to`g`ri keladi. Ular insonning aqliy va jismoniy rivojlanishi o`zaro uyg`unlikda kechishi, ya`ni, aqliy tarbiya albatta, jismoniy tarbiya bilan birgalikda olib borilishi kerakligini ta`kidalydi. Binobarin, Rable ta`lim-tarbiya jarayoni har xil fanlar bilan almashinib turishi, dam olishga ham vaqt ajratilishi kerak, shundagina ta`lim oluvchi ishtiyoq va xursandchilik bilan o`rganadi, degan mantiqqa tayangan. Shunday qilib, romanning syujeti xalq ijodidan olingan bo`lib, oddiy tilda bayon qilingan, uning tomirlari folklorga borib taqaladi. Rablening tili ham asosan, xalqchil, faqatgina muallif uni badiiy va ilmiy elementlarni qo`shib boyitgan. Rablening donishmandligi va yumori unga haqiqatdan ham jahon madaniyati tarixida abadiy romanni qoldirdi. Uning Gargantyua hamda Pantagryuelning bolaligi va tarbiyasi haqidagi kitoblari ko`pgina dunyo tillariga tarjima qilinib, qayta-qayta nashr etildi.

**Jyul Vern** (1828-1905) hali-hamon o`smirlarning eng sevimli yozuvchilaridan biri bo`lib qolmoqda. Uning kitoblari dunyoga kelishi bilanoq, jahon tillariga

tarjima qilinib, butun jahon bo`ylab tarqalgan. Zamondoshlari uni butundunyo sayyohi, ustaxonasiz kashfiyotchi, deb atashgan. U fransuz adabiyotida ilmiy fantastik janrning asoschisi. Adibning ijodiy g`oyalari juda ulkan: butun dunyoni, turli iqlimdagi mamlakatlarning tabiatini, turli xalqlarning madaniyati, urf-odati hamda an`analarini tasvirlash edi. Lekin bularning barchasini u geograf sifatida emas, balki, "G`aroyib sayohatlar" (yoki "G`aroyib sarguzashtlar") deb nomlagan ko`p tomli romanlar seriyasini yaratish maqsadini ko`zlardi. Jyul' Vern "G`aroyib sayohatlar" ustida ishlashni 1862 yildan 1905 yilgacha olib bordi va hamma qismlarining nashri qariyb yarim asrga cho`zildi. Uning asarlarida dunyo bo`ylab sayohatlar, chunonchi, Yevropa mamlakatlari, Shimoliy va Janubiy Amerika, Afrika, Osiyo, Avstraliya, Okeaniya, Arktika va Antarktika mamlakatlari tasvirlangan. To`rtta roman "robinzonad" turkumini tashkil etadi; ularning voqealari kimsasiz orollarda kechadi. Boshqa romanlarning voqealari okeanlarda, dengizlarda, hattoki, planetalararo bo`shliqlarda bo`lib o`tadi. "G`aroyib sayohatlar"da muallifning jug`rofik, aniq va texnika fanlariga oid, fantastika va muhandislikka oid bilimlari ajoyib tarzda uyg`unlashib ketadi. Vernning qahramonlari – tadqiqotchilar, muhandislar, quruvchilar; ular uzoq masofalarni bosib o`tishadi, yangi mashinalarning turlarini yaratishadi, suv osti hamda havo kemalari ixtiro qilishadi, vulkanlarni, dengiz va okean tublarini tadqiq qilishadi hamda yangi erlarni kashf qilishadi. Binobarin, muallif jahon adabiyotiga ilmiy-fantastika janrining asoschisi bo`lib, kirib keldi. Shu jumladan, uning romanlari g`aroyib sayohatlar hamda sarguzashtlar namunasidir. Uning kitoblarida har bir zukko, aql-idrokli o`spirinni qiziqtirib qo`yadigan barcha narsalar mujassam. Bundan tashqari, uning asarlarida insonning yaratuvchanlik qobiliyati, ijodkorligi va aql-zakovatiga ishonch hissi ufurib turabdi. Yozuvchining o`zi Nante shahridagi advokat oilasida dunyoga kelgan. Oilaviy an`anaga ko`ra, bolakay otasining kasbini me`ros qilib olmoqchi edi. Ammo bola dengiz sayohatlarini, kemalarni orzu qilardi. Lekin otasi Jyul' Vernni parij huquq maktabiga o`qishga jo`natadi. O`ta qiziquvchan yosh yigitchaning ilmga tashnaligi uni Milliy kutubxonaga borib ko`proq kitob o`qishga, ma`ruzalarda,

ilmiy munozaralarda ishtirok etishga, geografiya, astronomiya kitoblarini o`qishga hamda yangiliklardan boxabar bo`lishga undaydi. U o`zining yozuvchilik iqtidoriga amin bo`lgan holda komediyalar, dramalar, librettolar yozishga kirishadi va shu bila bir qatorda, Nantga qaytib yuristlik qilish niyati ham yo`q emasdi. U "Havo sharida besh hafta" deb nomlangan debyut asarga qo`l uradi. Ammo bu asar uning barcha taxminlaridan ham ortiqroq natijalar berdi. Bu ilm haqidagi haqiqiy asar bo`lib, unda qiziqarli sarguzashtlar, ilmiy bilimlar va gipotezalarni ommalashtirish bilan uyg`unlashib ketadi. Afrika haqidagi birinchi asarning o`zidayoq Jyul' Vern hali kashf etilmagan Nil manbalarining aniq joylarini bashorat qiladi. Havo shari bilan bog`liq fantastikani ortidan endi "Yer markaziga sayohat" (1864) deb nomlangan geologik, keyin Arktika haqidagi "Kapitan Gatterasning sayohatlari va sarguzashtlari" (1864-1865) hamda "Yerdan Oyga" deb nomlanagan fazoviy asarlar paydo bo`ldi. Fransuz yozuvchisining qahramonlari doim yodda qolarlidir. "Kapitan Grantning bolalari" haqida ham shunday fikrni bildirish mumkin. Uning qahramonlari yuragining tozaligi va maqsadlari sari intilishlari, sotqinlik va ikkiyuzlamachilikni bilmasliklari hamda har doim o`zlarining oldiga qo`ygan maqsadlarini amalga oshishiga ishonishlari bilan ajralib turishadi va ularning niyatlari o`zlariga hamroh bo`lib, yo`llarida uchragan barcha qiyinchilik va to`siqlarni yengib o`tishadi.

Shunga hamohang voqelik tizimi "Mo`jizakor orol", "Yigirma ming le suv ostida" kabi romanlarida davom ettiriladi. Shunday qilib, yuqorida nomlari zikr etilgan romanlar "Kapitan Grantning bolalari" "G`aroyib sayohatlar" bilan birgalikda trilogiyalar seriyasini tashkil etadi. Bu romanlar asosida yosh kitobxonlarning bir nechta avlodlari tarbiyalangan. Endilikda, ilm-fan taraqqiy etib, katta odimlar ila rivojlanayotir. Ammo, Kapitan Nemoning "Nautilus"i yoki jyulverncha aqlga sig`mas mashinalari eskirgan bo`lsa-da, baribir adib qahramonlarining mard-jasurligi avvalgidek, yoshlarni o`ziga tortadi. Fransuz yozuvchisining kitoblari motivi asosida bir qancha mul'tiplikatsion va badiiy fil'mlar olingan, spektakllar qo`yilgan.

**Antuan de Sent-Ekzyuperi** (1900 -1944). Mashhur yozuvchi, roman va esselar muallifi Antuan de Sent-Ekzyuperi bolalar adabiyotiga "Kichkina shahzoda" ertakona povesti bilan kirib keldi. Yozuvchi 1927-yilda "Janubiy pochtachi" romani bilan debyut (ilk asar, birinchi urinish) qilgan edi, ammo faqatgina 1939- yildagina Antuan de Sent-Ekzyuperiga uning "Tungi parvoz" asari shuhrat keltirdi. Muallif o`z shaxsiy tajribasidan ma`lum bo`lgan birinchi parvozlari hamda samolyotlar haqida yozgan edi. 1939-yili yozuvchini "Insonlar sayyorasi" kitobi uchun Fransuz akademiyasi "Romanning Katta premiyasi" degan unvon bilan taqdirladi. Ikkinchi jahon urushi yillarida Antuan de Sent-Ekzyuperi Harbiy uchuvchi bo`lib xizmat qildi va 1942-yili uning "H`arbiy uchuvchi" deb nomlangan kitobi bosmadan chiqdi. Uning "Tsitadel" nomli asari tugallanmay qoldi; kunlarning birida Sent-Ekzyuperi jangovor topshiriqdan qaytib kelmadi. U qahramonona shaxs edi va bu narsa uning asarlaridan ham ufarib turardi. Fransuz yozuvchisining romanlari, ocherklari va esselari lirizm va chuqur falsafiy mazmun bilan yo`g`rilgan. "Yer bizlarga o`z-o`zimizni tushunimizga kitobdan ham ko`proq, yordam beradi. Ammo bizga Yer qarshilik ko`rsatadi. Inson o`zini, to`siqlarni yengib o`tishdagi kurashlarda anglaydi",- deb yozadi Antuan de Sent-Ekzyuperi o`zining "Insonlar sayyorasi" asarida. Ammo bu kurash uchun unga asbob-uskunalar kerak bo`ladi. Randa kerakmi yoki omoch. Samolyot ham shunday: havo yo`llarini ochuvchi uskuna, insonni abadiy savollarga undaydi". Uning asarlarining umumiy g`oyasi - bu yer yuzidagi eng asosiy narsa, inson bilan insonning bog`liqligidir. U birinchi parvozi taassurotlarida tepadan turib ko`rganlari, u yer bu yerda miltirab turgan kichik-kichik nurchalar – yorug`lik, har bir inson: shoir, yozuvchi, usta, ishchi uchun kerak bo`lgan yaqinlarning iliqligi, oila tafti, oila o`chog`i. Agar har bir yorug`likka kerakli vaqtda kerakli chaqiriq berilib, butun yer yuzidagi barcha yorug`liklarning birlashishi, katta yorug`likka aylanishi yozuvchi hamda uchuvchining ushalmas orzularidan biri edi. "Kichik shahzoda" 1943-yilda yozilgan va unga muallif tomonidan illyustatsiyalar (rasmlar) ishlangan. Yozuvchining o`zi olti yasharligida kattalarga tushunarsiz bo`lgan rasmlar

chizishini eslaydi. Shuning uchun ham unga biror kishi bilan dildan suhbatlashishga imkon bo'lmagan. Povestidagi voqealar Sent-Ekzyuperining hayotida real sodir bo'lgan. Saxara cho'llarida qanday qilib samolyotini qo'ndirishga majbur bo'lganini so'zlay boshlaganidan, ertakona tus oladi. Tongda uchuvchini uyg'otgan Kichik shahzoda bilan tezda til topishib ketadi. Bolakay uchuvchiga o'zi uchib kelgan sayyora, u erdagi g'aroyib gulni meribonlik bilan parvarish qilishi haqida darrov so'zlab beradi. Uning sayyorasi - ertalablari o'zining nonushtasini uning vulqonlarida isitib oladigan, kichkinagina, shinamgina uychaga o'xshashi haqida so'zlab beradi. Kichik shahzoda mehmon bo'lgan, qo'shni sayyoralarda istiqomat qiluvchilarni va ularning hayotlarini tasvirlaydi va bu tasvirlar o'ziga xos pand-nasihati va o'gitlardan iborat: qanaqa g'alati xalq ekan bu kattalar, deb bola ularni zo'rg'a tushunadi. Bir qancha sang'ib yurishlardan so'ng Kichik shahzoda o'z yo'lida Tulkini uchratadi. Bu uchrashuv povest' ichida kichik novellani hosil qilgan. Kichik shahzoda, mening tulkim "yuz ming tulkilar ichida boshqa tulkilardan hech farq qilmasdi", ammo men u bilan do'stlashib qoldim, u endi butun dunyoda "yakkayu- yagona" deydi. Kichik shahzoda "Faqatgina bolalar nima izlayotganlarini bilishadi, - deydi u, - agar u latta qo'g'irchog'ini kuni bilan uynab o'tirsa, u unga eng kerakli va qadrdon narsaga aylanib qoladi, agar bolani qo'lidan qo'g'irchoqni tortib olishsa, ular yig'laydilar..." Muloqotga, hamdardlikka, mehrga, himoyaga ehtiyojmandlik bolalarga xos xususiyat, faqatgina bolalar o'zlarining soddadilliklari va sof yuraklari bilan ko'pincha kattalar yodidan chiqarib qo'yadigan bu xususiyatlarni ularning yodlariga solib turishadi. Kichik shahzoda va yo'qotilgan samolyotni uchuvchisi bilan sahrodan topishadi - bu esa yo'qotilgan haqiqatni topilganiga ishora edi: "Yurak bilan izlash kerak" degan xitob yangraydi unda.

**Tayanch so'zlar:** "Janglyorlar", jestlar, Buyuk Karl, "Roland haqida qo'shiq", sxolastika, cherkov, gumanizm, imjimaloq, etikdo'z, cho'qintirgan, feya, tipik, parallel, turkum, trilogiya, robinzonad, ilmiy fantastika, jyulverncha, motiv, mul'tiplikatsiya, soddadil, ehtiyojmand.

### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Fransuz adabiyotining ilk yodgorligi nima?
2. Janglyorlar poeziyasi qanday doston?
3. "Roland haqida qo`shiq" qay darajada mashhur, nega?
4. Frantsiyada ertaklarning oltin asri qaysi davr?
5. "Gargantuya va Pantagryuel"-qanday asar?
6. Jyul' Vern trilogiyasi qaysi janrdagi asar va ular nima uchun "robinzonad" deyiladi?
7. "Kichik shahzoda" kimning qalamiga mansub va uning bolalarbop xususiyatlari nimada?

### **7-mavzu: Sharl Perro ertaklarining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari**

#### **Reja:**

1. Sharl Perro hayoti va ijodi.
2. Sharl Perro – adabiy ertaklar muallifi.
3. Sharl Perro adabiy ertaklarida bolalar obrazi ifodasi.

**IPT** – sharhlovchi ma'ruza.

**IAT** – mavzuga doir slayd.

**Sharl Perro** (1625 - 1703). 1697-yilda Fransiyada "Mening onajonim Gusinining ertaklari" deb nomlangan kitob nashrdan chiqdi. Aslida ertakni o`sha davrdagi mashhur shoir, fransuz akademiyasining a`zosi Sharl Perro yozgan bo`lsa-da, uning muallifi P.Darmenkur deb hisoblanardi. Ko`p kitoblar muallifi Sharl Perro ismi sharifini "jiddiy bo`lmagan" ertaklar ostiga qo`yishni o`ziga eb ko`rmay, uni o`g`lining ismi sharifi bilan imzolagan edi. Lekin aynan shu sehrli ertaklar jahon adabiyotining oltin fondiga kirib, yozuvchiga shon-shuhrat keltirdi. Perroning ertaklari ko`p marotaba boshqa tillarga tarjima qilingan va nashrdan chiqqan. Ertakning rus tilidagi tarjimasini I.S.Turgenev amalgam oshirgan.



Perro o`z ertaklarining so`zboshisida ertak janrining asosida yotgan jiddiy hamda kulgili va g`alati narsalarni uyg`unlashib ketishiga ishora qilib: "...bu umuman, bekorchilik emas, balki o`zida foydali pand-nasihatni mujassamlashtirgan... hikoyaning sho`x, o`ynoqi tuzilishini esa faqagina o`quvchi aqliga ko`proq yoqimli tarzda ta`sir qilish, shu bilan birga unga ham o`rgatib, ham xushnud qilishi uchundir..." degan edi. Bolalikning ilk davridan boshlab bizga "Qizil shapkacha", "Jimjimaloq bola", "Zolushka", "Etikli Mushukcha", "Uyqudagi malika", "Ko`k Soqol" kabi ertaklar ma`lum. Bir xil ertaklarning qahramonlari odamxo`r maxluqdan yoki zolim bo`ridan o`zlarini o`zlari qutqargan bolalardir. Bu odatga ko`ra, bibliyadagi yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytargan Iosifni esga soladi. Jimjimaloq bola shu kabidir; muallif ertakning oxirida yozishicha, o`zining yaqinlariga yaxshilik qiladi va o`zining butun oilasini - ham otasini, ham og`alarini ta`minlaydi. Zolushka ham xuddi shundaylardan, u qanchalar go`zal bo`lsa, shunchalar oqko`ngil hamdir; u o`gay opalarini o`zi bilan saroyga olib ketadi. Perro ertaklarida yaxshilik va haqiqat g`alaba qozonadi hamda qahramonlarga sehrigar personajlar, "Zolushka" yoki "Etikli mushukcha"da etikdo`zning kichik o`g`lini cho`qintirgan onasi - oqko`ngil Feya yordam beradi. Bo`ri, mushuk inson tilida so`zlashadi, bu folklorning bir ko`rinishi bo`lib, muallif xalq ijodining boy an`analariga tayanadi hamda o`ziga xos mualliflik janrini yaratadi. "Qizil shapkacha" ertagida tipik fol'klor asos namoyon bo`ladi: bu qizil Shapkachaning buvisiga etayotgan narsasi ("pirojok nesu da gorshochek masla"), savollaridagi hamda buvisining kiyimiga kiyinib olgan bo`rining javoblaridagi takrorlash va parallelliklarda ko`zga tashlanadi. Perroning boshqa ertaklarida birinchi o`rinni romantik sevgi tarixi egallagan. Qahramon qator sinovlardan o`tib, o`zining mukofotini oladi: yaxshilik yomonlikni ustidan g`alaba qozonadi, ya`ni, xuddi "Uyqudagi malika" yoki "Ko`k Soqol" ertaklaridagi kabi. Sharl' Perro ertaklari qahramonlarining nomlari allaqachon turdosh otlarga aylanib ulgurgan. Zolushka yoki Ko`k Soqol tarixlari har xil ko`rinishlarda ko`p marta jahon adabiyotida qayta-qayta ishlangan va saqnalashtirilgan.

## 8-mavzu: Italiya bolalar adabiyoti

### Reja:

1. Italiya bolalar adabiyoti shakllanishida Uyg`onish davri ta`siri: xalq ertaklari va adabiy ertaklar.
2. Karlo Kollodi – italyan bolalar adabiyotining asoschisi: "Pinokkioning sarguzashtlari" asari va uning rus hamda o`zbek adabiyoti rivojiga ta`siri.
3. "Grammatika fantaziyasi" asarida bolalarcha fikr qila olish muammolari talqini.

**Tayanch tushunchalar:** uyg`onish davri, xalq ertaklari, adabiy ertaklar, ertaknavis adib, g`oya, badiiy mundarija

**IPT** – sharhlovchi ma'ruza.

**IAT** – mavzuga doir slayd.

Italiya adabiyot va san`atida Uyg`onish davri bashqa Yevropa mamlakatlariga nisbatan ancha oldin namoyon bo`ldi. Franchesko Petrarka, Djovanni Bokkacho, Dante Alig`eri, Leonardo do Vinchi, Mikelandjelo kabi buyuk va dunyoga mashhur san`at arboblari ijodining markazida inson hamda u bilan bog`liq mavzular asosiy o`rinni tutgan. Uyg`onish davri adabiyoti va san`atining buyuk vakillari asarlarida oliy o`rinni har bir zamonaviy kishi rivojlanishining asosiy pillapoyasi bo`lgan, insonning ma`naviy-ruhiy kamoloti egalladi. Shu jihatdan, o`smirlarga Petrarkaning lirik she`rlarini bimalol taqdim etish mumkin.

**Franchesko Petrarka** (1304-1374). Dante va Bokkachcholar qatorida Petrarka ham Italiya adabiyotining shon-shuhratini dunyoga taratdi. Uning nomi nafaqat Evropa yangi adabiyotining asoschisi bo`lgani uchun mangu bo`lib qoldi, balki, Yevropada birinchi gumanistlardan sanalib, hech kim unchalik inson va dunyo asrining ochilishiga o`zining hissasini ko`p va xo`p qo`shgan emas. Franchesko Petrarka florensiyalik notarius xonadonida dunyoga keladi. Vaqt o`tib, otasi o`z o`g`lini huqushunoslikka oid bilimlarga ega bo`lishga (yuridik ta`lim olishga) majburlagan edi. Ammo uning sevimli mashg`uloti Rim

antik davri adabiyoti edi; u o`zining butun umrini shu yo`lga bag`ishladi. U lotin tilini, xuddi italyan tilini bilganidek egallagan edi. Uning qadimgi rim mualliflari asarlari bilan to`la kutubxonasi barchaga ma`lum va mashhur bo`lgan. Petrarkaning ko`p asarlari ham o`sha davr an`analriga muvofiq, lotin tilida yozilgan. Ammo uning eng asosiy asarlaridan biri bo`lgan "Kantson'ere" ("Qo`shiqdar kitobi") "vol'gare" she`rlari oddiy Italiya xalqi tilida yozilgan; bu asar bilan adib "ziyolilar"ning tor doirasidan, keng kitobxonlar ommasiga chiqishga urinadi. Unga 317 ta sonetdan (ital'yan soneti o`ziga xos tarzda qofiyalangan 14 qatorli she`r) iborat. Italiya xalq ertaklarini birinchi bo`lib, yozuvchi Janbattista Bazil'e (1575-1632) yig`gan va qayta ishlagan. Uning "Pantameron" yoki "Ertak haqida ertaklar"i o`zining shakli jihatidan Bokkachchoning "Dekameron"iga o`xshab ketadi va ellikta novelladan iborat. Uni o`nta har xil hikoyachi ayollar besh kun davomida so`zlab berishadi. "Pantameron" Bazile o`limidan ikki yil keyin nashr qilingan. Deyarli bir asr davomida kitob noma`lum bo`lib qoladi, faqatgina, XIX asrda aka-uka Grimmlar tomonidan kitobga e`tibor berilgach, unga nisbatan qiziqish ortadi. "Pantameron" asl ma`nodagi xalq ertaklarining to`plami emas, unda faqat o`rta asr afsonalari va mumtoz asarlar motivlari to`plangan. G`arb adabiyotida Bazil'e adabiy ertak otasi hisoblanadi.

**Karlo Kollodi** (1826-1890). Bu yozuvchining haqiqiy ismi - Karlo Lorentsini. U Florentsiyada tug`ilgan va yoshligidanoq Italiya ozodlik harakati bilan bog`lanib qolgan. Shu davrlardan uning adabiy faoliyati ham boshlangan. U o`ziga adabiy taxallus qilib, onasi tug`ilgan shaharchaning nomini olgan va eng mashhur asar sifatida tanilib, jahonni kezib chiqqan, yog`och bolakayning ajib sayohatlari bayon etilgan "Pinokkioning sarguzashtlari" asarini jahon bolalariga taqdim etgan buyuk yozuvchidir. Kollodi bejizga italyan bolalar adabiyotining haqiqiy asoschisi deyilmaydi. Uning maxsus bolalar kitobxonligi uchun yozilgan birinchi povesti qahramoni "Djannetino" bo`lib, u quvnoq, sho`x shirinxo`r bola, o`zi uncha mard-jasur bo`lmasa-da, har xil sarguzashtlarni yoqtiradi. Yozuvchi u haqda bir butun turkum asarlar yaratgan. Ammo haqiqiy

shon-shuhratni yozuvchiga 1881- yilda nashrdan chiqqan "Birta buratinoning tarixi" ("buratino" italyanchadan - marionetka, ya`ni qo`g`irchoq) asari keltiradi. Keyinroq muallif uni "Pinokkioning sarguzashtalari yoki bir qo`g`irchoq tarixi" deb qayta nomladi. Bu erda yuksak badiiy san`at tirik yumor bilan bog`lanib ketib, bolalar uchun zerikarli bo`lgan pand-nasihatga o`rin qolmagan. Bolalar ruhiyatini yaxshi tushungan yozuvchi, jiddiy fikrlarni bolalarga tushunarli, ularga yetib boradigan shakllarga o`rab, ajib kulgili sarguzashtlarga ulab yuboradi. Ko`p lavhalar muallifning aniq va nozik kuzatishlariga asoslangan. Aytaylik, bolalar aniq fikrlaydilar va metaforani to`g`ri, o`z ma`nosida tushunadilar. Shuning uchun ham "Yolg`onning oyoqlari kalta", degan matal Kollodiga yaxshi bahona bo`lib, muallif yosh kitobxonlarning boshqa iqtidorlarini ya`ni, bo`rttirish qobiliyatlarini inobatga olib, bu metaforik jumlaning "moddiylashtirdi": Pinokkio yolg`on gapirishni boshlasa, uning burni cho`zilib, kattalashib ketardi. Yoki, yana bir misol: ko`pincha axmoq odamni eshak deb atashadi. Shuning uchun ham oqko`ngil feyaning o`qishga majburlashlaridan qochib, ko`ngilxushliklar mamlakatiga qochib qolgan Pinokkioning quloqlari eshaknikiga o`xshab o`sib, kattalashib, badani jun bilan qoplanib, hattoki dum ham o`sib chiqadi.

Kollodining demokratik qarashlari uning kitoblarida ham o`z aksini topgan. Pinokkio kissasida bir tangasi ham yo`q kambag`al o`g`liga alifbo olib berish uchun o`zining kurtkasini sotgan Djepettoning o`g`li. Yog`och bolakayning o`zi esa, mehnat qilib, otasiga va kasal feya - havorang sochli Qizchagà yordam bera boshlagach, haqiqiy insonga aylana boshlaydi. Boy va amaldor personajlar asarda istehzo bilan tasvirlanadi. Bechora, kambag`al ammo gunohsiz odamning javobgarlikka tortilib, "odil sud hukm chiqarishi" ustidan ustalik bilan zaharxanda qilinadi: qahramon to`rt oyga qamoqqa tushadi va Bolvaniyada e`lon qilingan amnistiya tushib, chambarak ortidan qutulishi uchun o`z-o`ziga tuhmat qilishga majbur bo`ladi. Yog`och odam ustidan qilinayotgan sud jarayoni ham juda kulgili. Uning qilgan yomonliklari haqida eshitgan sud'ya janoblari juda hayajonda va to`lqinlangan ko`rinadi, ammo keyin

politsiya mundirida kiyingan ikkita itni chaqirib ularga: "Bechoraning to`rtta oltin tangasini o`g`irlashibdi. Uni endi bog`lang va zudlik bilan qamoqqa tashlang" , - deb buyruq beradi. Fantastika hamda muallifga zamondosh bo`lgan hayot bilan bog`lanib ketgan mumtoz ertak, ital'yan san`atiga o`ta qadrdon bo`lgan janrga mansub. Italiya - Arlekino, Kolombinoy, Pul'chinelloy kabi mashhur personajlar-niqoblar teatri hamda qo`g`irchoq teatrlarining vatanidir. Kollodi murojaat qilgan, qo`g`irchoq komediyalari an`analari - Plavt, Terentsiy kabi Rimning buyuk qadimgi komediyachilari ijodining tomirlariga borib taqaladi. Shu bilan birga Pinokkioning sarguzashtlarida italyan xalq ertaklarining nishonalari bor.

Italyan ertaklari bilan rus bolalarini M. Gor'kiy tanishtirdi. 1912-yilda uning noshirligi ostida bu ertaklarning to`plami chiqdi. "Pinokkioning sarguzashtlari" Rossiyaga Aleksey Tolstoy tomonidan tarjima qilinib, qayta ishlangan nashrda "Oltin kalitcha" nomi bilan bosmadan chiqdi. U o`sha davrdà dolzarb bo`lgan mavzular bilan asarni boyitdi. Uning fikricha rus bolalariga tushunarsiz bo`lgan joylarini ruscha ruhda qayta ishlab, ba`zi obrazlarni almashtirdi. Yozuvchi tomonidan poydevor qo`yilgan ertak-povestning yumoristik-satira an`anasi italyan adabiyoti, shu jumladan, Janni Rodari ijodida o`z ifodasini topdi. Kollodining asari bir umrga bolalarning sevimli kitobiga aylanib qoldi.

**Karlo Kollodining "Pinokkioning boshidan kechirganlari" ertak-qissasi tahlili.** A.Tolstoyning Buratino haqidagi kitobini o`qimagan kitobxon bo`lmasa kerak. Italiya bolalar adabiyotining yetuk namoyandasi Karlo Kollodining shumtaka yog`och bola Pinokkiosi esa o`sha Buratinoning akasi hisoblanadi. Chunki yog`och bolani avval Karlo amaki o`ylab topgan. Shunday qilib, usta Olchaning (bu duradgorning ismi Antonio bo`lsa ham, burni hamisha g`arq pishgan qizil olchaga o`xshagani uchun odamlar shunday atashgan) qo`liga xuddi kichkina boladek bir kulib, bir yig`lovchi g`o`la tushib qoladi. Usta Olcha g`o`lani do`sti Jipettoga sovg`a qiladi, Jipetto u g`o`ladan raqs tushishni, qilichbozlik qilishni, shuningdek o`mbaloq oshishni biladigan alomat yog`och

bola yasamoqchi bo`ladi. Jipetto uyga kelgan zahoti g`o`ladan yog`och bola yasashga kirishadi va unga Pinokkio deb nom qo`ymoqchi bo`ladi. Chunki bu qishloqda Pinnokkio. Pinkkiyalar degan ajoyib oila yashab o`tgan edi. Usta ishini bitirib yog`och bolaga dastlabki qadamlarni ham o`rgatadi. Ana shunda uning sarguzashtlari boshlanadi. Avvalo unga gapiruvchi qora Chigirtka ko`p narsani bashorat qiladi. Bu voqea johil, aqlsiz bolalar o`zlaridan katta, aqlliroq kimsalarning tanbehlarini yoqtirmasligi ma`lum bo`ladi. Shu bois ertak qissada ham Pinokkioning qorni ochadi, u bitta tuxum topib, quymoq pishirmoqchi bo`ladi, lekin shu payt tuxum ochilib, jo`ja uchib chiqib, rahmat aytib, ketib qoladi. Pinokkio ochligiga chiday olmay odamlar uyidan tilanchilik qiladi. Bir chol unga deraza ostiga kelib, qalpog`ini ochib turishni buyuradi va bir chelak muzday suvni boshidan quyadi. Ko`chadagi izg`irin sovuq va jiqqa ho`l Pinokkio uyga qaytadi hamda oyoqlarini cho`g` to`la manqal ustiga qo`yib uxlab qoladi; ertalab uyg`onganida esa oyoqsiz qolganini ko`radi. Jipetto uyiga qaytadi. Bechora ota o`zi uchun nonushtaga topib kelgan yegulikning hammasini Pinokkioga beradi va unga bir juft yangi oyoq yasab, mustahkam o`rnatib beradi. Jipetto “o`g`li”ning aqlli bo`lishi uchun unga alifbe sotib oladi va bu uchun o`z kamzulini sotadi. Pinokkio esa qo`g`irchoq teatriga kirish uchun alifbe kitobini sotadi. Qo`g`irchoqlar o`z ukalari Pinokkioni tanib qolib, uni zo`r tantana bilan qarshi oladilar, lekin shodlik ayni avjiga chiqqan paytda teatrning xo`jayini Manjafoko kirib keladi-yu, Pinokkio dahshatli xavfga uchraydi. Manjafoko to`xtovsiz aksira boshlaydi va Pinokkioni kechiradi. Pinokkio bo`lsa shundan keyin do`sti Arlekinni o`limdan quttqarib qoladi. Qo`g`irchoqboz Manjafoko dadang Jipettoga olib borib ber, deb Pinokkioga beshta oltin tanga beradi, lekin Pinokkio Tulki bilan Mushukning gaplariga laqqa ishonib, ular bilan jo`nab ketadi. Ular Qizil Qisqichbaqa mehmonxonasida ziyofatxo`rlik qilishadi-yu Pinokkioni chuv tushirib ketishadi. Pinokkio bosqinchilar qo`liga tushib qoladi. Chunki u gapiruvchi Qora Chigirtkaning foydali maslahatlariga quloq solmagan edi. Yo`lto`sar qaroqchilar Pinokkioni ta`qib qilib, axiri tutib oladilar va katta eman daraxtining shoxiga osib qo`yadilar (og`zidagi qolgan to`rtta oltijn

tangani tili ostiga tashlab olib bermagani uchun). Zangori sochli Chiroyli Qizcha Yog`och Bolani dordan tushirishni buyuradi. Uni to`shakka yotqizib, tirik yo o`ligini bilish uchun birvarakayiga uchta vrach chaqirtiradi. Pinokkio qandni jon-jon deb yeydi-yu, lekin surgı dori ichishni xohlamaydi. Biroq, uni olib ketgani tobut ko`tarib kelgan quyonlarni ko`rib, darrov dorini ichib yuboradi. U yolg`on gapiradi, natijada shu yolg`onchiligi evaziga burni uzaya boshlaydi. Pinokkio yana Tulki bilan Mushukni uchratadi va to`rt oltin tangasini Sehrli dalaga ekish uchun ular bilan jo`nab ketadi. Pinokkio oltin tangalaridan judo b`ladi, bu ham yetmaganday to`rt oyga qmoqqa tashlanadi(Galvarsiston mamlakatida jinoyatchilar emas, da`vogarlar-jabrdiydalar qamalar edi-da!). Qamoqdan ozod etilgan(amnistiya tufayli, tuhmat bilan qamalanganlar emas, men ham jinoyat qilganman degani uchun) Pinokkio Parining uyiga qaytib bormoqchi bo`ladi, lekin yo`lda juda dahshatli ilonga duch keladi. Keyin uzum o`g`irayman deb, qopqonga tushib qoladi. Natijada Pinokkioni dehqon tutib oladi va uni tovuqxonasi oldiga it o`rniga bog`lab qo`yadi. Pinokkio o`g`rilarni tutishga ko`maklashadi va bu sadoqatli xizmati uchun ozodlikka chiqadi. Pinokkio zangori sochli Chiroyli Qizning o`lganini bilib, unga aza tutib yig`laydi. Keyin kaptarga minib, dengiz bo`yiga boradi va otasi Jepettoni qutqarish uchun dengizga kalla tashlaydi. Pinokkio mehnatsevar asalarilar oroliga suzib chiqadi va u yerda yana Parini topadi. Pinokkio endi yaxshi bola bo`laman, o`qiyman deb Pariga so`z beradi, chunki Yog`och Odam bo`lib yashash uning joniga tekkan va u haqiqiy bola bo`lishni istaydi. Pinokkio dahshatli akulani ko`rish uchun o`rtoqlari bilan dengiz bo`yiga boradi; u yerda mushtlashib, buning natijasida bolalardan biri yaralanadi. Politsiya Pinokkioni qo`lga oladi. Pinokkioni baliq deb o`ylab tovada qovurmoqchi bo`ladilar. Pinokkio Parining uyiga qaytadi. Pari unga ertadan boshlab Yog`och bola emas, haqiqiy o`g`l bola bo`lasan, deb so`z beradi. Bu muhim voqea sharafiga uyushtirilmoqchi katta ziyofatga do`stlarini aytib kelish uchun borib, yana kasofatga yo`liqadi. Pinokkio haqiqiy bola bo`lish o`rniga do`sti Pilik bilan Tarallabedod mamlakatiga jo`naydi. Pinokkio besh oy muttasil beg`amlık bilan baxtiyor yashaganidan so`ng

boshidan bir juft eshakquloq o`sisib chiqadi. Keyin u haqiqiy eshakka aylanib hangray boshlaydi. Pinokkio haqiqiy eshakka aylanib qolganidan so`ng, uni sotgani bozorga olib boradilar. Eshakni sotib olgan sirk direktori uni raqs tushishga, gardishdan sakrab o`tishga o`rgatadi. Lekin, bir kun kechqurun tomosha paytida Pinokkioning oyog`I lat yeb oqsoqlanib qoladi. Uni boshqa bir xaridorga sotib yuboradilar. Lekin bu xaridor Pinokkioning terisidan baraban yasamooqchi bo`ladi. Dengizda Pinokkioni baliqlar yeb ketadi, oqibat u yana avvalgidek Yog`och bolaga aylanib qoladi. Lekin xaridordan jon saqlab, suvda suzib ketayotganida uni dahshatli akula yutib yuboradi. Pinokkio bu yerda ikki yildan beri yashab kelayotgan qari Jepetto otasini uchratadi va o`zi bilan birga akula og`zidan dengizga otadi. Ularning qirg`oqqa chiqishida keksa tunes balig`I yordamlashadi. Nihoyat u otasini bir kulbaga boshlab kiradi va besh oy sut bijlan parvarish qijladi. Bu uchun Janjoning tegirmonini aylantirish, turli hunarlarni o`rganib, pul ishlashga majbur bo`ladi. Eshakka aylangan do`sti Pilikni ham shu yerda uchratib, uning o`likmiga guvoh bo`ladi. Barcha azoblari, mehnatni bo`yniga olgani, xususan oqko`ngilligi va rahmdilligi uchun Yog`och bola- Pinokkio haqiqiy o`g`il bolaga aylanadi.

Aslida Pinokkioning boshidan o`tgan bu savdolar har bir bolaga saboq bo`lmog`I lozim. Boshdayoq Qora Chigirtka Yog`och bolaga shunday degan edi: “Ota-onalarini mensimay, axmoqlik qilib, o`z tug`ilib o`sgan uyidan bosh olib chiqib ketgan bolalarning holiga voy. Unday bolalarning hayoti juda yomon bo`ladi, ular o`zlarining bemulohaza qilmishlari uchun ming-ming afsus yeydilar.” Ammo Pinokkio bu gaplarga quloq solmagan edi. Aksincha, men bu yerda qolsam, boshimga boshqa bolalarning kuni tushadi; hamma bolalarga o`xshab yuragim ziq bo`lib yashayman, meni maktabga yuborishadi, o`qish-yozishni o`rganishga majbur qilishadi. Lekin maktabda o`qishga sirayam xohishim yo`q. Kapalaklarni quvlab, daraxtga chiqib, qushlarning uyasidan poloponlarini o`g`irlashning gashti boshqacha bo`ladi, deya kerilgan edi. Qora chigirtka o`z navbatida bunday bolalar g`irt eshakning o`ziga aylanib qolishi, bir chaqalik qadri bo`lmasligini tushuntirishga uringandi. Bunga e`tibor qilmagan



Pinokkio esa boshidan shu uqubatlarning barchasini kechiradi va keksa Chigirtka hamda Pariga quloq solmaganidan qattiq pushaymon bo`lad. Hechdan ko`ra kech degandek, o`z xatolarini tuzatishga, chunonchi, maktab boorish, kishilarga yaxshilik qilish, mehnatdakin bo`yin tovlamaslikka urinib ko`radi. Oqibat esa yaxshilik bimlan ijntiho topadi. U Yog`och boladan haqiqiy mard o`g`il bolaga aylanadi...

## **9-mavzu: X.K. Andersen ertaklarida tarix va zamon ifodasi**

### **Reja:**

1. X.K.Andersen hayoti va ijodi.
2. X.K.Andersen – adabiy ertaklar muallifi.
3. X.K.Andersen adabiy ertaklarining obrazlar olami.

**IPT** – sharhlovchi ma'ruza.

**IAT** – mavzuga doir slayd.

### **HANS KRISTIAN ANDERSEN (1805-1875)**

Jahon adabiyotidagi ertaknavis yozuvchilar orasida Hans Kristian Andersen ayniqsa ajralib turadi. Uning ertaklari kirib bormagan va sevilib o`qilmagan birorta mamlakat yo`q, desak, yanglishmagan bo`lamiz. Andersen Doniyoning Odens degan shahridagi kambag`al oilalardan birida tug`ildi. U bolaligida och-yalang`och hayot kechirgan bo`lsa ham, tinmay o`qidi. Italyan qo`shiqchisi qo`lida xonandalikni, bir rahoniydan lotin tilini, boshqa bir zamondoshidan esa artistlikni o`rgandi. Teatr san`atiga qiziqib, pyesalar yozdi. o`zining dastlabiri ijodiy urinishlarini odamlarga ko`rsatmoqchi, ularga yaqinlashmoqchi, ularsiz yashashi mumkin emasligini aytmoqchi bo`ldi. Ammo uni kimlardir tushungan va intilishlariga xayrixohlik bilan qaragan bo`lsalar, kimlardir uni masxara qilishdan o`zlarini tiymadilar. Lekin u hech narsaga qaramay, ezgu niyatli odamlar sari talpindi. Bastakor Veyze bilan, Shekspirning doniyolik tarjimoni admiral Vulf

bilan, Kopenhagendagi Qirollik teatrining direktori Kollin bilan tanishdi. So`nggi uchrashuv uning keyingi hayoti va ijodi uchun ayniqsa muhim bo`ldi. Andersen bu bag`ri keng insonning marhamati bilan gimnaziyaga o`qishga kirdi va stipendiya olib o`qidi. Andersenning o`ziga xos iste`dodga ega ekanligini sezgan Kollin uning xususiy dars olib, bilimni to`ldirishi va universitetga kirishi uchun shart-sharoitlarni yaratdi. o`ta tirishqoq Va mehnatkash yigit talabalik yillarida nemis, fransuz, ingliz, italyan tillarida yaratilgan asarlarni o`qib o`rgandi. Univeisitetni tugatgach, Germaniya, Shvet-siya, Angliya, Fransiya va Afrika mamlakatlari bo`ylab sayohat qildi. Ana shu safari paytida yozajak asarlari uchun zarur bo`lgan hayotiy tajribani to`pladi, turli xalqlar va mamlakatlar hayoti haqidagi bilimni boyitdi. Har bir yozuvchi uchun hafaqat xalq hayoti bilan tanishish, balki o`z davrining mashhur kishilari bilan ham aloqada bo`lish muhimdir. Shu ma`noda Andersenning Shuman, Vagner, List, Rossini singari buyuk bastakorlar, Dyuma, Balzak, Xyugo, Heyne, Dikkens singari atoqli yozuvchilar bilan yaqin aloqada bo`lishi uning ijodiga katta ta`sir o`tkazdi. Bolaligidayoq hamma narsaga qiziqqan, hamma narsadan ta`sirlangan yozuvchi o`zidagi shu hayratlanish, zavqlanish tuyg`usini butun umri mobaynida saqlab qoldi. Xuddi shu tuyg`u uning ertaknavis sifatidagi yodiga qanot bag`ishladi. Jahon bolalar adabiyotining Shari Perro, Teodor Gofman, aka-uka Grimmlar singari ajoyib namoyandalaridan keyin ertaknavis yozuvchi sifatida dong qozonish qiyin. Lekin Andersen o`zining porloq iste`dodi, haddan ziyod mehnatsevarligi orqasida bu ustozlaridan hatto o`tib ham ketdi. Andersenning o`nlab ertaklari asosida teatr spektakllari va multfilmlar yaratilgan.

### **BULBUL**

Aziz o`quvchim senga kunday ravshanki, Chin-mochin degan mamlakatning shahanshoi ham, fuqarolari ham xitoylardan. Bu voqea qadim zamonlarda bo`lib o`tgan, shunga qaramay, u butunlay unutilib ketmasdan turib, bilib olsang, albatta, yaxshi bo`ladi! Shahanshohning saroyi dunyodagi eng yaxshi saroy ekan; chiroylilikka chiroyli-yu, ammo juda nozikligidan biror

yeriga qo`l tekizib bo`lmas ekan. Shahanshohning bog`ida eng anvoyi gullar o`sarkan, gullarning eng yaxshilariga kumush qo`ng`iroqchalar osilgan bo`lib, ular shabboda esganda jaranglab, sayr etuvchilarning e`tiborini tortib, bahridilini ocharkan. Ana shunday ajoyib bog` ekan bu! Bog` uzoq-uzoqlarga cho`zilib ketganidan oxiri qayerdaligini hatto bog`bonning o`zi ham bilmas ekan. Bog`ning bir tomoni qalin o`rmonga tutashib ketgan bo`lib, ichkarisida chuqur ko`llar bor ekan va o`rmon moviy dengiz yoqasigacha cho`zilgan ekan. Kattakon daraxtlarning suv uzra osilib turgan shoxlari ostidan kemalar o`tarkan. Ana shu daraxtlarning qalin shoxlari orasida bir bulbul yasharkan. Bulbul shu qadar go`zal sayrar ekanki, uning qo`shig`ini eshitib o`tirgan kambag`al baliqchi o`zining qayg`u-tashvishlarini va suvga solgan to`rini ham unutib yuborarkan. U kutilmaganda: «Yo, parvardigor, hayot naqadar yaxshi!» deb uzun so`lish olar ekan. So`ng yana tirikchiligi esiga tushib, baliq tutish bilan mashg`ul bo`larkan. Ertasiga kechqurun

baliqchi bulbul sayrog`ini eshitib, yana: «Yo, parvardigor, hayot naqadar yaxshi!» deb yuborarkan.

Xitoy shahanshoi saroyiga yetti iqlimdan sayyohlar kelib, hammasi g`aroyib chinni saroyini, jannatmakon bog`ni maqtashar ekan. Bulbul xonishini eshitishganida esa, sayyohlar: «Bu yurtning eng yaxshi g`aroyiboti mana shu!» deyisharkan.

Sayyohlar o`z yurtlariga qaytib borishganida ko`rgan-kechirganlarini odamlarga gapirib berisharkan. Olimlar Chin mamlakati shahanshohining saroyini va bog`ini ta`riflay turib, albatta, bulbulni ham tilga olib o`tishar, hatto u diyorning eng yaxshi g`aroyiboti shu, deyisharkan: shoirlar moviy dengiz bo`yida, o`rmonda yashovchi qanotli kuychini madh etib, ajoyib qasidalar yozisharkan.

Olim-u shoirlarning kitoblari jahon bo`ylab tarqalibdi va ba`zilari Chin shahanshohigacha yetib boribdi. Chin shahanshoi o`zining oltin taxtida savlat to`kib, kitoblarni o`qib o`tirar, har daqiqa mamnunlik bilan bosh chayqab qo`yardi, o`zining poytaxtini, saroyini, bog`ini maqtashgani unga yoqar edi-da. «*Ammo* hammasidan ham g`aroyibi bulbul!» degan gap bor edi kitoblarda.

– Nima, nima? – ajablendi shahanshoh. – Bulbul? Nega men uni bilmayman? Bu qanaqasi? Axir mening bog`imda shunday bir qush yashasa-yu nima uchun men bundan bexabarman? o`zimning bog`imdagi qushni birovlarining kitoblaridan bilsam-a?

Shunday deb shahanshoh xos a`yonlaridan birini o`z huzuriga chaqirtirdi. Bu amaldor shunchalar o`ziga bino qo`yardiki, agar biror odam u bilan gaplashishga va biron narsani so`rashga jur`at qilsa, faqat «uf-f» deb javob berardi. Bu esa hech qanday ma`noni anglatmas edi.

– Aytishlaricha, bizning mamlakatimizda bir ajoyib qush bor ekan, uning oti bulbul ekan, – dedi shahanshoh. – Ana shu bulbulni mening buyuk mamlakatimning eng yaxshi g`aroyiboti, deb hisoblasharkan! Nima uchun bu qushning borligini biror marta menga aytmagansizlar?

– Xudo haqqi, men bu to`g`rida eshitganim yo`q! – dedi bosh vazir. – Hech qachon bunday qushni saroy a`yonlariga tanishtirmaganlar!

– Amrimiz shuki, bulbulni shu bugun kechqurunoq saroyin`ga keltiringlar! – dedi shahanshoh, – u kuylab, bizni xushnud etsin! Menda qanday ajoyibot borligini butun dunyo bilsa-yu men o`zim bilmasam!

– Shunday qiish borligini hatto eshitmagandim, – takrorladi bosh vazir. – Ammo endi uni, albatta, qidirib topaman!

Qidirib toparmish! Juda oson ekan-da?

Shahanshohning bosh vaziri zinalardan balandga chiqib, pastga tushib, xonama-xona, dahlizma-dahliz yugurib-yelib, uchragan har kimsadan bulbulni so`rab-surishtirdi, lekin hech uning daragini bilmadi. Birinchi amaldor shahanshoh oldiga qaytib kelib: «Bulbul deganlari yo`q narsa, uni kitob yozuvchilar to`qib chiqarishgan», dedi.

– Janobi oliylari kitobda nimaiki yozilsa, hammasiga iShonaver mang!

– Lekin bu kitobni menga eng qudratli Yaponiya shahanshohi sovg`a qilib yuborgan, unda yolg`on gap bo`lishi mumkin emas! – e`tiroz bildirdi Chin shahanshohi. – Men bulbul navosini tinglashni xohlayman! U shu bugun

kechquranoq huzurimda bo`lishi kerak! Agar aytilgan fursatda bulbul shu yerga keltirilmas ekan, kaltak bilan hamma saroy a`yonlarining qorniga urdirajakman!

\_Uf-f –dedi bosh vazir va yana zinalardan balandga chiqib, pastga tushib, xonama-xona, dahlizma-dahliz yugura boshladi; saroy amaldorlarining ko`pchiligi uning orqasidan ergashib, yugura boshlashdi – axir hech kim kaltak yeyishni xohlamas edi-da! Hammaning tili uchida bir savol: butun dunyo biladigan, lekin saroyda biror jon zoti bilmaydigan qanaqa qush ekan u?

Nihoyat, oshxonada ishlaydigan bir qizaloqdan qushning daragini eshitib qolishdi:

– Yo, xudoyim. Bulbulni bilmaysizlarmi? Uning sayrashini eshitmaganmisiz? Men, bechora kasalmand oyijonimga tushlik ovqatdan qolgan-qutganlarni eltib berishga mxsat olganman. Oyijonim shundoqqina dengiz yoqasida yashaydi. Men u yerdan qaytayotib, charchab qolsam, o`rmonda maysalar ustida o`tirib, maza qilib bulbul xonishini eshitaman! Shunday paytda ko`zlarimdan duv-duv yosh oqadi, onajonim bag`ida orom olayotganday, sevinib, ichimga sig`may ketaman!

– Oshpaz qizalog`im! – dedi bosh vazir. – Agar bizga bulbul qayerdaligini ko`rsatib bersang, seni saroy oshxonasidagi yaxshigina mansablardan biriga o`rnashtirib qo`yaman. Bulbul shu bugun oqshom saroyga taklif etilgan!

Shunday qilib, mansabdorlar oshpaz qiz yetakchiligida o`rmonga yo`l olishdi. Saroyning deyarli barcha mansabdorlari bulbulni izlashga tushishdi. Ancha yo`l yurishganida dalada o`tlab yurgan sigirning mo`-mo`lashini eshitib qolishdi.

– O! Bulbul degani shu ekan-da! – deyishdi yosh amaldorlar. – Shunday kichik jonivorning ovozi shu qadar kuchliligini qaranglar! Lekin biz bu qushning ovozini ilgariyam eshitgandaymiz!

– Sizlar sigirning mo`-mo`lashini eshitding-lar, – dedi qizaloq. – Hali bulbulning oshiyoniga yetganimiz yo`q!

Yo`lda hovuzdagi qurbaqaning vaqillashini eshitib qolishdi.

– Naqadar ajoyib! – dedi saroy mansabdori. – Nihoyat, bulbul ovozini eshitdim! Xuddi ibodatxonamizdagi qo`ng`iroqlarning tovushiga o`xshaydi-ya!

– Yo`q, bular qurbaqalar! – dedi qizaloq. – Lekin endi bulbulning oshiyoniga yetay deb qoldik! Nihoyat, bulbul sayrashi eshitla boshladi.

– Mana endi bulbul sayrayapti, – dedi qizaloq. – Eshitinglar, eshitinglar! Ana, bulbulning o`zi! – shunday deya qizaloq daraxt shoxida o`tirgan mittigina, jimitgina qushchani ko`rsatdi.

– Nahotki shu bulbul bo`lsa! – dedi shahanshohning bosh vaziri. – Uni chiroyliroq bir narsa, deb o`ylabilan! Aft-angori juda oddiy ekan-ku! Cha-masi, biryo`la shuncha dongdor amaldorlarni ko`rganidan rangi o`chib ketdi shekilli boyoqishning!

– Bulbuljon! – deb qichqirdi qizaloq. – Olihirm-mat shahanshohimiz qo`shig`ingni eshitgilari kelib qolibdi!

– Juda yaxshi, – dedi bulbul va shunday ajoyib kuyladiki, eshitganlarni sel qilib yubordi.

– Xuddi chinni qo`ng`iroqlarning jarangiga o`xshaydi! – dedi bosh vazir. – Shunday jajji tomoqchanning titrashidan chiqqan tovushni qarang-a! Ajabo, uning qo`shig`ini jlgari eshitmagan ekanmiz-a! Bu qush saroyda juda katta obro`topadi!

Shahanshohga yana bir marta sayrab beraymi? – so`radi bulbul. .U shahanshohni shu yerda, deb o`ylagan edi.

– Ajoyib-g`aroyib bulbuljon! – dedi bosh vazir. Shu bugungi oqshomda saroyda o`tkaziladigan bayramga sizni lutfan taklif etish vazifasi zimmamga yuklanganidan o`zimni baxtiyor hisoblayman! Shak-shubha yo`qki, siz g`aroyib qo`shig`ingiz bilan hazrati oliylarini maftun etgaysiz!

– Mening qo`shig`imni yam-yashil o`rmonda eshitish maroqliroq, – dedi bulbul, lekin shahanshoh uni qasrga taklif etganini bilib, jon-dili bilan borishga rozi bo`ldi.

Shahanshoh saroyida bayramga katta tayyorgarlik ko`rilayotgan edi. Chmni devorlarda va oyoq ostida son-sanoqsiz oltin fonuslarning shu`lalar jimirlardi uzun dahlizlarda shoxchalariga qo`ng`iroqchalar ilingan anvoyi gullar qator qilib qo`yilgandi. Xizmatchilarning yugur-yuguridan, taraq-turuqidan va g`irillab

esgan yelvizakdan jaranglayotgan qo`ng`iroqchalarning tovushi odamlarning ovozi bosib ketardi. Kattakon zalning to`rida, shahanshoh taxtida o`tirgan joyga oltin qo`ndiq o`rnatilgan. Amaldorlarning hammasi jam bo`lgan; oshpaz qiz ham eshik oldida turardi; endi unga saroy oshpazi degan unvon berilgandi. Bezakli liboslar kiyib, yasan-tusan qilib olgan hamma odamlar jajji, qoramtir qushdan ko`zlarini uzmasdi. Shahanshoh ana shu jajji qushga hurmat ko`rsatib, bosh irg`ab qo`yardi.

Bulbul shunday dilbar bir navo qildiki, shahanshohning ko`zidan duv-duv yosh kelib, yonoqlariga oqa boshladi; qushning qo`shig`i yuraklarga jiz etib borardi. Shahanshoh xursand bo`lganidan o`zining oltin kavushini mukofot qilib, bulbulning bo`yniga osib qo`yishga qaror qildi. Bulbul, qo`shig`imni eshitganingizning o`zi men uchun mukofot, deb oltin kavushdan bosh tortdi.

– Shahanshohning ko`zlaridan yosh oqqanini ko`rdim – bundan ortiq mukofot bo`lmaydi, – dedi bulbul. – Shahanshohning ko`z yoshida katta qudrat bor. Xudo shohid –menga bundan ortiq mukofot kerakmas!

Kunlardan birida shahanshohga paket olib kelib berishdi. o`ramning ustiga «Bulbul» deb yozilgandi.

– Bizning mashhur qushimiz to`g`risida yana bitta yangi kitob chiqarishibdi, – dedi u.

Lekin qog`ozga o`rog`liq narsa kitob emas, g`aroyib bir quticha ekan. Qutichaning ichida xuddi rostakam bulbulga o`xshash, lekin patlari-yu qanotlariga dur-u gavharlar, marvaridlar-u boshqa javohirlar qadalgan sun`iy bulbul bor edi. Bu qushning murvati burab qo`yilsa, rostakam bulbulning qo`shiqlaridan birini kuylab, oltin bilan kumushday tovlanayotgan dumini likillatib qo`yardi. Qushning bo`yniga bog`langan lentada «Xitoy shahanshohining bulbuli ip esholmaydi» degan yozuv bor edi.

– Naqadar ajoyib qush! – deyishdi bir og`izdan barcha amaldorlar va shu zahoti Yaponiya shahanshohining elchisini: «Shahanshohning favqulodda bulbullar yetkazib beruvchi • vakili» degan unvon bilan mukofotlashdi.

– Endi ikkala bulbul birga kuylashsin, ajoyib duet bo`ladi, – deyishdi amaldorlar.

Ammo ish yurishmadi. Jonli bulbul har gal o'zicha kuylar, sun'iy bulbul esa burama qo'g'irchoq sharmandaday faqat bir yo'sinda qo'shiq aytar edi.

– Sun'iy bulbul aybdor emas, – dedi saroyning bosh musiqa rahbari. – U sira adashmay bir xil pardada va men tuzgan usulda kuylaydi.

Sim'iy bulbulning o'zini qo'shiq aytira boshlashdi, u rostakam bulbuldan ham ko'proq yoqdi amaldorlarga, buning ustiga u juda chiroyli, la'l-u javohirlari tovlanib turardi!

Sun'iy bulbul bir qo'shiqni o'ttiz uch marta aytib ham charchamadi. Davradagilar shu qo'shiqni o'ttiz to'rtinchi marta hairi rnaza qilib eshitishmoqchi edi, ammo shahanshoh tirik bulbulni ham ayttiraylik, degan istak bildirib qoldi. Lekin u g'oyib bo'lgan edi.

Tirik bulbul ochiq derazadan yam-yashil o'rmon sari uchib ketganini heeh kim payqamay qolgan edi.

– Bu nimasi? Qanday ko'namaklik! – xafa bo'l-di shahanshoh, shu zahoti barcha amaldorlar bulbulni ko'namak, pastkash maxluq, deb atashdi.

– Lekin, baribir, qushning sarasi bizda qoldi-ku! – deyishdi ular va sun'iy bulbulga boyagi qo'shig'ini o'ttiz to'rtinchi marta ham aytishga to'g'ri keldi.

Biroq sun'iy qush qo'shig'ining ohangini hech kim yodlayolmadi, chunki yodda qoladigan ohang emas edi. Saroyning bosh musiqa rahbari sun'iy qushni ko'kka ko'tarib maqtar, uning yaltiroq libosi va dur-u javohirlaridan tashqari ichki tuzilishi ham ajoyib ekanligini hammaga uqtirar edi.

– Tirik bulbulga kelsak, hazrati oliylari va siz, muhtaram janoblar, – dedi u shahanshohga hamda uning amaldorlariga qarab, – qachon qanday qo'shiq aytishini oldindan bilib bo'lmaydi. Sun'iy bulbulning esa qanday qo'shiq aytishini oldindan bilamiz! Hatto uning san'ati sirlarini ham bilish mumkin: bo'laklarga ajratib, ichki a'zolarining tuzilishini – g'ildiraklari va parraklari qanday joyliigini, qanday ishlashini bilib olishimiz mumkin.



– Biz ham shu fikrdamiz! – deyishdi saroyga yig`ilganlar. Bosh musiqa rahbari kelayotgan dam olish kuni sun`iy bulbulni xalq oldida namoyish qilishga ruxsat oldi.

– Bulbulimizni xalq ham eshitsin! – dedi shahanshoh.

Xalq sun`iy bulbulning qo`shig`ini eshitib, ko`ngli to`ldi. Xalq to`yib choy ichganida ham shunday qoniqish hosil qiladi. Hamma hayratlanib, bir- og`izdan «O!» deyishdi va ko`rsatkich barmoqlarini yuqori ko`tarib, boshlarini liqillatib qo`yishdi. Lekin chinakam bulbul sayrashini eshitgan kambag`al baliqchi sun`iy bulbuldan hayratlanmadi:

– Umuman durust, hatto rostakam qo`shiqqa ham o`xshaydi, amrno nimasidir yaxshi emas. Uning qo`shig`ida nimadir yetishmaydi, nima ekanligini o`zim ham bilmayman.

Tirik bulbulni esa davlatimiz chegaralaridan badarg`a qilingan deb e`lon qilishdi. Sun`iy qush shahanshoh maxfli oldidagi ipak yostiقدan o`rin oldi. Atrofiga esa tirik bulbulga hadya qilingan barcha qimmatbaho narsalarni terib qo`yishdi. Endi uni: «Shahanshohning tungi dasturxonni paytidagi birinchi chapqol kuychisi», degan sharafli unvon bilan atay boshladilar. Negaki, shahanshohning ham yuragi chap tomonda bo`lgani uchun shu tomonni muhim hisoblashdi. Bosh musiqa rahbari sun`iy bulbul. to`g`risida yigirma besh jildli kitob yozdi, bu kitoblarda Chin mamlakatiga xos olimona, murakkab, tushunarsiz so`zlar to`lib-toshib ketdi.

Lekin saroy a`yonlari, «Bu kitoblarning hammasini o`qidik va tushundik», der edilar, chunki. shunday deyishmasa, ularni ahmoqqa chiqarib qo`yishlari va qorinlariga kaltak bilan urishlari turgan gap edi-da.

‘Shunday qilib, bir yil o`tdi: shahanshohning o`zi, saroyning barcha a`yonlari, hatto butun xalq sun`iy bulbul ashulasining har bir pardasini yodlab olishdi. Ularga qo`shiq yoqib qolganidan, endi sun`iy qushga jo`r bo`lib kuylay boshlashdi. Ko`chadagi o`g`il bolalar: «Vit, vit, vit! Vilik, vilik, vilikk –deb kuylashardi. Shahanshoh ham xuddi shunday kuylardi. Naqadar soz!

Ammo bir kuni kechqurun shahanshoh to'shakda yonboshlab yotib, sun'iy bulbulning qo'shig'ini eshitayotganida o'yinchoqning ichida shirillagan, chiyillagan tovushlar paydo bo'lib, parraklari pirillab aylanib ketdi va bulbulning uni o'chib qoldi.

Shahanshoh o'rnidan sapchib turib ketdi va saroy tabibini chaqirib kelishga odam yubordi. Lekin bu asnoda tabibning qo'lidan nima kelardi. Keyin soatsozni chaqirib kelishdi. Soatsoz usta o'vinchoq bulbulni u yoq, bu yog'ini sinchiklab ko'rib, ko'p urinishlardan so'ng tuzatdi va «Endi bunga juda ehtiyot bo'linglar: parraklarining tishlari yeyilib ketibdi, yangisini o'rnatgan bilan avvalgiday qo'shiq aytolmaydi», deb ketdi. Falokatni ko'ring! Endi o'yinchoq qushga faqat yiliga bir marta qo'shiq aytiradigan bo'lishdi. Bu qayg'uli hol bo'lsa ham bosh musiqa rahbari konsert oldidan qisqa, lekin murakkab ma'noli nutq so'zlab, «bulbulimiz avvalgidan ham yaxshi qo'shiq aytyapti», deb ishontirishga urinardi. Ehtimol, shundaydir.

Oradan yana besh yil o'tdi, butun mamlakat g'am-tashvishda qoldi. «Xalqning sevimli shahan-ishohi o'lim to'shagida», degan xunuk xabar tarqaldi. Allaqachon, kim yangi shahanshoh bo'lishini gapira boshlashdi. Ammo xalq ko'chalarda to'planib olib, birinchi amaldordan: «Qadrdon, avvalgi hukmdorimizning sog'lig'i qanday?» – deya so'rab-surishtira boshlashdi.

– Uf-f! – deb javob berardi amaldor va faqat bosh chayqardi.

Shahanshoh o'zining hashamatli maxfilida rang-ro'yi oqarib, qo'l-oyoqlari muzlab yotardi; saroyning barcha amaldorlari uni o'ldiga chiqarib, yangi shahanshohga ta'zimga borishga oshiqardi. Qarollar u yoqqa, bu yoqqa yugurib, gap sotishar, cho'rilar bo'sh vaqtlarida maroq bilan choyxo'rlik qilishardi. Barcha zallar va dahlizlarga qalin gilam to'shalgan, odamlar tovush chiqarmaslik uchun oyoq uchida yurishardi. Oraga sovuq sukunat cho'kkandi. Lekin shahanshoh hali tirik edi, u oyoqlari – ustunchaldri oltindan yasalgan barqut pardalar yopilgan hashamatli maxflida o'lim bilan olishib yotardi: Ochiq derazadan oy mo'ralab, shahanshohga va o'yinchoq bulbulga qarardi.

Boyoqish shahanshohning nafas olishga ham majoli qolmagan edi, nazarida, kimdir ko`kragini bosib o`tirganday edi. U, ko`zlarini ochib, chindan ham ko`kragida Azroil o`tirib olganini ko`rdi. Azroil boshiga tojinr kiyib olgan, bir qo`lida hukmdorning oltin qilichi, bir qo`lida qimmatbaho davlat bayrog`i bor edi. Barqut pardalarning g`ijimlari orasida kimlarnngdir g`alati aft-angorlari ko`rinardi: bir xillari irkit va razil boshqalari muloyim va chiroyli edi. Azroil ko`kragiga chiqib olgan paytda shahanshohning yaxshi va yomon ishlari ana shunday qiyofalarga kirib, uni yo`qlab kelishgandi.

– Mana bu ishing esingdami? – deb shivirlashardi ular galma-galdan va shahanshohning umrida qilgan son-sanoqsiz yaxshi, yomon ishlarini yashirmay gapirib berishardiki, hukmdorning manglayidan sovuq ter chiqib ketar edi.

– Men bunday bo`lishini bilmas edim! – derdi shahanshoh va sharpalarni quvishga urinardi. – Musiqachilarni chaqiring, musiqa chalinglar! Kattakon xitoycha nog`oralarni olib kelinglar! Mana bularning gaplarini eshitishga toqatim yo`q!

Lekin arvohtar o`z gaplaridan qolmas, Azroil esa ularning gaplarini ma`qullab, xitoychasiga boshini liqillatib o`tirardi.

– Musiqachilarni chaqiring! Musiqa chalinglar! – deb qiehqirardi shahanshoh. – Aqalli sen qo`shig`ingni ayt, aziz, ajoyib tilla qushcha! Axir senga oltin, kumushlar, dur-u gavharlar hadya qildim, bo`yningga tilla kavushimni osib qo`ydim, kuylab ber, kuylasang-chi!

Lekin o`yinchoq qush jim turardi, uni kuylatish uchun murvatini burashga ham biror odam qolmagan edi. Azroil shahanshohga hamon ko`zi o`rnidagi katta-katta chuqurchalari bilan qarab o`tirardi. Xona suv quyganday jimjit edi.

Shu payt birdan deraza orqasida ajoyib bir kuy yangradi. Chinakam bulbul shahanshohning og`ir kasal bo`lib, o`lim bilan olishib yotganligini eshitib, uni ovutish, dalda berish uchun uchib kelgandi. Bulbul sayrar, arvohtar tobora xiralashar, shahanshohning yuragida tez-tez qon yurishar edi. Hatto Azroilning o`zi bulbulning nolasiga mahliyo bo`lib: «Kuyla, bulbuljon, kuyla!»–deb yalina boshladi.

– Kuylasam, oltin qilichni qaytarib berasan-mi? Qimmatbaho bayroqni-chi? Hukmdorning tojini-chi? – so`rardi bulbul.

Azroil qo`shiq sehri bilan boyagi qimmatli narsalarni birma-bir qaytarib bera boshladi. Bulbul esa hamon kuylardi. Nihoyat, u oq atirgullar va gulxayrilar muattar bo`y taratayotgan, yangi nish urib chiqqan maysalarni, tiriklarning o`lganlar uchun to`kkan ko`z yoshlari bilan sug`orilgan sokin, farahbaxsh qabriston haqida kuylay ketdi. Azroil bu qo`shiqni tinglab, o`zining so`lim bog`iga mehri shunday tovlanib ketdiki, shu zahoti oppoq va sovuq tumanga aylanib, oynadan uchib chiqib ketganini arang sezib qolishdi.

– Rahmat senga, aziz qushcha! – dedi shahanshoh. – Sen unutilmaydigan ish qilding! Seni davlatimdan badarg`a qilib, haydab yuborgan edim, sen esa menga hamla qilgan dahshatli arvohlarni, hatto Ajalning o`zini ham huzurimdan haydab yubording. Bu yaxshiliklaringni qanday qaytarsam ekan?

– Sen allaqachon qarzingni uzgansan! – dedi bulbul. – Huzuringda birinchi marta sayraganimda ko`z yoshlaringni ko`rdim – buni hech qachon unutmayman. Kuychining ko`nglini ko`taradigan oliy mukofot – hayajonli ko`z yoshlari! Lekin endi sog`aytiradigan, tetiklashtiradigan uyquga ketib, orom ol! Men bo`lsam seni qo`shiq aytib allalayman!

Bulbul yana sayrashga tushdi, shahanshoh esa sog`lom, huzurbaxsh uyquga ketdi.

Shahanshoh uyg`onganida, derazadan quyosh nurlari tushib turardi. Xizmatkorlaridan birortasi xabar olmas, hamma uni o`ldiga chiqargan edi. Faqat bulbulgina deraza raxiga qo`nib, hamon sayrardi.

– Bulbuljon, endi seni yonimdan sira ketkazmayman! – dedi shahanshoh. – Endi o`zing istagan paytingda sayraysan, o`yinchoq bulbulni esa sindirib, parcha-parcha qilib tashlayman!

– Unday qilma! – dedi bulbul. – U ham qo`lidan kelganicha xizmat qildi. Mayli, o`yinchoq bulbul avvalgiday yoningda bo`lsin! Men saroyda yashay olmayman, axir! Faqat o`zim xohlagan vaqtimda huzuringga kelib turishga ruxsat bersang bo`ldi. o`shanda oqshomlari derazangga qo`nib, qo`shiqlar aytib beraman.

Qo`shiqlarim seni ham sevintiradi, ham o`ylantiradi. Men senga atrofingda yurgan baxtli va baxtsiz odamlar haqida, yaxshilik va yomonlik haqida qo`shiqlar aytaman. Jajjigina sayroqi qush har yerda uchib yuradi, sendan uzoqlarda yashaydigan kambag`al baliqchi va dehqonlarning kulbalariga ham uchib kiradi. Men seni boshingdagi tojing uchun emas, qalbing uchun sevaman. Lekin, baribir hukmdorlik toji qandaydir muqaddaslik nuriga yo`g`rilgan! Uni pok saqla! Demak, huzuringga keyin ham kelib turaman! Faqat bir narsaga va`da ber!..

– Aytganing bo`lsin! – dedi shahanshoh o`zining bor savlatini namoyish qilib. Bu orada u o`zining shahanshohlik liboslarini kiyib, og`ir oltin qilichini ko`ksiga bosib turardi.

– Faqat bir narsani iltimos qilaman! – dedi yana bulbul. – Fuqarolarning ahvoli to`g`risida bor xabarlarni aytib turuvchi jajji qushchang borligini hech kim bilmasin. Shunday bo`lgani yaxshi!

Bulbul shularni aytib, uchib ketdi.

Xizmatkorlar shahanshohning o`ligini ko`ramiz, degan o`yda saroyga kirishar ekan, ostonada to`xtab, hang-u mang bo`lib qolishdi.

Shahanshoh esa ularga:

– Salom! – deya peshvoz chiqdi...

## **10-mavzu: Janni Rodari – bolalarning ertaknavis adibi**

1. “Telefonda aytilgan ertaklar” qissasi;
2. “Jelsomino yolg`onchilar mamlakatida” qissasi haqida;
3. “Yangi yil archalari” qissasi;
4. “Osmondagi tort” qissasi;
5. “Televizorga kirib qolgan Jim” qissasi tahlili;

**Janni Rodari** (1920-1980) o`zining ijodiy faoliyatini jurnalistlikdan boshlab, butun dunyoga mashhur muallif-ertakchi nomini olgan, o`zining adabiy faoliyati uchun X.K. Andersen nomidagi Oltin medalga sazovor bo`lgan yozuvchi. U

nonvoyning o`g`li. Mamlakatning shimolida Alp etaklarida joylashgan kichkinagina shaharda tug`ilgan Janni bolaligidan o`zining aqlga sig`mas fantaziyalari bilan ajralib turardi. Bolaning boy tasavvuriga uni o`rab turgan barcha narsalar: ko`lning toza, tiniq suvi, oroldagi qasr va uning o`rtasida otasining nonvoyxonasi hamda unda po`rsillab, bijirlab, pufakchalar chiqarib turgan oshgan xamir ozuqa berardi. O`sha vaqtlarda u bir burda non uchun mehnatning og`ir mashaqqatlarini chekishiga to`g`ri keldi. U o`zi o`ylagandek musiqachi ham, rassom ham bo`lmay, u uchun juda zerikarli va diqqinapas bo`lgan seminariyada o`qishga tushib qoladi. Ammo Rodari o`zini hayoti ustidan hukm chiqara oladi; institutda ma`ruzalar tinglaydi, o`qituvchilik qiladi, ammo "quruq o`qituvchi" bo`lmaydi, bolalarga tushunarli, xushchaqchaq o`qituvchi bo`lib yetishadi. U bir narsaga amin edi: maktab yumorga muhtoj, chunki unda "kam kulishadi", lekin "o`rganilishi kerak bo`lgan ko`p narsani achchiq ko`z yoshlar bilan foydasiz o`rgatishadi, biroq shu narsani kulib o`rgansa ham bo`ladi". Rodari o`zining birinchi she`rlarini bosmadan chiqarishni "Unita" gazetasida, unga "Bolalar sahifasi"ni topshirishganda boshlagan edi. Gazeta kommunistik gazeta bo`lib, unda birinchi navbatda kambag`al bolalar hayoti aks ettirilishi kerak edi. "Hunarlardan nima keladi?", "Hunarlar qaysi rangda?", "Ovchi", "Baliqchi", "Farrosh" kabi she`rlarining nomiyoq, uning adabiy ijodi qaysi yo`nalishdaligini yorqin ko`rsatib turadi. Yozuvchi o`z ijodining asosiy qismini ertaklarga bag`ishladi. "Men o`ylaymanki, - deb yozgan edi Rodari, - ertaklarning ham yangisi, ham eskisi aqlni tarbiyalashda yordam bera oladi. Ertak bu turli xil gipotezalarning xazinasini. Ertak bolalarga atrof-muhitni anglashga, o`zining tasavvuri bilan unga tanqidiy yondoshishga, borliqqa yangi yo`llar bilan kirishga kalit bera olishi mumkin". Ammo Rodarini katta ertak yozishga undagan narsa Kollodining "Pinokkio" asaridir. Faqat uning "Chippolino"sida qo`g`irchoqlar emas, odamlarga juda o`xshagan sabzavot va mevalar ishtirok etgan. Ular yaxshi va yomon his-tuyg`ular hamda yumor bilan yo`g`rilgan. Hikoya insoniylikni hamda bachora kambag`al odamlarning hayotiy muammolarini imkon qadar kengroq yoritishga qaratilgan. Muallifning bitmas-

tuganmas fantaziyasi tufayli bechoralar obrazi Qovoqboy, usta Uzumcha, professor Nok kabilarda o`z ifodasini topadi. Rodarining qahramonlari doimo ijtimoiy jihatdan aniq belgilangan, shuning uchun ertakning boshqa tomonida Limon shahzoda, ishyoqmas Apel'sin, izquvar Sabzilar obrazi mavjud. Chippolino butun piyoz oilasi bilan Limon qirolligida yashaydi. Ularda sodir bo`layotgan barcha yomonliklar qahrli shahzodaning xohish-istagi bilan bo`ladi, ammo "ular o`zlari yaxshi odamlar bo`lsalar-da, hamma narsaning to`g`risini aytish kerak, ularning omadlari hayotda chopmagan. Nima ham qila olardik, qaerda piyoz bo`lsa, o`sha erda ko`z yosh ham bor".

Ertakona qahramonlarning hayoti ko`p hollarda hayotiy muammolar bilan bog`liq. Masalan, mingoyoq otaga ikkita o`g`lining oyoq kiyimini almashtirish to`g`ri keladi. Ammo usta Uzumchaning esa poyafzal tikishga shuncha charmi yo`q. Uning ustiga ota shuncha poyafzal pulini to`lashi uchun bir umr ishlashiga to`g`ri kelar edi. Bechoralar vaziyatdan chiqish imkonini o`ylab topishadi: faqatgina eng eskirib ketgan poyafzallarning bir nechtasini almashtirishadi xolos. Hikoya bayonining oxirigacha personajlar xarakterlaridagi o`ziga xos tomonlarini sabzavotlarga, mevalarga, hasharot hamda hayvonlarga xos bo`lgan xususiyatlarini yo`qotmaydilar. Shu bilan bir qatorda muallif kichik kitobxonlarni yaxshi va oq-ko`ngil odamlar yana ham yaxshiroq yashashga intilishlari, yomon va badxulq odamlar o`zlarining bo`lmag`ur odatlarini tark etishlari hamda yaxshilarni ezmasliklari kerak, degan xulosaga kelishlariga chorlaydi. Ijobiy qahramonlarning barcha sarguzashtlari va his-tuyg`ulari bir maqsadga-haqiqatni qaror toptirishga qaratilgan. Ertakning oxirida shu ro`yobga chiqadi. Lekin, keksa Chipollono o`zining o`g`li Chipollinoga takrorlaganidek, "do`stim hech qachon esingdan chiqarmagilki, dunyoda yomonlar ko`p, sen haydab chiqarganlaring esa bir kun kelib qaytishi mumkin..." Rus tilida bu asarni mashhur bo`lib ketishiga sababchi bo`lgan adib esa S. Y. Marshak edi. Rodari o`zining butun ijodi davomida ijtimoiy qarashlariga, haqiqat g`oyalariga sodiq qoladi. Hattoki, "Osmondagi tort" asarining syujeti aql bovar qilmas darajada o`zgarib ketganda ham, ya`ni atom bombasi bahaybat ulkan tortga

aylanib qolib, ishchilar shaharchasi ustida muallaq turib qolishi, muallif ta`kidlaganidek, bunda ham o`git "shaffof"dir: agar inson tabiat resurslaridan qurollanishga emas, balki yaxshi ishlar uchun foydalanganlarida edi, unda nafaqat millionlab och, kambag`allarni to`ydirish, kiyintirish mumkin edi, balki shokoladli tortlar hamma uchun yetarli bo`lgan bo`lardi, degan fikr bolalarcha talqin etiladi.

"Yangi yil archalari sayyorasi" asari qahramoni Marko kosmik kemada sayr qilib yurib, o`zga sayyoraliklar bilan uchrashib, ularning do`stona munosabatlarini ko`rib, kosmik sivilizatsiyalarga tegmasdan, barcha sayyoralarning odamlarini birlashtirish imkoniyati borligi haqidagi fikrga keladi. "Jip televizorda" ertagida esa butun dunyoni qurollantirish haqida fikr yuritayotgan olimlarning tafakkurini Koinotni tinch yo`l bilan zabt etish yo`llarini izlashga qaratadi. Insonning umri, hayoti har narsadan ustun ekanligi Rodari asarida yana bir bor yorqin satrlarda ta`kidlanib, insoniyat barhayotligining asosi barcha uchun foydali bo`lgan mehnatda ekanligi takror uqtirib o`tiladi. Ammo insoniyatga kerakli bo`lish uchun, tayyorgarlikni bolalikdan boshlash kerak. Shuning uchun yozuvchi o`zining asarlarini bilishga oid ma`lumotlar bilan boyitgan holda "Dunyodagi barcha narsalar haqida" deb nomlangan she`rlar majmuasini hamda "Nima uchun? Nimaga? Nima sababdan?" deb nomlangan kichik, jozibador novellalar bilan qo`shilgan she`rlar to`plamini yozadi.

Yozuvchining barkamol insonni tarbiyalash g`oyasi haqidagi fikrlari "Jel'somino Yolg`onchilar Mamlakatida" deb nomlangan ertagida mujassamlashgan. Uning asosiy g`oyasi – yolg`on bilan kurashish. Rodarining ta`kidlashicha, "insoniyatning eng xavfli dushmanlari - bu yolg`onchilardir". Asar syujetining yanada yorqinroq chiqishi uchun telba-teskari usuldan foydalanadi: barcha haqiqatlar teskari qurilgan bu shaharda hamma narsa "aniqlikdan teskari tomonga" tarzidagi bema`ni ko`rinishga ega: biror-bir narsani faqatgina soxta pullarga sotib olish mumkin, mushuklar vovillashadi, "qo`rqinch" so`zini o`rniga "jasurlik" so`zini ishlatish qabul qilingan va h.k.



Rodarining bosh qahramoni har doimgidek, yomonlik bilan yolg`iz kurashadi. U go`zal ovoz sohibi, ovozining sehrini juda o`rinli hamda unumli ishlata olgan asar qahramoni: "Bu qirollikni vayron qilish uchun, faqatgina qo`shiqni maromiga yetkazib kuylashning o`zi kifoya edi", - deydi.

Rodarining "Fantaziya grammatikasi" (Sarguzashtlar o`ylab topish san`atiga kirish) asari uning fantaziya tabiati haqidagi fikrlari va tajribalari borasidagi mehnati samarasidir. Bu asarda adib o`zining shu sohadagi kuzatishlari, ertaklar yozishda qanday usullardan foydalanishi, ertaklar yozuvchining xayolotida qanday vujudga kelishi haqidagi fikr-mulohazalarini umumlashtiradi.

**Tayanch so`zlar:** "Kantson'ere", volgar'e, ruhiy kamolot, "Pantameron", Pinokkio, Chippolino, buratino, marionetka, Djannetino, qo`g`irchoq komediya, seminariya, qirollik, piyoz oilasi, kosmik sivilizatsiya, novella, majmua.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Italiya adabiyoti Uyg`onish davri vakillari kimlar?
2. Italiya xalq ertaklarining dastlabki to`plovchisi?
3. "Pantameron" qanday asar?
4. Kollodi ital'yan bolalar adabiyotining haqiqiy asoschisi deyilishiga sabab?
5. "Pinokkioning sarguzashtlari yoxud bir qo`g`irchoq tarixi" asarining yaratilish va ommalashish tarixi?
6. Ertak qissadagi obrazlar tavsifi: Qora Chigirtka, Pari, Manjafoko va boshqalar.
7. Yog`och bola-Pinokkio qanday qahramon?
8. Asardagi Galvarsiston, Tarallabedod mamlakatlariga munosabat?
9. Ertak qissaning badiiy va janriy xususiyatlari haqida nima deya olasiz?
10. "Pinokkioning boshidan kechirganlari" ertak qissasining jahon va o`zbek bolalar adabiyotiga ta`siri.
11. Janni Rodarining mashhur nomi?
12. "Chippolino" va uning muallifi haqida nimalarni bilasiz?

13."Yangi yil archalari", "Osmondagi tort", "Jip televizorda", "Jel'somino yolg`nchilar mamlakatida" nomli novellalarda qanday mavzu-g`oya ilgari surilgan.

14."Fantaziya grammatikasi" qanday asar?

## **11-mavzu: Rus bolalar adabiyoti va uning yetakchi xususiyatlari.**

### **Reja:**

1. Rus bolalar adabiyotining shakllanishi va taraqqiyot tamoyillari.
2. Lev Tolstoy – rus bolalar adabiyoti namoyondasi.
3. Lev Tolstoy – ertaknavis adib.

**Tayanch tushunchalar:** shakllanish, taraqqiyot, tamoyil, ertak-doston

**IPT** – sharhlovchi ma'ruza.

**IAT** – mavzuga doir slayd.

Bolalar adabiyotining dunyoviy sarchashmasini, jahon adabiyoti qayerdan boshlagan bo`lsa shu yerdan izlash lozim: shubhasiz, avvalo, arxaik sivilizatsiyalar, antik davr, dunyo dinlari rivojining eng birinchi davrlaridan, shuningdek, bitmas-tuganmas ummon bo`lmish-jahon folkloridir. Slavyanlarda kitob madaniyatiga birinchi tamal toshini qo`ygan shaxslar aka-uka Kirill (826 - 869) hamda Mifodiylardir (820-885). Makedoniyalik greklar janubiy slavyanlarga Vizantiyaning ilohiy kitoblarini olib kelishgan va shu yerdan qadimgi Rus zaminlariga ham birinchi kitoblar o`tib qolgan. Kirill va Mifodiylar qadimiy bolgar tilining makedon lahjasiga birinchi bo`lib Injilni tarjima qilishgan. Tarjima qilish maqsadida ruslar uchun muqaddas aka-ukalar 863 yillarda slavyan alifbosini yaratishgan, grek alifbosi asosida yahudiy hamda kopt harflarini qo`shish natijasida alifbo tuzgan. Bu alifbo kirill alifbosi deb nom olgan. Kiev Rusi adabiyoti X-XIII asr o`rtalarida paydo bo`lgan. Qadimgi rus kitobchisi yozuvni faqatgina xristianlikdagi pand - nasihatlarning qaysi birinigina to`g`ri desa, shuni yozish kerak, deb bilgan. U tasavvur qila olmagan hamda uni keraksiz deb bilgani uchn o`z shaxsini matn orqali bildirmagan ,

hattoki ismini ham matn oxirida ma`lum qilmagan. Rus bolalar adabiyotining rivoji XU11 asrning o`zgarishlari arafasida shakllana boshlagan. Bu vaqtda Moskva Rusi birlashib, o`zining chegaralarini Sibir va janub cho`llari tomon kengaytirayotgan, poytaxt jamiyatiga chet elliklarning ta`siri oshib, oliy tabaqa madaniyati rivoj topib borayotgan edi. Adabiyot jarayoni o`quv – targ`ibot adabiyotidan, badiiy va ilmiy adabiyot sari rivojlana boshladi. O`quv kitoblari bolaga faqatgina tayyor axborot berib, bolaga uni yodlashgina qolayotgan edi. Bunday adabiyot o`quvchini faqtagina bir yoqlama fikrlashga hamda boshqa bir kishining monologini yodlab olishga yo`naltirilgan edi. Shu bilan bir qatorda unga hamohang bo`lib, bolani dialogik nutqqa chorlovchi, uning bolalarcha "men"ini shakllantiruvchi, "nima uchun?" so`rog`iga javob beruvchi adabiyot ham rivojlana boshlagan. O`qishga hamda yozishga o`rgatuvchi kitoblar kichik yoshdagi bolalarga mo`ljallangan. Ular ikki turda bo`lgan: yarim qoidalarga javob beruvchi, muqovalangan, o`qish uchun alifbo-kitoblari va qog`ozlarda tez yozilgan, bog`lamcha bilan bog`lab yopishtirilgan alifbo-yozuv kitoblari.

Birinchi qadimgi rus bolalar shoiri deb, XVII asrning 30-40 yillarida Moskva bosma uyida ma`lumotchi (bu mansabga juda o`qimishli va hurmatli odam tayinlangan) bo`lib ishlagan Savvatiy hisoblanadi. U Moskvaning oliy tabaqaga mansub, mashhur oilalarining bolalarini o`qituvchisi bo`lgan. Savvatiy 1634 yilda chiqqan birinchi bosma alifboni tayyorlashda ishtirok etib, o`zining she`rlarini (virshilarini) bosmadan chiqaradi. Savvatiy virshilarning asosiy g`oyasi o`qishning foydasi, dangasa va yalqovlikning zarari haqidadir. Bu davrda bolalar prozasi ham rivojlana boshlaydi. Rus jangovor povestlari qayta ishlandi va bolalar uchun qisqartiriladi. Masalan, "Mamay janglari haqida hikoyalar" (Kulikovo jangi haqida), "Don kazaklarining qal`ada o`tirishlari haqidagi hikoyalar", oilaviy-turmush haqida so`zlovchi "Pyotr va Fevroniya haqida hikoya" larni shu ma`noda e`tirof etish mumkin. Ayni paytda bolalar uchun tarixiy asarlar ham rivojlana boradi: ko`pincha bolalar uchun tarixiy ma`lumotlar aks etgan maqolalar qayta ishlangan; boshlanishida "O`tgan davrlar hikoyasi"

("Povesti vremennix let"), keyin rus tarixidan qisqa hikoyalar bayon qilingan, masalan, "Sinopsis" kabi.

*N.M.Karamzin* (1766-1826) birinchi navbatda yirik tarixchi va rus sentimentalizm oqimining asoschisi hisoblanadi. Bolalar uchun Karamzin 30 dan ortiq asar tarjima qilgan yoki yozgan, uning ko`p asarlari Novikovning "Qalb va aql uchun bolalar kitobxonligi" ("Detskoe chtenie dlya serdtsa i razuma") jurnalida bosilib chiqqan. Uning "Anakreonetik she`rlar" hamda "Yevgeniy va Yuliya" va boshqa asralarida inson va tabiat go`zalligi, do`stlik va toza muhabbat kabi tuyg`ular kuylanadi. Bolalar uchun yozilgan ertaklari orasida fol'klor janrida yozilgan "Qalin o`rmon" ertagi ajralib turadi. Unda qo`rqinchli epizodlar mavjudligi bilan bolalarni o`ziga jalb etadi. "Bechora Liza" asarini o`spirinlar juda maroq bilan o`qishgan. Karamzinning "pahlavon ertagi" "Il'ya Muromets"ning (1794) epigrafi Fransuz masalnavisi Lafontenning ta`biri bilan ifodalangan. Unda shunday jumlarlar bor: "Aytadilarki, dunyo ko`hna deb; men bunga ishonaman; baribir uni boladek ovuntirish kerak". Bu bilan Karamzin, rus madaniyati nasihatgo`ylikdan charchadi, uni ko`rgazmali tomosha, o`yin-kulgili adabiyotga aylantirish kerak, degan fikrni ta`kidlayotgan edi.

Rus kitobxonlari XU111 asrning ikkinchi yarmida ertaklar bilan qiziqib ketish jaryonini boshdan kechirdilar. M.D.Chulkovning "Masxaraboz yoki Slavyan ertaklari"ni (1766-1768), V.A.Levshinning "Slavyan pahlavonlari haqida so`zlab beruvchi rus ertaklari, xalq ertaklari va boshqalar, takror aytilib xotirda qolgan sarguzashtlar"(1780-1783) kitoblarini o`qishga kirishib ketdilar. Enagalar endi bemalol o`zlariga topshirilgan bolalarga oddiy xalq ertaklarini aytib beradigan bo`lishdi. Yozuvchilar endi kitobxonlar ommasining ehtiyojlarini sezgan holda ularga bemalol feyalar, pahlavonlar, xudolar haqidagi ertaklarni yoza boshladilar. XVII asrda paydo bo`lib, XVIII - XIX asrlar davomida rus xalqining ommaviy madaniyatiga aylangan lubochnaya, ya`ni badiiy jihatdan bo`sh, saviyasi past, zaif, xalq ijodidan ustunroq va badiiy asarlardan pastroqda turgan o`rtamiyona adabiyot bolalar va o`smirlar orasida o`zining muxlislarini topgan. Lubkalar bu taxtakachlarga gravyura rasmlar solib bosilgan matnlar.

Gravyura o`z nomi bilan tayyor rasm yoki matnni qog`ozdan taxtakachlarga qo`yib, o`yib ko`chirish degani. Shu jarayondan keyin tasvir qog`ozga yoki matohga ko`chiriladi. Rus lubkalarining mavzulari turli-tuman bo`lgan: injildan illyustratsiyalar qilingan, shonli jangchilar haqida, muhim voqealar, xalq udumlar va an`analari, turmush lavhalari, xalq taqvimnomalari, ertaklar, hattoki siyosiy satiralar ham bosilgan. Lubkalar o`zlarida gazeta yoki plakat, rasmlarni va kitoblarni mujassamlashtirgan va shu bilan bir qatorda oddiy xalq ichida ziyo tarqatishda katta ahamiyatga ega bo`lgan. XIX asrning birinchi yarmi rus adabiyoti tarixida katta o`zgarishlar bilan belgilanadi. Bu davr dvoryanlarning erkin fikrlash ("donishmandlikni sevish") g`oyalari bilan yo`g`rilgan. Rus "Oltin asr"i adabiyotining yirik namoyondalari, faqatgina, biror-bir pedagogik jarayon yoki fikrlash bilan to`qnash kelganlaridan keyingina, bolalar uchun kitob yozishgan. Shu davr bolalar kitobxonligi doirasi adabiyotining namunalari sifatida masalnavis I.A.Krillovning (1769-1844) asarlarini keltirish mumkin. Uning masallari bir necha avlod bolalari tarbiya olib kelayotgan butun bir ma`naviy-axloqiy to`plamni tashkil etadi. Krillovning masallari nafaqat donishmadlik, balki haqiqat bilan ham yorqinroqdir. Uning masallari juda qisqa, ammo ma`nosi ulkan. Masalan, "Bo`ri va qo`zichoq", "Oqqush, Cho`rtan baliq va qisqichbaqa", "Chigirtka va chumoli", "Mushuk va Oshpaz", "Qarg`a va Tovuq", "Itlar ichidagi Bo`ri" kabi.

*V.A.Jukovskiy* (1783-1852) rus yozuvchisi, ammo uning mumtoz asarlari kam bo`lib, asosan u nimasi bilandir uning his-tuyg`ulari va tasavvurini qo`zg`atib yuborgan asarlarni qayta ishlash yoki tarjima qilish bilan shug`ullangan. Kichik bolalar kitobxonligi doirasiga uning "Etikli mushukcha", "Uyqudagi malika", aka-uka Grimmlar ertaklari asosida yozilgan "Na`matak-malika" va Perroning "O`rmonda uxlab yotgan go`zal" asarlari kiradi. Jukovskiyning shoirlik iste`dodi uning yana bir pedagoglik qirrasini ham ochib berdi. U o`zining ikkita jiyani - Mariya Protasova hamda Aleksandra Voykovaning (kelgusida bolalar yozuvchisi) uy o`qituvchisi bo`lgan. Keyin u nemis Malikasi, bo`lg`usi Rus Podshosi buyuk knyaz' Nikolayning turmush

o`rtog`i Sharlottaga rus tilini o`rgatgan. Uning qo`lida etti yoshidan boshlab bo`lg`usi imperator Nikolay II tahsil olgan. Jukovskiy "Odisseya"ni tarjima qilgach, o`zining kichik qizchasini o`qitib- o`rgatishga kirishadi, ularga darslar o`tadi hamda ular uchun yengil grammatikani tuzib chiqadi va shuning natijasida "Pavel Vasil'evich va Aleksandra Vasil'evna Jukovskiylarga bag`ishlangan she`rlar" asari yozilib, bu asar yozuvchining o`lgan yilida nashrdan chiqadi. Bu she`rlar yordamida Germaniyada yashovchi rus tilini bilmaydigan ruslarning bolalari til o`rganishgan. "Qushcha", "Mushukcha va echkicha", "Jimjimaloq bola" asarlari miniatyura shaklida yozilgan. Bundan tashqari, Jukovskiy Sharl Perroning asarlarini tarjima qila turib, undagi dahshatli lavhalarni olib tashlaydi va ularni bolalar tarbiyasi uchun muhim jihatlar bilan boyitgan.

## **12-mavzu: A.S.Pushkin – rus bolalar adabiyoti namoyondasi**

1. A.S.Pushkin xalq og`zaki ijodining bilimdoni;
2. Shoir ertak-dostonlarining bolalar kitobxonligidagi o`rni.
3. Shoir ertak-dostonlarining g`oyaviy-badiiy tahlili.

**A.S.Pushkin** (1799-1837). A.S.Pushkin ta`lim-tarbiyasida Yevropa madaniyati, fransuz Uyg`onish davri adabiyoti ta`siri katta. U bolaligidan fransuz va rus tillarida erkin so`zlasha olgan. Bo`lajak shoir litseydagi talabalik davridayoq antik adabiyotning mumtoz hamda Yevropa yozuvchilarining asarlarini sevib o`qish bilan birga, rus klassiklarining kitoblarini ham sevib mutolaa qilgan. Qadimgi rus adabiyoti unga kam tanish bo`lsa-da, ammo uning estetik jihatdan shakllanishida xalq fol'klori eng katta ta`sir ko`rsatgan. Pushkin davrida, hatto dvoryanlar oilalarida ham, ertaklar aytish urf bo`lgan. Shoir bolaligida ertaklarni o`z enagasi Arina Rodionovna Matveevadan, buvisi Mar'ya Alekseevna Gannibaldan, uy xizmatchisi Nikita Kazlovdan hamda Moskva yaqinidagi Zaxarova qishlog`ining dehqonlaridan eshitganligini ko`p ta`kidlaydi. U Ukrainada, janubda, Nijegorod shahridagi Boldinoda, Janubiy Ural va

Orenburg tomonlarda bo`lib ertaklar, maqollar, matallar, qo`shiqlar eshitgan va yozib olgan.

Pushkin ijodida bolalar mavzusi kam uchraydi. Faqatgina uncha katta bo`lmagan "Go`dakka" (1824), "Go`dakka epitafiya" (1828) (epitafiya - qabr toshi ustidagi bitik) she`rlari bevosita bag`ishlovdir. Ammo uning ko`pgina lirik she`rlari, doston va adabiy ertaklari bolalar kitobxonligida mashhur. Shu sababli Tvardovskiy haqli ravishda, u bizning hayotimizga bolaligimizning ilk davrlaridan boshlab kirib keladi va umrimizning oxirigcha bizni hech qachon tark etmaydi, degan edi. Muhimi, Pushkin yangi rus adabiyotini realistik va xalqona tamoyillar bilan boyitdi. U "Ruslan va Lyudmila" dostonini yozishni o`n yetti yoshida boshlab, yigirma yoshida tugatadi. Shoirning ana shu ilk ijod namunasidayoq ertak ajoyibotlari olami mavjud. Bu bir necha yuz yillardan buyon o`quvchilarni doimo o`ziga rom etib kelayotir. "Ruslan va Lyudmila" dostonining mashhur muqaddimasi kitobning ikkinchi nashri (1828 yilda) bilan paydo bo`ldi va u mustaqil asar deb talqin qilinadi.

U lukomorya dub zelyoniy:  
Zolotaya tsep na dube tom:  
I dnyomi nochyu kot uchyoniy  
Vsyo xodit potsepi krugom;  
Idyot napravo - pesn'zavodit,  
Nalevo – skazku govorit

Muqaddimaning asosiy qahramoni qo`shiqchi hamda ertakchi bo`lgan "Bilimdon Mushuk" ("Kot uchyoniy"). Muallifning ertakona syujet mozaikasini oldindan berishi bejiz emas, bunda qo`shiqlar hamda ertaklar qanday dunyoga kelishi, inson tomonidan o`ylab, to`qib bo`lmaydigan g`ayritabiiy xalq g`oyalari sirli rishtalar bilan bog`langani anglashiladi. Shu sababli shoir o`sha sirli manzil (Yashil eman daraxti o`sayotgan Dengiz bo`yi)da ertaklar eshitganini, shu jumladan "Ruslan va Lyudmila" ertagini ham tinglaganini muqaddimada ta`kidlaydi. Ajoyibotlarning tasviri go`zal suv parisi va suv alvastisi, yovuz kuchlar(demonologiyadan), ya`ni xalq ishonadigan qahramonlar talqinidan

boshlanadi. Keyin misli ko`rilmagan olam tasvirlanadiki, buni to`qima yo haqiqiyliги anglash qiyin. "Ko`z ko`rib, quloq eshitmagan yo`lakchalarda misli ko`rilmagan hayvonlarning oyoq izlari..." Va shu zahotiyoq, notanish manzarani haqiqiy rus ertagi syujeti egallaydi: "U yerda, eshiksiz, derazasiz tovuq oyoqli kulbacha..." xalq ijodida o`tloq va o`rmon orasidagi chegara ma`nosini anglatuvchi, ya`ni ikki qirollik orasidagi chegara - qahramon oilasi yashaydigan odamlar qirolligi hamda yovuzlik hukmronlik qiladigan "boshqa" O`lmas Kashshey istiqomat qiladigan personajlar tasviri. "U erda o`rmon va mo`jizalar to`la maydoncha..." - shoir sirli tabiat bilan sehrli g`oyalarning bog`likligini ko`rsatmoqchi bo`ladi, so`ngra esa dengizdan ajoyibotlarni paydo bo`lishini "ko`rsatadi": "U yoqda tongdan to`lqinlar xabar berar, Va o`ttiz uchta pahlavon o`zlarining dengiz bobolari bilan birin-ketin suvdan chiqib, kimsasiz va qumloq sohilda saf tortib turar..." O`quvchi endi haqiqatdan shahzodani ham, maftunkor shohni ham, pahlavon bilan uchib yurgan jodugarni ham, yovuz bo`ri bilan malikani ham ko`rishga tayyor. Va nihoyat, xalqning oddiy taxayyulidan paydo bo`lgan eng buyuk qahramonlar – Yalmog`iz kampir (Baba Yaga) hamda o`lmas podshoh Kashshey (Sar Kashey) paydo bo`lishadi. "U yerda rus ruhiyati.... U yerda Rus ufurib turibdi!" - shu tariqa, shoir tomonidan olib chiqilgan rus xalq ertagiga oliy baho beriladi. "Men ham u yerda bo`ldim, bol ham tatidim..." Shoir xalq folklori xotimasini so`zma-so`z bayon qilib, o`zining ijodining sarchashmasi xalq she`riyatidan olinganligini barchaga ayon qiladi. Shu tariqa, Pushkin ertaklarni yuqori adabiy janrlar bilan bir qatorga qo`yadi. Shoir nigohida ularning har biri butun bir doston. Binobarin, bolalar kitobxonligi doirasiga kiruvchi "Pop va uning xizmatkori Balda haqida ertak" (1831), "Shoh Saltan, uning shavkatli va pahlavon bahodir o`g`li knyaz' Gvidon", "Oqqush malika haqida ertak", "Baliqchi va baliq haqida ertak" (1831) kabi o`nlab ertaklar shoir ijodining eng gullab yashnagan, mashhur asarlari yaratilgan vaqtda yozilgan. Bularning barchasi Pushkinning xalq og`zaki ijodiga yuksak munosabatini ko`rsatadi. Shunisi e`tiborliki, Pushkinning ko`pgina ertaklari jahon xalq ertaklari syujeti asosida yozilgan. Jumladan, uning "Baliqchi va baliq haqida



ertak"i nemis ertakshunoslari aka-uka Grimmlarning "Baliqchi va uning xotini" ertagi syujetiga monand. Yakob va Vilgelm Grimmlar ertagi 1815-yilda nashr qilingan "Bolalar va oilaviy ertaklar" to'plamida chop etilgan. Grimmlarning ertagi V.A.Jukovskiy tomonidan 1826-yilda rus tiliga tarjima qilingan va "Detskiy sobesednik" jurnalida chop etilgan. Aytish mumkinki, Pushkin ijodida ularning alohida ta'siri bo'lgan. Natijada, bir xil syujet asosida yozilgan ertaklarning o'ziga xos mushtarak va farqli xususiyatlarini kuzatish mumkin. Aka-uka Grimmlar ertagining G.Petnikova tomonidan rus tiliga qilingan tarjimasi nasriy bayonga ega va unda baliqchi chol kambala-baliqlarning shahzodasini tutadi; undan avval yangi uy, qasr, so'raydi. So'ngra, kampir malika, imperator, rim papasi bo'lishni orzu qiladi. Barcha tilaklari amalga oshgan kampir endi quyosh va oyning chiqishi-yu botishini o'zi belgilamoqchi, xudo darajasiga ko'tarilishni istaganda, eski uyiga qaytib qoladi. Pushkin esa ertakni xalqona uslub, qofiyasiz she'r shaklida yozadi. Bu vazn ertak hikoyasiga musiqiylik baxsh etgan. Vaznga mos tarzda unda ma'naviy-falsafiy mazmun ham mavjud. Chol oltin baliqdan avval yangi tog'ora, so'ngra uy, keyin qasr so'raydi. Malikaga aylangan kampiri dengiz hukmroni bo'lishni xohlab, cholni haydaganda eski uycha va teshik tog'ora qaytib oldida paydo bo'ladi. Demak, Grimmlar ertagida bitta istak ziyod bo'lishdan tashqari, siyosiy hayot va davlat boshqaruviga daxldor shartlar qo'yilgan. Chol ham o'z kampirining har bir xohishiga qarshi borib, uni insofqa chaqirishga harakat qiladi, baliqni boshqa bezovta qilmaslikni so'rab, yalinib-yolvoradi. Shunga o'xshash, chol-kampir munosabatida muloyimlik, har bir orzu ro'yobga chiqqach, kampirning cholga nisbatan mehri iyib, "Ko'ryapsanmi, qanday yaxshi?", "Ha, nima axir, bu ajoyib-ku?",-degan iqrorlari ko'zga tashlanadi. Ya'ni, ertak qahr-g'azabdan xoliroq va xalqning shunchaki xayolparastlik tuyg'usiga monand. Kampir boy-badavlat, hatto, "imperator" va "Rim papasi" bo'lganda ham o'z choliga munosabati o'zgarmagan. U bilan odatdagidek, muomala qiladi, yashaydi...

Pushkin ertagi variantida esa real hayot manzaralari ustivor. Kampir har safar cholni "Eh, sen ahmoq, sodda chol, qani, jo'na dengizga!",-deb so'kadi. Va

har gal orzusi ro'yobga chiqqach, tag'in-da, darg'azab bo'lib, cholni haqoratlaydi hamda unga xizmatkoridek munosabat ko'rsatib, haydab soladi. Chol ham "la'nati kampir"ga qanday chora ko'rishni bilmaydi. Aslida u oltin baliqchani hech tamasiz qo'yib yuborgan edi("Tangri yoring bo'lsin, baliqcha"). Shu sababli baliq ham cholga har gal minnatdorlik yordamini ado etadi: "Qayg'urmagil, tangri yor bo'lsin!". Kampir esa oltin baliqchaga o'zining ushalmas orzularini ro'yobga chiqarish vositasi sifatida qaraydi. U dastlab, o'zini zarur narsalarnigina istayotgandek tutadi, keyin esa ko'proq va yana mo'lroq narsalar xohlaydi. Zero, kampirga hokimiyatning tashqi ko'rinishi kifoya qiladi, u zodagonlik va qirollik xizmatining ichki mazmun-mohiyatini tushunmaydi va istamaydi ham. Bu oddiy xalq nazdidagi "hokimiyat aqlining boy, farovon hayot kechirishi"ga oid sodda fikrlarshining ifodasidir. Ertakning asosiy g'oyalaridan biri - "buyuk" vazifalarni bajarishni da'vo qilishdan ko'ra, har kim o'z kuchi etadigan ishni (masalan, kampir ipini yigirishi, chol to'rida baliq ovlashi) bajarishi yaxshiroq ekanligidir.

Dengiz Pushkin uchun doimo erkin odatlar, ya'ni o'ziga xos olam, har xil chegaralardan xoli o'zgacha dunyo sifatida qarab kelangani e'tiborga olinsa, ertakda insoniyatning boylik va mansab cho'qqilari sari intilish kuchi yoki uni o'ziga maftun qilib, domiga tortayotgan orzu-istaklar ko'proq erga xosligi anglashiladi. Insonning ochko'zligi va axmoqligi tufayli tabiatdagi mutanosiblik buzilishini shoir teran his qiladi. Shu sababli, ertak oxirida barcha narsalarning tartibi o'z o'rnini topadi: chol o'z kampirini o'sha yerto'la va teshik tog'ora oldida ko'radi. Muammo echimi-aqlsizlikning mag'lub bo'lishi. Bu jihatlar har ikkala ertak varianti uchun daxldor bo'lsa-da, Pushkin o'z ertagida keskinlikni oshiradi. Bunda kampir shafqatsiz, qahrli va xudbin tasvirlangan. Cholning g'azabi, kinoya va pichinglari ham shunga yarasha dag'al. Demak, bir xil syujetga ega ertaklarning talqinida har bir xalqning qarashlari, ijtimoiy turmush tarzi, voqelikka munosabati turlicha aks etadi. Aytish mumkinki, S.Pushkin ertagida ijodiy g'oya, badiiy sayqal va real davr voqeligi yorqinroq ko'rinadi. Va bu shoir asarlarining sarchashmasi xalq ijodiyoti ekanidan dalolat berish bilan

birga, unga ijodiy yondashganligini e`tirof etadi. Zero, uning yosh yozuvchilarga ko`proq ertaklar o`qishni maslahat berishi bejiz emas.

### **13-mavzu: Korney Chukovskiy va S.Marshak ijodi**

1. Zamonaviy rus bolalar adabiyotining ulkan dahosi.
2. Adib ertaklarining mavzuviy mundarijasi va obrazlar olami.
3. "Ikkidan beshgacha" tadqiqot asarida kichkintoylar psixologiyasi ifodasi.
4. Samuel Yakovlevich Marshak – kichkintoylar shoiri.

**Tayanch tushunchalar:** mavzu, mundarija, obraz, psixologiya, tadqiqot

**IPT** – sharhlovchi ma'ruza.

**IAT** – mavzuga doir slayd.

**K.I.Chukovskiy** (1882-1969). XX asr bolalar adabiyotining asoschilaridan biri, "2 yoshdan 5 yoshgacha" bo`lgan bolalar psixologiyasining tadqiqotchisi. Bundan tashqari u ajoyib adabiy tanqidchi, tarjimon, adabiyotshunos olim ham bo`lgan. "Men bolalarni o`rganishga ahd qildim... Bir vaqtlar xalqqa qaytganlaridek men ham "bolalikka qaytishga" qaror qilib, kattalar jamiyati bilan munosabatimni deyarli uzdim va uch yoshli bolalar bilangina muloqotga kirishdim",- deb yozgan edi Chukovskiy o`zining kundaliklarida.

Rus bolalar adabiyotining ulkan daholaridan biri Korney Chukovskiy yirik yozuvchi, shoir, taniqli olim, mohir tarjimon sifatida tanilgan so`z ustasi edi. U o`z asarlarida bolalarga xos ajoyib xislatlarni - rahmdillik va insoniylik, do`stlik va birodarlik, yovuzlikka nisbatan shafqatsizlik, vatanparvarlik kabi fazilatlarni targ`ib etadi. K.Chukovskiy bolalar uchun asarlar yaratish, ijod kilishni uzi uchun katta baxt deb biladi.

Chukovskiyning dastlabki "San`at nima?" maqolasi 1901-yilda "Odisseykie novosti" gazetasida bosilib chiqqan. 1903 yilda u gazeta muxbiri sifatida Angliyaga boradi. Londonda xizmat qila boshlaydi. Lekin bu yerdagi

faoliyati uzoq davom etmaydi. Gazeta unga maosh to'lamay qo'yadi. U Britaniya muzeyiga ishga kirib, tirikchilik o'tkazishga majbur bo'ladi.

1905-yilda K.Chukovskiy Odessaga qaytib keladi va bu yerda "Signal" degan jurnal chiqara boshlaydi. Jurnal sahifalarida chor hukumati siyosatiga qarshi materiallar bosilganligi uchun uni sud qilishadi.

Keyingi yillarda u bolalar adabiyoti bilan mashg'ul bo'ladi, bolalar adabiyoti to'grisidagi ko'plab maqolalar yozadi, 1907-yilda "Bolalar tili" asari maydonga keladi. Adib tanqidchi sifatida o'sha davrda mashhur bo'lgan ba'zi yozuvchilarning soxta iste'dodlarini tanqid ostiga ola turib: "qaysi bir bola shu narsani tushunishi mumkin, bu yerda zarracha ham qalb, ruhiyat ifodasi ko'zga tashlanmaydi, faqatgina vintchalar, prujinkachalar, g'ildirakchalar..." deb yozadi Charskaya haqida. Muallifning 1911-yilda "onalarga bolalar jurnallari haqida" deb nomlangan kitobi nashrdan chiqadi. Unda "Zadushevnaya slovo" jurnalini qattiq tanqid ostiga olib, uni bolalarning yosh xususiyatlarini bilmasdan turib, kichik kitobxonlarga muhrlangan dahshatlarni, o'zini yo'qotishlarni, behushliklarni, vasvasa, yomonliklar bilan bog'liq bo'lgan "qahramonlik"larni targ'ib qilishni fosh etadi. Tanqidchi "Zadushevnaya slovo" jurnaliga "Yunaya (Navqiron) Rossiya", "Rodnik" ("Chashma"), "Semya i shkola" ("Oila va maktab"), "Yuniy chitatel" ("Yosh kitobxon") jurnallarini qarama-qarshi qo'yib, "Bu yerda bola bilan ohista va tetik so'zlasha turib, uni sevishadi va hurmat qilishadi, aldashmaydi va uning oldida tovlanishmaydi, deb yozadi, ammo ular ham bolani bilishmaydi hamda tushunishmaydi.

Chukovskiyning ta'kidlashicha bola o'zining dunyosini, o'zining mantiqini, o'zining astronomiyasini yaratadi, agar kim u bilan muloqotga kirmoqchi bo'lsa, uning olamiga kirishi hamda u yerda yashashi lozim. Bolalar-o'ziga xos devonalar, chunki aniq va mustahkam voqea-hodisalar ular uchun sho'x quvnoq va o'tuvchan. Yo'q, bolalar jurnalining vazifasi umuman bunda emas, ya'ni bolalarni bolalar aqlsizligidan davolashda emas, ular o'z vaqtida bizning yordamimizsiz ham o'zlarini davolab oladi, gap shundaki, bu aqlsizlikning ichiga kirib olishda. Bu antiqa, hayratlanarli, go'zal, umuman

boshqa dunyoga kirib yashashda hamda bolalar bilan ularning tilida, o`sha boshqa olam tilida so`zlashishda, ularning qiyofalarini o`zida qabul qilishda hamda o`ziga xos mantiqini tushunishda (chunki bu olamning mantiqi o`zgacha)”

Ko`pincha bolalar poeziyasiga she`rni tushunmaydiganlar, yoki bolalarni tushunmaydiganlar, ba`zida esa unisini ham, bunisini ham-na she`rni, na bolalarni tushunmaydiganlar kirib kelishadi. Menga bu narsa jinoyatdek tuyuladi. Kattalar yozuvchisi iste`dodsiz bo`lsa, bo`lishi mumkin, ammo lekin bolalar yozuvchisi iste`dodli, mahoratli bo`lishi shart. Chukovski bolani imkon qadar tezroq katta qilishga va uni tezroq jiddiylashtirishga harakat qilgan mualliflardan nafratlanardi. Shuning uchun ham jahon bolalar adabiyotida haliga qadar ,irorta quvnoq bolalar kitobi yo`q. Bola bilan bolalarcha kulish naqadar muhimligini u qayta-qayta ta`kidlaydi. Chukovski bolalarni faqatgina bema`ni narsalar bilan tarbiyalash kerak degan fikrdan yiroq bo`lib, “shu bema`ni narsalar olib tashlangan bolalar adabiyoti, 3 va 4 yoshli bolalarning sermahsul instinklari talablariga javob bera olmaydi va ular foydaliroq bo`lgan aqliy ozuqadan mahrum qiladi”,-legan fikrni ilgari suradi. Bolalarga bolalar kitoblari orqali ularning yosh xususiyatlariga to`g`ri kelmaydigan yoki ularga tushunarsiz bo`lgan narsalarni singdirish-bu ularning kitobxonlikka bo`lgan xoxish-istaklarini umuman yo`q qilib yuboradi. Bu tanqidchining fikricha, emizikli bolani ona suti o`rnida majburlab bifshteks bilan boqishga o`xshaydi. Chukovski har qanday bola ulkan ijodiy imkoniyatlarga, hatto daholikka ega bo`lishi mumkin.

Bola jna tili daryosida buyuk zahmatkash kabidir. Chunki u grammatik shakllar tartibotida hech narsa bo`lmagandek mo`ljal oladi, lug`atni zehn bilan o`zlashtiradi, mustaqil o`qishni o`rganadi, degan fikrni isbotlab beradi. Kattalarga esa ayniqsa bolalar yozuvchilari va pedagoglariga bolaga ergashish emas, balki bola bo`lish kerakligini uqtiradi.

Adibning “Ikkidan beshgacha” kitobining “Bolalar nashrlariga nasihatlar” bobi ana shunday mulohazalarga boy. Aslida bu kitobni Chukovski oltmish

yildan ortiq vaqt mobaynida yozgan. Uning yaratilishi bolalar nutqi haqidagi suhbatdan boshlanib, vaqt o'tgan sayin kitob bolaning o'zi haqidagi, uning ruhiyati, atrof olamni o'zlashtirishi bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar, uning ijodiy qobiliyatlari haqidagi fundamental asarga aylandi.

Kitobning "Bolalar shoirlariga o'gitlar" bobi shunisi bilan diqqatga sazovorki, unda Chukovskiyning bolalar adabiyoti borasidagi shaxsiy tajribasi, uning hamkasblari Marshak, Mixalkov, Barto, Xarms, Vvedenskiy kabi boshqa ko'plab shoirlarning umumlashma qarashlarini o'zida mujassamlantirgan. Bundan K.Chukovski shunday xulosaga keladi: xalq poeziyasi va bolalarning so'z ijodkorligi bitta qonuniyat asosida yaratiladi. Bolalar yozuvchisi xalqdan o'rganishi kerak, chunki xalq ko'p asrlar mobaynida ideal badiiy uslublarni hamda bolaga to'g'ri pedagogik yondashish mahoratini o'z qo'shiq va ertaklarida mukammal ishlab chiqqan. Bolalar shoirlarining ikkinchi o'qituvchisi-bolaning o'zi. Ular o'z she'rlari bilan bolaga murojaat qilishdan avval ularning didini va ehtiyojlarini o'rganib chiqish, unga to'g'ri psixologik ta'sir ko'rsatish malakasini egallashi zarur.

Chukovski shoir asari matnining har bir bandida rassom uchun material bo'lishga katta ahamiyat bergan. Tasviriy obraz hamda ohang birikib bir butunni tashkil qilishi, har ikki misradan bitta rasm paydo bo'lishi kerak. Bunday sifatga ega bo'lgan she'rlarni Chukovski "grafikali" she'r deb ta'rif bergan bolalar shoirlariga birinchi o'git sifatida uqtirgan.

Ikkinchi o'git esa obrazlarning zudlik bilan almashinishi. Bolalarning ko'rish qobiliyati narsalarning sifatini emas, balki ularning harakatini qabul qiladi, shuning uchun she'r serharakat hamda turli-tuman personajlarga boy bo'lishi kerak. Uchinchi o'git: "... bu so'z tasvirining lirikligiga daxldor. Qo'shiq va raqs ham she'r uchun zarurdir. Bolalar o'zlarini shirin ohanglar bilan ovutishadi, she'rlar bilan xuddi musiqadek sarmast bo'lishadi. Beshinchi o'git: poetik nutqning yuqori darajada musiqiyliigi. Oltinchi o'gitga ko'ra bolalar uchun yozilgan she'rlarning qofiyasi bir-biri bilan juda yaqin masofada qo'yilishi kerak.

Yettinchi o`g`itda qofiyadosh so`zlar she`rning asosiy ma`nosini anglatuvchi bo`lishi shart. Chunki aynan shu so`zlar bolaning diqqat e`tiborini o`ziga jiddiy jalb etadi. “Bolalar she`rlarining har bir satri o`zining shaxsiy hayoti bilan yashashi kerak”,-deb ta`kidlanadi sakkizinchi o`g`itda. Chukovskiyning o`g`itlari qotib qolgan dogmalar emas, bu haqda muallifning o`zi ham eslatib o`tadi. Tabiiyki, bolalar yozuvchilari uchun eng asosiy o`g`it-baxtiyorlik, shodlik holati.

Chukovskiyning ertaklari va she`rlari butun bir komik eposni tashkil etib, ko`pincha “krokodiliada” (muallifning sevimli qahramonlarining nomi bilan) deb ataladi. Bu asarlar doimiy qahramonlari, bir-birini to`ldiruvchi syujetlari, umumiy geografiyasi bilan bir-biriga hamohangdir.

Chukovskiy ertaklar olamining yaratilishi 1915-yildan “Krokodil” poemasining ilk bndlari yozilishi bilan boshlanadi. U 1917-yilda juda ko`p rasmlar bilan birga “Niva” bolalar jurnalida “Vanya va Timsoh” nomi bilan chop etilgan. Bu yangi nashr bolalar poeziyasida katta shov-shuvga sabab bo`lgan edii. Yu. Tinyanov bu haqda keyinroq shunday deb yozgan edi: “Shiddatli she`rlar, o`lchamlarning tez almashinishi, jo`shqin qo`shiq, qofiya, yangi ohanglar-quyidagilarni o`z ichiga olgan , xuddi adabiyotda yangilik yaratilganda sodir bo`ladigan shov-shuv ko`tarishib, qiziqish uyg`otib, hayratda qoldirib Korney Chukovskiyning “Krokodil”i paydo bo`lgan edi. Nimjon oyoqlarida zo`rg`a qaltirab turgan gullarning harakatsiz fantastikasi birdan shovqin-suronli ajoyib hayvonlar bilan almashinishi hamda qahramonlar va muallifning hayratini qo`zg`atuvchi jonli, real sarguzashtlarning paydo bo`lishi barchaga birdek taassurot qoldirgan edi. Yo`llarni, ulardagi harakatlarni, har xil xarakterlarni, sarguzashtlarni tasvirlash uchun kitoblar ochildi. Bolalar adabiyoti poeziyasi kino san`atiga, kinokomediya yaqin bo`lib qoldi.” (“Korney Chukovskiy” ocherkidan)

“Krokodil”dagi boshqa ertaklarda odatiy holga aylangan yaxshilik va yomonlik keskin ajratilmaydi. Shuningdek, yoqimtoy qahramonlarning

xususiyatlariga haqqoniy baho berishni muallif kichik qahramonlarning o`ziga havola qiladi.

Chukovskiy dastlab A.M.Gor'kiy hikoya qilib bergan syujet asosida bugungi kunda o`z axamiyatini yo`kotmagan badiiy baquvvat "Timsoh" ertagini yozdi. 1918- yilda esa "Archa" nomli to`plami bosilib chiqdi. O`sha yili "Jahon adabiyoti" nashriyotiga ishga kirdi. 1919-yilda N.A.Nekrasov asarlarining to`la to`plamini nashr ettirdi. Shu yillarda uning mashhur "Moydodir", "Suvarakxon" ertaklari, "Kichik bolalar" kitobi bosilib chiqdi. "Pashsha-xarxasha", "Barmaley", "Telefon", "Fyodora o`tkazgan alam". "O`girlangan quyosh", "Doktor Voyjonim" asarlari Korney Chukovskiyning nomini olamga yoydi, kitobxonlar hurmatini qozondi.

Korney Chukovskiyning ertak-poemalarida ezgulikning yovuzlik ustidan g`alabasi, baxt, yorqin hayot sari keskin kurash bo`rtib turadi. Masalan, shoirning "Moydodir" asarida bolalarning odobli, ozoda, har doim to`gri so`z bo`lishi va tozalikka rioya qilish mavzusi ilgari surilgan. Asar qahramoni qator fazilatlarga loyiq. Lekin bir aybi bor. Faqat kir-chir yuradi. Shuning uchun bir kuni unga xizmat qiluvchi barcha narsalar ish tashlaydi, undan yuz o`girib qochib ketishadi. Bola voqeaga tushunmay, xafa bo`lib turganida joniga yuz-qo`l yuvgich oro kiradi. Shoirning "Pashsha-xarxasha", "Telefon", "Fyodora o`tkazgan alam", "O`g`irlangan quyosh", "Filisa kitob o`qir", "Kirpilar kuladi" singari asarlari xam bolalar uchun maroqlidir. "Doktor Voyjonim" asari bir umr bolalarga shodlik-quvonch bag`ishlab kelmoqda. Voyjonimning oqko`ngilligi, mehribonligi, jonkuyarligi, hayvonlar bilan inoq, do`stligi ibratomuz chizib berilgan.

Chukovskiyning she`rlari ertaklariga nisbatan kamroq. Uning har bir she`ri go`yoki bir zumda mustaqil syujetga aylanib, butun bir ertak tusini oladiganga o`xshab ketaveradi. Masalan, "Ajoyib daraxt"ni Chukovskiy ertak deb hisoblagan, unga o`xshash "Quvonch"ni esa she`r deb. Muallif o`z she`rlarida xalq bolalar poeziyasiga hamohang bo`lgan qo`shiq, raqs, o`yinlarni ishlatgan. Uning poeziyasining asosiy mavzusi-beg`ubor sho`xlik, bolalarga baxt-saodatdir.



Chukovskiy she'rlarining lirik qahramoni qoidaga ko'ra, shoirning o'zi, u katta odam, ammo u bir vaqtning o'zida bola bilan birga bo'la oladi, uning xursandchiligiga sherik bo'lib, u bilan birga ko'ra oladi, eshita oladi, orzu qila oladi, hatto bolalarcha soddalik bilan chalkashib, adashib ketadi. Kattalarning "men" va bolalarcha "sen" orasida hech qanday chegara yo'q, bola o'zini shoir ruhiy dunyosida shunchalar erkin his etadiki, xuddi otasi bag'rida o'tirgandek.

Chukovskiy o'zining she'rlarida rus va ingliz xalq bolalar poeziyasining an'analari mujassamlashtirishga harakat qiladi. Masalan, "Buterbrod", "Tipratikan", "Objara" ("Yeb to'y mas"), "Ona fil o'qimoqda", "Cho'chqalar", "Fedotks" v.b.

Tarjimalar va ishlanmalar Chukovskiyning ijodida alohida yo'nalishni tashkil etadi. Uning tomonidan valliylar xalq ertagi "Ulkan odamlarni zabt etuvchi Djek" (1918), E.Raspening "Baron Myunxauzenning sarguzashtlari" (1935), D.Defoning "Robinzon Kruzo" asarini (1935) rus tiliga o'girib, qayta ishlagan. Uning tarjima asarlarida yosh kitobxonlar qadimgi yunon mifologiyasi bilan tanishishadi. "Jasur Persey" (1940) eng mashhur qayta ishlangan asar, o'zining so'z ifodalari, voqea-hodisalarning aniq bayoni, esda qolarli tasvirlari bilan mashhur hamda hikoyadagi barcha narsalar bolaning qabul qilish qobiliyatiga bo'ysundirilgan. Yozuvchi nasrda ijod qilar ekan, bola talaffuzi uchun har bir so'z oson, yengil bo'lishiga ahamiyat bergan, katta, qiyin so'zlarni bo'g'inlarga ajratib bergan. Masalan, "ka-rab-le-kpu-she-niye" (ke-ma-ning ha-lo-ka-ti), yoki, il-lyu-mi-nat-siya kabi. Shu tariqa u kichik kitobxonlarni hayvonlar tiliga "o'rgatadi".

Chukovskiyning bolalar nasridagi ijodi deyarli to'la-to'kis sarguzasht adabiyotga mansub. Yozuvchi xatarli sarguzasht syujetlarini uzoq ekzotik mamlakatlarga o'tkazib yuboradi. Afrikaga, Janubiy Amerikaga, "yovvoyi" orollarga uning uchun har qanday sarguzashtning ma'nosi yuksak maqsadga qaratilgan, mard-jasur qahramonlar yaxshilik uchun hech narsadan tap tortmay, o'zlarini xavf-xatarga qo'yib kurashga o'tlanadilar. Chukovskiy "Bobil minorasi" kitobining ruscha nashriga muharrirlik qilgan. "Bobil minorasi"-Injildagi

afsonaning qayta ishlangan ko`rinishi. Bu afsonalar ertaklarga yaqinlashtirilgan hamda hikoyada qadimgi umuminsoniy donishmandlik qayd etilib, unda diniy-mistik ruh olib tashlangan.

K.Chukovskiy o`zining hamda boshqalarning ish tajribalari asosida badiiy tarjimaning nazariyasini yaratadi. Adibning "Yuqori san'at" kitobi 1919-1964 yillar mobaynida yaratilgan.

**Korney Chukovskiy va uning "Ikkidan beshgacha" asarida kichkintoylar xarakteri talqini.** XX asr rus bolalar adabiyotining olamshumul shu`ratini poydor etgan siymolardan biri Korney Ivanovich Chukovskiy bo`lib, u professor O.Safarov to`g`ri ta'kidlaganidek, bolalarni ustoz martabasida anglagani, ular ichki dunyosini teran nazar bilan kuzata olgani tufayli bolalar tili va dilini obdon o`rgangan ruhshunos shoir, g`aroyib ertaklar muallifi, adabiyotshunos va matnshunos olim, otashin publitsist, mohir mutarjim va tarjimashunos sifatida tanildi.

Korney Chukovskiy 1882-yilda Peterburgda ukrain dehqon qizi va piterlik student oilasida tug`ildi. U tezda yolg`iz onasi qaramog`ida qoldi va oila Odessaga kchdi. Bu yerda turmush kechirish ular uchun oson bo`lmadi. Onasi kir yuvuvchilik bilan r o`zg`orini tebrata boshlasa-da, suyumli o`g`lining tarbiyasiga alohida e'tibor berdi, hatto uning gimnaziyaga o`qishga kirishiga erishdi. Biroq gimnaziyani tugatish unga nasib qilmadi. Ma'muriyat uning qashshoq oiladanligini bilgach, chor hukumatning "avom bolalari"ning gimnaziyalarda o`qishini ta'qiqlovchi sirkulyariga binoan uni o`qishdan haydab yubordi. Shu kundan e'tiboran uning mustaqil hayoti boshlandi. U tinib-tinchimas tabiatga ega edi. Turmush taqozosiga k o`ra turli yumushlarni bajarishga majbur bo`ldi, gimnaziyada o`rganishga ulgurgan saboqlarini muttasil to`ldira borishga vaqt topdi, ayniqsa, rus mumtoz adabiyoti mutolaasiga alohida rag`bat bilan sho`ng`idi, mustaqil ravishda ingliz tilini o`rganishga kirishdi, turmushga teranroq nazar sola boshladi. Natijada qalbiga g`ulu solgan gaplarni yozish istagi chulg`ana bordi. Nihoyat, u 1901 yilda "San'at nima?" maqolasini yozib, "Odesskoe novosti" gazetasiga y o`lladi. Maqola bosilib chiqdi. Bu Korney

Chukovskiyy jurnalistik faoliyatining boshlanishi, yanayam aniqrog`i, otashin bir publitsistning dunyoga kelayotganligidan dalolat berar edi.

Shu tariqa K.Chukovskiyy bilan gazeta orasida hamrohlik yuzaga keldi. Ikki yildan keyin esa gazeta uni o`z muxbiri sifatida Londonga yubordi.

K.Chukovskiyy inglizlar turmushidan tez-tez yozib tursa-da, gazeta unga pul yuborishni unutib qo`ydi. Natijada u Britaniya muzeyiga ishga kirishga majbur bo`ldi va ingliz madaniyati, adabiyotini katta qiziqish bilan o`rgana boshladi. Korney Chukovskiyy o`z faoliyatining dastlabki bosqichida adabiyotshunos-tanqidchi sifatida tanildi. Uning V.Garshin, F.Sologub, L.Andreev, A.Kuprin, S.Sergeev-Tsenskiy, B.Zaytsev va A.Chexovga bag`ishlagan adabiy-tanqidiy maqolalari o`sha davrlardayoq o`quvchilar e'tiborini qozondi.

Keyinchalik bu maqolalar "Qiyofalar va niqoblar" hamda "Zamondosh yozuvchilar haqida kitob" to`plamlarining yuzaga kelishiga asos bo`ldi. 1911-yilda K.Chukovskiyy taniqli adib V.Korolenko bilan tanishdi. monumental tadqiqoti yuzaga keldi. Shuni ta'kidlash zarurki, K.Chukovskiyy bolalar adabiyotiga ham tanqidchi-adabiyotshunos sifatida kirib keldi. 1907-yilda "Tropinka" jurnalida bolalarga atalgan birinchi she'ri - "Shamol" bosilguniga qadar u bolalar kitobxonligiga oid dastlabki maqolalarini e'lon qilgan edi. Xuddi shu yili bosilgan "Bolalar tili" maqolasi ham teran kuzatishlar samarasi edi. 1911-yilda esa uning "Bolalar jurnallari haqida materiallar" kitobi nashrdan chiqdi. Bolalar o`zlariga, o`z o`yinlariga, qiziqishlari va ehtiyojlariga hurmat bilan qaralishiga juda sekinlik bilan erishdilar. Har qalay, pirovard-oqibatda uch yashar bolakay geografik globusni olar ekan, materiklar va dengizlar haqida eshitishni emas, balki o`sha globusga minishni, o`sha globusni aylantirishni, o`sha globusni ushlab ko`rishni istayotganini - demak, unga globus emas, koptok zarurligini anglab etdilar. Aslidayam uch yashar bolakayning aqliy (nafaqat jismoniy) o`sishi uchun ham har qanaqa globusdan ko`ra koptok foydaliroq" ekanligini e'tirof etish darajasiga ko`tarildi. Uning bolalar adabiyoti sohasidagi izlanishlarini ko`pdan kuzatib yurgan A.M.Gorkiy 1917-yilda bolalarning "Niva"

jurnaliga P.P.Ershovning "Bukri toychoq" asari tipida biror narsa yozib berishini so`rab qoldi. Boshda u bu taklifga jur'atsizroq qaradi. Ammo nazariy jihatdan tayyorgarligi ish berdimi yoki anchadan beri bolalarbop shunaqa asar yozish orzusi po`rtana urdimi - harqalay "Timsox" ertak-dostonini yozishga kirishdi. Asarni bolalar og`zaki ijodiga mansub xiqillamalar vaznida bir nafasda yozib tugalladi. Asar o`sha yilning yozida "Niva" jurnali ilovasi shaklida bosilib chiqdi. Bosildi-yu, "yoqqa botgan pichoqday bolalar muhitiga singib ketdi". "Timsoh" K.Chukovskiyning bolalarga yoza olish salohiyatini tasdiqladi va uni bolalar shoiri sifatida elga tanitdi. Bu muallifning bolalarga atalgan birinchi yirik asari bo`lishiga qaramay, mavzu yangiligi, ritmining tez almashinib turishi bilan kichkintoylar qalbiga g`oyat yaqin edi. Shu sababli asar katta muvaffaqiyat ozondi. Xususan, keyingi faoliyati davomida uning ilhomi parvozigaga yanada keng maydon ochildi. Natijada u realistik rus bolalar adabiyotini bunyod etish yo`lida faolroq javlon ura boshladi va uning asoschilaridan biriga aylanib qoldi. Ana shunday g`ayrati tufayli 20-yillardayoq rus bolalar she'riyatining mumtoz namunalariga aylana olgan "Moydodir" (1923), "Suvarakxon" (1923), "Barmaley" (1925), "Telefon" (1926), "Fedora o`tkazgan alam" (1926), "Chalkashlik" (1926), "Pashsha-oypashsha" (1927), "O`g`irlangan quyosh" (1927) singari she'riy ertaklari, yana talay she'r, qo`shiq va topishmoqlari bunyodga keldi. Bu asarlar bolalarni maftun qilib qo`ydi. Kichkintoylarning necha avlodi shu asarlar zavqu sururidan o`z bolaligi ma'naviy olamiga oroyish berib kelayotir. Shuni ham aytish kerakki, K.Chukovskiyni o`sha 20-yillardagi keskin g`oyaviy kurash jarayonida nafaqat o`z ertaklarini, balki xalq ertaklarini ham pedagoglarning g`ayriilmiy tajovuzlaridan muhofaza qilishga to`g`ri keldi. Zotan, pedagoglar ertaklardagi antropofomizmni, sehlilikni "bolalar tarbiyasini buzajagi" bahonasida qoralay boshlagan edilar. Ular shu bilangina cheklanmay, shu g`ayriilmiy qarashlarini antropofomizmga, shartli sehlilikka to`lib-toshgan K.Chukovskiyni ertaklariga ham tatbig` qila boshlagandilar. Xususan, "Pashsha-oypashsha"ni dastak qilib, shoir ijodiga xurujni bir muncha kuchaytirgandilar. Ammo K.Chukovskiyni bu

g`oyaviy jangda yutib chiqdi. Xo`sh, bunday g`alabaniing omili nimada edi? Nega bu ertaklar bolalar qalbiga bu qadar chuqur singdi va zamon davr sinovlariga bardosh berib, kichkintoylar uchun sevimli asarlar bo`lib qolmoqda? Buning bosh sababi, V.D.Berestov izohicha, shundaki: "Chukovski ertaklarida har bir hodisa hammaga taalluqli. Agar falokat bo`lsa, u - olamshumul falokat, hattoki qiyomatga ham daxldor ("O`g`irlangan quyosh"), agar quvonch bo`lsa, u ham olamshumul, undan kuzda apelsinlar etilib pishadi, qayinlarda esa gullar o`sib chiqadi ("Quvonch)". Barchaga daxldorlik tuyg`usi har kimda har xil kechadi: birovda mas'uliyat bilan, birovda beparvogina, yana birovda manfaatparastlikni ko`zlagan holda. Aytaylik, quyosh nuri bilan butun olamni yoritadi, harorati bilan odamlarni, hayvonlarni, qushlarni, hasharotlarni isitadi, o`simliklarni yashnatadi, xullas, barchaga bir tekisda hayot bag`ishlaydi. Nima bo`ldi-yu, shu quyoshni timsoh yutib qoladi. Olam zulmatga aylanadi. quyonchalar bundan lol, ola hakkalar turnalarga zulmatdan dod solishadi, "chumchuq qiladi fig`on", qisqichbaqa izg`iydi, bo`rilar uvillaydi. Qo`chqor barcha hayvonlarni "Timsox dodini" berib, quyoshni ko`kka qaytarishga undasada, ular "dahshatli tishdor" dushmandan qo`rqishib, bunga jur'at qilolmaydilar. Nihoyat, barcha xundor hayvonlar ayiqqa "timsoxdan qutqarib berishi"ni so`rab murojaat qiladilar. Biroq u zulmatda botqoqqa botayotgan bolalarini qutqarish bilan ovoraligidan bunday murojaatga e'tibor bermaydi.

Shunda chiqib bir quyon  
Gap otdi Ayiq tomon:  
"Uyat senga bo`kirsang,  
Sen quyonmas, ayiqsan,  
Undan ko`ra, bor, maymoq,  
Quyoshni qutqar tezroq:  
Timsox boshin timdala,  
Tanin mayda-maydala" deydi.

Nogahoniy ta'na ayiqqa ayilday botib, g'ururini qo'zg'atib yuboradi. Ayiq shiddat bilan borib, quyoshni yutib daryoda uzala yotgan timsohga tashlanadi. Jiddiy olishuvda timsoh yengilib:

Sertish og`zidan birdan  
Quyosh ag`anab tushdi,  
Ko`kka yumalab uchdi.

Yana olam munavvar tortadi, o'tloqlar yam-yashil tovlanadi, qushlar sayrashga kirishadi, quyon quvonganidan o`mbaloq oshadi, ayiq bolalari onasiga qarab chopadi, xullas, barcha shod, hamma joy obod bo`ladi.

Hammaga daxldorlik tuyg`usi shu xilda barchani harakatga soladi, barchaga manfaat keltiradi. Hatto asar syujeti va ritmiga ham dinamiklik xususiyatini baxsh etadi. Bu shoirning barcha ertaklari uchun mushtarak fazilatga aylanganidan ular kichkintoylarning necha avlodini qiziqtirib, maftun qilib kelayotir. K.Chukovskiy bu yillarda tarjimonlik bilan ham faolroq shug`ullana boshladi. A.M.Gorkiy taklifi bilan "Jahon xalqlari adabiyoti" nashriyotida ingliz-amerika adabiyoti bo`imini boshqardi. Shunisi quvonchlik, u tarjimachiligini, asosan, bolalar kitobxonligi manfaatlariga b o`ysundirib, yangi bir y o`nalishni boshlab berdi; aniqrog`I, jahon klassikasi namunalarini bolalarga moslashtirib rus tiliga o`girishga kirishdi. Natijada, E.Rapsening "Baron Myunxauzenning boshidan kechirganlari", Persey haqidagi qadimgi grek miflari, D.Defoning "Robinzon Kruzo"si, R.Kipling "Ertaklar"i, M.Tvenning "Tom Soyler sarguzashtlari" hamda "Shahzoda va kambag`ali", Grinvudning "Juldur kiyimli bola"si, shuningdek, O`Genrining "Qirol va karam", Kit Chestertonning "O`lmas inson" ("Jivchelovek"), Uolt Uitmen asarlari bolalarning o`lmas mulkiga aylandi.

K.Chukovskiy bolalarga moslashtirib tarjima qilishda ham novatorlarcha ish tutadi. Bunday kezlarda tamoman yangi bir asar yaratadiki, "Doktor Aybolit" buning yaqqol namunasi b o`la oladi. Uni 30-yillarda ingliz adibi Gyu Loftingning doktor Dulittl haqidagi ertagini rus tilida qayta aytish asosida yaratgan edi. Shunisi ham borki, Chukovskiy asar tarjimasida ustida ishlayotgan

o`sha kezlarda yevropalik mashhur faylasuf-gumanist Albert Shveytsar Afrika paxtazorlarini kezib, och va yupunlik azobida turli-tuman kasalliklarga chalingan minglab qashshoqlarni davolamoqda edi. Uning chinakam insonparvarligi, shu y o`ldagi fidoyiligi K.Chukovskiyni t o`lqinlantirib yubordi. Natijada u doktor Dulittlga proobraz tarzida Aybolit obrazini yaratdi. Uni o`z asariga markaziy qahramon darajasiga k o`tardi, "Hatto unga qutqarishga chorlovchi jarangdor nom berdi" (Y.D.Berestov), shu tariqa, qayta aytish jarayonida asarni yangicha koloritga sug`ordi, yangi asar darajasiga ko`tardi. Aybolit – o`ta fidoyi, hech qanaqa qiyinchiliklarni pisand qilmaydi, biroq har qanaqa og`ir vaziyatda unga madadkorlar ham bor. Shu tariqa bu asarda ham hammaga daxldorlik tuyg`usi leytmotiv darajasidadir. Ammo bu leytmotiv bolalarni hayvonlarni sevishga chorlab turadi. Zotan, Aybolit behad saxovatli: u kasal sigiru bo`rini ham, qo`ng`izu qurti ham, ayig`u timsohni ham, sheru tuyani ham davolayveradi, hammasini muhabbat bilan sevadi, mehr-uning dorisi. Shu vajdan bolalar ham Aybolitni jondan sevishadi, unga taqlid qilishni yoqtirishadi. A.Y.Chernyaevskaya qiziq bir dalilni keltiradi. 1965 yilda yangi o`quv yili arafasida muxbir turli kishilardan intervyu oladi. Ittifoqo, oyisi bilan portfel sotib olayotgan kichkintoydan "Kim bo`lmoqchisan", deb so`raydi. U dabdurustdan "Aybolit bo`laman", deydi. Aybolit ertakdan ana shunday orzuga aylana bormoqda.

K.Chukovskiy nafaqat bolalar shoiri, balki zabardast adabiyotshunos olim sifatida ham e'tirof etilgandi. Uning ko`p qirrali olimlik fazilatlarini sintezini "Ikkidan beshgacha" asarida ravshanroq ko`rish mumkin. Zotan, asarni o`qiganing sari bolalar tilining sinchkov kuzatuvchisi, nozik didli psixolog, folklorshunos va she'riyat nazariyotchisi bilan suhbat qurganday bo`lasan, kishi. Bu asar unga katta shuhrat keltirdi. 1969 yilda K.Chukovskiy o`z qo`li bilan shu asarni 21-marta nashrga tayyorlagandi. Ammo, bemavrid o`lim oktyabrda 88 yashar muallifga kitobni k o`rishni nasib ettirmadi. Kitob 1970 yilda bosilib chiqdi. K.Chukovskiy bu asar ustida 60 yildan ziyod ishladi, har bir nashrini to`ldirib, boyitib, noaniq mulohazalardan tozalab bordi. Sirasini aytganda, 1907

yilda "Rech" jurnalida "Bolalar tili" maqolasi bosilganda muallif kelajakda shunday kitob yaratajagini o`ylagani yo`q. Shunga qaramay bu sohadagi qiziqishlarini tobora chuqurlashtira bordi, g`ayrat bilan material t o`play boshladi. Shunday materiallari asosida ahyon-ahyon maqolalar e'lon qilib turdi: "Bolalarni qutqaring" (1909), "Bolalar tili haqida" (1914) - shu xildagi maqolalar silsilasini tashkil etardi. Nihoyat, 1924- yilda shu yo`nalishdagi kuzatishlari "Kichkina bolalar" kitobigacha o`sib chiqdi. Bu keyinchalik nomi "Ikkidan beshgacha" deb o`zgartirilgan nodir tadqiqotning birinchi nashri edi. Kitob nomiyoq unda maktabgacha yoshdagi mittivoylar olami – mashg`uloti, tili, o`yini va qo`shig`i, qisqasi, turmushining barcha jabhalari ustida gap ketishini ta'kidlab turadi. Bu jiddiy tadqiqot ota-onalarga o`z farzandlarini hurmat qilishga o`rgatsa, bog`cha murabbiylariga kichkintoylar estetik tarbiyasini y o`lga q o`yishda, pedagoglarga esa bolalarga ta'lim berishda, ularning o`zlashtirishi va qiziqishlarini hisobga olishlarida dasturilamal b o`la oladi: filologlarga bolalar nutqining shakllanish xususiyatlarini o`rganishlarida, psixologlarga ular ruhiy olamini kuzatishlarida boy material beradi. Bolalar shoirlari ham undan kichkintoylarga atab qanday she'r bitish sabog`ini oladilar. Bu jihatdan, ayniqsa, K.Chukovskiyning kichkintoylar she'rining qanaqa bo`lishi lozimligiga oid "O`gitlar"i ayricha ahamiyatga ega. Bu "O`gitlar" muallif ilmiy-adabiy faoliyati sintezidan tug`ilgan estetik saboqlar b o`lib, butun bir tizim darajasiga ko`tarilgan. Ular bolalar she'riyati ravnaqiga munosib hissa qo`shayotgan so`z san'atkorlarining necha-necha avlodini tarbiyaladi. Masalan: Kichkintoylar she'rida tasviriylik rasmdagiday k o`rimli b o`lmog`i shart. Unda obrazlar shiddat bilan bir-birini almashtirib turishi lozim. Bu syujet dinamikasini ta'minlovchi omil; Ayni chog`da o`sha ko`rimli tasviriylik lirizmga sug`orilmog`i darkor. Bolalar she'rida ritm harakatchanligiga va o`zgaruvchanligiga erishish muhim. Bolalar she'rida poetik nutqning yuksak musiqiyliigi ta'minlanmog`i lozim. Bolalar she'rida qofiya bir-biriga juda yaqin masofada turishi zarur. Qofiya vazifasini bajaruvchi so`zlar ibora yoki satr ifodalovchi asosiy ma'noni tashishga xizmat qilishi shart. Bolalar she'rining har bir satri o`zicha mustaqil



hayot kechirmog`i va alohida organizm sifatida yashay olishiga erishish kerak. Bolalarga mo`ljallangan she'rni sifatlarga ko`mib yubormaslik zarur. Bolalar she'ri ritmini mumkin qadar xoreyda bitishga erishmoq darkor. Bolalar she'ri o`yin shaklida b o`lmog`i lozim. Kichkintoylar poeziyasining ayni chog`da kattalar poeziyasi ekanligini ham hamisha esda tutish shart.

Bolalar shoirlari kichkintoylarga nafaqat moslanmog`lari, shu bilan birga, ularni ham o`zlariga moslab borishlari, o`zlarining kattalarcha fikr va sezgilariga muvofiqlashtirib borishlari zarur. K.Chukovskiy umr bo`yi shu "O`gitlar"ga o`zi amal qilib, chinakam muvaffaqiyat qozondi.

Chukovskiy asarlari 20-yillardayoq turli tillarga tarjima qilina boshlangan edi. Biroq O`zbekistonda bu ishga birmuncha kechroq kirishildi. 30-yillarning o`rtalariga kelib, o`zbek bolalar shoirlari rus bolalar adabiyoti, jumladan, K.Chukovskiy ijodiy saboqlarini o`zlashtirishda ularni o`qish va uqish kamlik qilishini, bunda tarjima - mahorat sirlarini o`rganish va o`zlashtirishning faol yo`li ekanligini anglab etdilar. Shunga qaramay, ular K.Chukovskiy asarlari tarjimasiga boshda jur'atsizlik bilan kirishdilarki, buni dastlabki tarjimalarda mutarjim nomi ko`rsatilmaganligi ham yaqqol tasdiqlaydi. 1935-yilda o`zbek tilida alohida kitobcha shaklida bosilib chiqqan "Telefon" asari ana shunday xususiyatga ega edi. Birinchi marta o`zbekchaga o`girilgan bu asar tarjimoni k o`rsatilmagan edi. Biroq shu asaridan boshlanib K.Chukovskiy o`zbek bolalari bilan oshna tutindi, navbatdagi tarjimalar saviyasi yuksala borgani sayin bolalar qalbiga chuqurroq kira bordi, Korney Chukovskiyni ularning eng sevimli shoiriga aylantira bordi. 30-yillarning ikkinchi yarmida K.Chukovskiy asarlari tarjimasiga, ayniqsa, jiddiyroq kirishildi. Mirtemir 1936 yilda uning "O`g`irlangan quyosh" dostonini erkin tarjimada "Yosh kuch" jurnalida e'lon qildi. Ayni chog`da "Moydodir"ni ham o`zbekchaga o`girishga kirishdi. Irkitlikning jonli manzaralari tasviri jarayonida ozodlik sabog`ini beruvchi bu asar 1938 yilda alohida kitobcha tarzida bosilib chiqdi. Shukur Sa'dulla "Doktor Aybolit" tarjimasiga kirishdi va 1937-yilda "Yosh kuch" jurnali uni "Doktor Voyjonim" nomi ostida e'lon qildi. U tarjima ustidagi ishni yana davom ettirdi,

nihoyat, 1940 yilda alohida kitobcha shaklidagi nashrini amalga oshirdi. Bu ilk tarjimalar sifat jihatidan originalidan ancha past bo'lib, K.Chukovskiy mahorati ruhini to'la aks ettirmasdi. Shunga qaramay, ularda mutarjimlarning K.Chukovskiyning so'z tanlash salohiyatini idrok qilishlari va uni tarjimada bera olishdagi izlanishlariga xos individualliklari sezilib turadi. "Moydodir" kichkintoylarni yuvinishga chorlovchi asargina emas, balki ertak shaklidagi sho'x-shan o'yin ham. Unda bir-birini shiddat bilan almashtirib turuvchi, bir-biriga mantiqan bog'langan quvnoq sarguzashtlar tizimi mavjud. Bu sarguzashtlar tizimi asarda barcha narsa-personajlarning shiddatli harakati zamirida yaxlit voqeaga aylanadi: To'shagim

Qochib ketdi.

Choyshabim

Uchib ketdi.

Yostiq bo'lsa,

Baqaday

Hakkalab shoshib ketdi.

Barcha narsalar irkit dastidan shunday qochishadi. Sirtidan qaraganda ularning qochishi-allaqanday tartibsizlikni yuzaga keltirgan bir harakatday ko'rinadi. Aslida esa, antropomorfizm-narsalarning jonlantirilishi ular harakatiga tabiiylik bag'ishlaganidan kichkintoylar qalbini qitiqlovchi quvnoqlikni yuzaga keltirgan. Mirtemir 1938-1972- yillar davomida bu asar tarjimasiga etti marta qayta-qayta murojaat etish jarayonida doston-ertakning xuddi shu fazilatlarini chuqur anglashga va o'zbekchada jaranglashiga erishdi. hali ilk tarjima paytidayoq K.Chukovskiy tanlagan har bir so'zning poetik vazifasiga - ohangiga, ma'nosiga, ritmik o'ynoqligiga e'tibor bergan edi. Shuni ko'zlab u hatto K.Chukovskiy tomonidan sun'iy tarzda yasalgan "Moydodir" so'zini sarlavhada aynan saqladi. Aslida "mening, meniki" ma'nolaridagi "moy" olmoshiga "gacha" qo'shimchasi va nota nomini anglatuvchi "do" hamda "qusur, kamchilik, diydramoq va teshik" ma'nolaridagi "di'r(a)" so'zlarini qo'shib, asarda ifodalanishi ko'zlangan g'oyani butun ohangi, o'ynoqiligi bilan shu sun'iy so'zga tajassumlantira olgan.

Natijada bu soʻz oʻziga xos tarbiyaviylik kasb etib, bolalar poetik lugʻatidan mustahkam joy oldi. Mirtemir shu noziklikni chuqur anglaganidan "moydodir" soʻzini tarjima qilmay, unga mos keluvchi sunʼiy soʻz yasamay, aynan qoldirgan edi. Ammo keyinchalik bu asarni oʻzbek tiliga oʻgʻirgan Tursunboy Adashboev bu nomdan voz kechib, uni "Yuvin, doʻmbogʻim" tarzida tubdan oʻzbekchalashtirdi. Shunisi quvonchliki, K.Chukovskiyning "Moydodir"i oʻzbek bolalar poeziyasining koʻrkam namunalari boʻlgan Gʻ.Gʻulomning "Nortojining kurak tishi", Q.Muhammadiyning "Ravshanjonning qoʻli tilga kirdi", "Tugmacha", P.Moʻminning "Tish choʻtka, poroshok va atirsovun ertagi" singari ozodlikka, sarishta-saranjomlikka daʼvat motivini ifodalovchi talay oʻynoqi asarlarining bitilishiga ijobiy taʼsir koʻrsatdi. Shukur Saʼdulla ham "Doktor Aybolit" tarjimasi ustida qayta-qayta ishladi. Shu jarayonda K.Chukovskiyni xos qisqa jumlada obrazning koʻrimli boʻlishiga erishdi. Bu anʼananing ijobiy izlarini "Komandirning boshidan kechirganlari" va "Kachal Polvon" qissalarida koʻrish mumkin. Shunga qaramay, Shukur Saʼdulla asar nomi markaziy qahramon nomidan keltirib chiqarilganini inobatga olmay, uni "Doktor Voyjonim" tarzida tarjima qildiki, bu asar shu nomda oʻzbek tilida necha marta nashr etilgan boʻlsa-da, hamon oʻzbek kitobxoniga Aybolit singari singganicha yoʻq. Zotan, Aybolit ham K.Chukovskiyni tomonidan yasalgan sunʼiy nom "ay" – hayajonni ifodalovchi undov soʻz, bolit – ogʻrimoq" maʼnosida. Shu ikki soʻzni qoʻshgan holda qutqazishga chorlovchi jarangdor poetik nom yasaydi. Shu nomda asar leytmotiviga ishora qiladi. Shu sababli markaziy personaj nomini asar sarlavhasiga chiqaradi. Bu holat personaj nomining kichkintoylar tili va dilida hayvonot olamiga muhabbat bilan qarash ramziga aylanishini taʼminlagan. Shukur Saʼdulla masalaning xuddi shu tomonini ilgʻamagan shekilli, harqalay Voyjonim tarzidagi tarjima-nom shuhrat qozona olmadi. Shunisi xarakterliki, K.Chukovskiyni koʻpgina asarlarini nomlashda shunday printsipga amal qiladi. Asar nomidayoq unda ifodalanishi koʻzlangan etakchi motivga ishora qiladi. Unda nom - asar uchun kod, undagi asosiy gʻoyaviy muddaoga kalit. Shu sababli u nomgagina emas, hatto oʻsha nomning tovush jihatdan jarangdor boʻlishiga va

o`ynoqiligiga ham ayricha e'tibor qiladi. Shu niyatda boshqa bir asarida tovushlar alliteratsiyasiga asoslangan "Muxa -sokotuxa" iborasini sarlavhaga chiqaradi. Ammo Ilyos Muslim nima uchundir uni "Jonsarak pashsha" tarzida tarjima qiladi. Holbuki, asarda pashshaning jonsarakligiga daxldor motiv umuman yo`q. Aksincha, unda pashsha tug`ilgan kunning xarxashaga aylanishi, aniqrog`i, tug`ilgan kunga kelgan ziyofatxo`rlarning pashshani o`rgimchak o`z to`riga o`ragach, uni qutqarishga urinmay, o`z jonlarini hovuchlab, tum-taraqay qochishgani, qo`rqoqlik qilishganidan kulish motivi etakchidir. Adabiyotshunos P.Shermuhammedov shu motivni nazarda tutib, "She'riyatda grajdanlik ruhi" maqolasida shu asar nomini "Pashsha-xarxasha" tarzida o`zbekchalashtirib, sarlavhadayoq asl muddaoning ifodalanishiga o`zbek tili imkoniyati doirasidagi tovush alliteratsiyasiga amal qilgan holda erishgan edi. Lekin keyinchalik u "Pashsha-oypashsha" nomi bilan o`zbekchaga qayta o`girildi. Ikkinchi jahon urushi yillarida K.Chukovskiyning Toshkentga kelishi o`zbek xalqi turmushi, adabiyoti va madaniyati bilan tanishuvida muhim bosqich bo`ldi. Fashistlar bosib olgan yoki xavfda qolgan shaharlardan evakuatsiya qilingan talay yozuvchilar, olimlar va san'atkorlar qatori u ham 1941-yilning noyabrida Toshkentga keldi va 1943- yilning oxirigacha - ikki yilcha shu erda yashadi. 1 Ana shu qisqa muddat davomida qizg`in ijtimoiy-adabiy faoliyat bilan shug`ullanib, o`zbek xalqining ulug` muhabbatiga sazovor bo`larli ishlarni amalga oshirdi, ayniqsa, shu xalq farzandlarining qadrdon va mehribon yozuvchisiga aylanib qoldi. Sh.Sa'dulla ta'kidicha, K.Chukovski, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarga mo`ljallangan o`zbek bolalar adabiyoti va o`zbek bolalar folkloriga ko`proq qiziqqan. Bu sohada, xususan, bolalar nasrining qashshoqligidan, birorta ham yirikroq nasriy asar yo`qligidan xomushlanib, unga shu yo`nalishda ishlashni maslahat bergan. Sh.Sa'dulla shu maslahatga amal qilib, keyinchalik "Komandirning boshidan kechirganlari" sarguzasht-qissasini yozib, unda besh yashar bola-Hayotjonni markaziy qahramon qilib olgan edi. Bu qissa maktabgacha yoshdagi o`zbek bolalar prozasining dastlabki yirik namunasi sifatida ham qimmatlidir. Shukur Sa'dulla

ustoz K.Chukovskiy maslahatlari asosida o`zbek bolalar folklori materiallarini to`plashga ham e'tibor bera boshladi. O`zbek bolalarining talay o`yinlarini yozib oldi, qo`shiqlarini to`pladi; kichkintoylarning tiliga oid kuzatishlar olib bordi, ularning ko`chma ma'nodagi so`zni o`z asl ma'nosida tushunishlari negizida hosil bo`lgan reprizlarni yozib bordi. Bu o`yin va qo`shiqlardan "Kachal Polvon" ertak-qissasida unumli va ijodiy foydalanganidan asar o`zbek, rus, eston va boshqa

tillarda salkam yarim million nusxada bosilib tarqalib ketdi. Reprizlarning bir qismini "Ism qo`yilmagan xat" (1966) kitobchasida e'lon qildi, ma'lum qismini esa, "Komandirning boshidan kechirganlari" povestiga ijodiy edirib yubordi. Ayni chog`da o`zining bolalarga "Ertaklar" to`plamlarini tortiq qildi. Fashizmni Barmaley (Yug`o) deb atab, uning ustidan g`alaba qozonishimiz muqarrarligini ifodalab, "Barmaleyni engamiz" she'riy ertagini yozdi. U 1943-yilda alohida kitobcha shaklida nashr ettirdi. 70-yillarga kelib uning mashhur "Ikkidan beshgacha" asarini o`zbekchallashtirishga ham urinib ko`rildi. "Guliston" jurnalining 1977-yilgi birinchi sonida (26-bet, tarjimoni ko`rstilmagan) ana shu tarjimadan parcha bosilgan edi. Ulkan so`z san'atkorining quvonchga, o`yinga, harakatga, musiqaga to`la asarlari 50-yillardayoq O`zbekiston maktablari, oliy va o`rta maxsus o`quv yurtlari dasturlari, darslik va xrestomatiyalaridan munosib joy ola boshladi hamda navqiron avlodni yaxshilikni qadrlash, yovuzlikdan nafratlanish ruhida, insonni, mehnatni va tabiatni sevish ruhida tarbiyalashda xizmatga tushib ketdi.

**Samuil Yakovlevich Marshak** (1887-1964) o`zidan keyin juda katta hamda serqirra ijodiy meros qoldirgan. Uning bolalar va kattalar uchun she`rlar, o`qish hamda namoyish qilish uchun ertaklar, satirik epigrammalar, tarjimalar, tanqidiy va memuar nasriy asarlari shu ma'noda e'tirofli. Zero, uning hayotidagi asosiy ishi bolalar adabiyoti bo`lganligini ta'kidlab o`tish joiz. U avvalo, rus bolalar adabiyotida kichkintoylar uchun katta she`riyat yaratib bergan mohir san'atkor, taniqli tarjimon, yetuk dramaturg, mohir pedagog va bilimdon muharrirdir.

1927-1937 yillarda bolalar yozuvchilarini o`ziga jalb etadigan markazlar-bu bolalar folklorining tadqiqotchisi O.I.Kapitsa tomonidan tashkil etilgan to`garak, Detizdatning ("Bolalar nashriyoti") Leningraddagi nashriyoti "Yangi Robinzon", "Chij", va "Yoj"(Tipratikan) bolalar jurnallarining nashriyoti edi. Bunda asta-sekin hamfikrlar doirasi paydo bo`la boshladi. Bolalar uchun yozilgan asarlar mualliflari, chunonchi, B.A.Lebedev, E.L.Shvars, T.G.Gobbe, A.I.Lyubarskaya, L.K.Chukovskaya kabilarni adabiyotshunos I.A.Raxtanov "Marshak akademiyasi" deb atagan edi. "Akademiya"da muharrirlik san`ati sayqal topayotgan, yosh mualliflar bilan ishlash usullari ishlab chiqilayotgan edi. Binobarin, kelajakda bolalar adabiyotining mumtoz vakillariga aylangan yozuvchi, shoirlar shular davrasidan chiqqan edi. Masalan, L.Panteleev, D.Xarms, A.I.Vvedenskiy, N.A.Zabolotskiy va boshqalar .

Samuil Yakovlevich Marshak 20-yillarda o`zining she`r, ertak va poemalari bilan yosh kitobxonlarning sevimli shoiri sifatida tanildi. "qayerda ovqatlanding, ey chumchuq", "Ahmoq sichqoncha xaqida ertak", "Kecha va bugun", "Tsirk va boshqa shu kabi mashhur asarlari o`sha yillarda maydonga kelgan edi. S.Y.Marshak rus bolalar adabiyotini rivojlantirish uchun A.M.Gor'kiy hamda V.V.Mayakovskiylar bilan yelkama-yelka turib mehnat qildi. 1939-yilda Marshakning "Petya nimadan qo`rqar edi?", "Korablcha" singari mashhur she`rlari bosilib chiqdi. Vatan urushi davrida shoir ijodining asosiy temasini urush, bosqinchilarga qarshi kurash mavzui tashkil etdi. Ayniqsa, 1943-yilda yaratilgan "O`n ikki oy" nomli ertak-dramasi tez orada millionlab yosh kitobxonlar orasida mashhur bo`lib ketdi.

S.Y.Marshakning nomini olamga yoygan, bolalar shoiri sifatida tanitgan she`rlaridan biri "Axmok sichqoncha xaqida ertak"dir. Bu ertakda shoir bolalar xayoti va xarakteriga mos bo`lgan qiziqarli syujet topa olgan. Kimki o`ziga ortiqcha oro bersa, oqibatini o`ylamay ko`r-ko`rona ish tutsa, o`zidan kattalarning pand-nasihati amal qilmasa, hayotda ko`p narsa yutqazadi, o`z baxtini qo`ldan boy beradi, degan fikr ertakning asosiy g`oyaviy mazmunini tashkil etadi. S.Y.Marshak "Ahmoq sichqoncha haqida ertak" asarida

majoziy obrazlar orqali bolalar hayotiga oid muhim masalalarni ilgari suradi. Shoir noshukur, farosatsiz, mehnatsiz kun kechiruvchilarni ahmoq sichqoncha obrazi misolida fosh qiladi. S.Y.Marshak "Yong`in", "Pochta", "Musobaqalar doskasi" asarlari bilan ham rus bolalar adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo`shdi.

Shoir o`zining "Stol kelgan qayerdan?" degan she`rida maktab mebellari o`z-o`zidan paydo bo`lib qolmaganligini, buning uchun kattalarning qanchadan-qancha vaqtlari, mehnatlari sarf etilganligini tushuntirib bersa, "Bir yil nima" asarida esa juda qimmatli vaqtini behuda o`tkazib, maktabda yaxshi o`qimay, o`qituvchi-ustozlarning pand-nasihatlariga amal qilmay, o`z vaqtida darslarini tayyorlamay, natijada sinfdan-sinfga o`ta olmay xijolat bo`lib yuradigan qoloqlarga qarata:

Dalalarda saranjom ish,  
Zavodda ham plan qoyil,  
Maktabda yo`q,  
Qoloqlar hech.  
Bil, bir sinfda o`qish -  
Bir yil!

Marshak uchun bolalar adabiyotida mayda-chuyda yo`q edi. O`quvchining yoshi qancha kichik bo`lsa, u bus-butunligicha qabul qilayotgan kitobga bo`lgan talabi ham shuncha jiddiy, ya`ni uning mazmuniga, tiliga, bezaklariga, shirifti va formatiga, nomerning sifatiga... Marshak ishlanmagan yoki qolip so`z va fikrlarni, shuningdek o`chirilgan so`zlarni umuman hazm qila olmasdi. Uning shiori: "Kichiklar uchun katta adabiyot" deb jaranglardi.

Dramaturgiya Marshak uchun bolalar adabiyotiga kirib kelishida ilk pog`onani o`tagan. 1920- yillarning boshlarida u Krasnodarsk bolalar teatri uchun bir qator ertak-pesalar yozdi. Ular orasida "Mushuk uyi", "Echki haqida ertak", "Petrushka", "Qayg`u-yomon baxt" kabilar keng tarqalgan. Keyinchalik Marshak bu ertaklarni qayta ishlab chiqqan. Birinchi pesalari folklordan unib chiqqan bo`lib, sho`x, harakatli o`yinlarni eslatadi. Ularning voqeligi atayin

sodda, ammo nozik did va yumor bilan yo`g`rilgan. Obrazlari ham oddiy, ayni paytda juda moslashuvchan, muloyim. Personajlarning monologlari hamda replikalarida juda ko`p so`z ishlatilmaydi, ammo ular juda ifodali. Pesalarning o`ziga xosligi-epizodlarning takrorlashishida, harakat ketma-ketligining uzluksizligida va voqea-hodisalarning ajoyib tarzda rivojlanishidadir.

Marshak o`z ijodini bir aktli kichik pesalardan boshlab, asta-sekin ko`p aktli dramatik asarlarga, shu bilan bir qatorda o`zining tomirlari bilan xalq folkloridan kelib chiqqan yetuk asarlar sari boradi. "On ikki oy", "G`am-qayg`udan qo`rqqan –baxtga erisha olmaydi", "Aqlli narsalar" kabi asarlari shular jumlasidandir. Uning pesalari musiqa va ohangga, raqslarga, so`z o`yinlari bilan to`la bo`lgan xalq teatriga monand. "Mushuk uyi"-ertak pesasini kattalar dramaturgiyasidan olingan kundalik turmush dramasi desa bo`ladi.

S.Y.Marshak bolalarning zabardast shoiri bo`lish bilan birga "kichkintoylar uchun katta adabiyot" yaratish yo`lida ham alohida jonbozlik ko`rsatdi. Ustozi M.Gorkiy an'analariga sodiq qolib, bolalar uchun yoza boshlagan iste'dodlarni tarbiyalashga alohida g`amxo`rlik qildi. Ayni chog`da bolalar adabiyotining nazariy asoslarini ishlab chiqishda, bolalar adabiyoti sohasida tanqidchilikni kuchaytirishda g`ayrat ko`rsatib izlandi va salmoqli natijalarga erishdi. Bu jihatdan uning 1934-yilda yozuvchilarning birinchi s'ezdida bolalar adabiyoti haqida, so`ngra bolalar adabiyoti masalalariga bag`ishlanib 1936 yil yanvarida o`tkazilgan kengashdagi "Bolalarning katta adabiyoti uchun" va dekabrda o`tkazilgan ikkinchi kengashdagi "Bolalarga yozish huquqingiz uchun faxrlaningiz!" kabi nutqlarida va "So`z vositasida tarbiyalash" kitobidan joy olgan qator maqolalarida bolalar adabiyotiga

daxldor nazariy asoslardan bahs yuritdi. Ijod ahlini bolalar uchun haqiqiy san'at namunasi darajasidagi yuksak g`oyaviy-badiiy saviyadagi asarlar yozishga da'vat etdi. Marshak uchun bolalar kitobida mayda-chuyda narsaning o`zi yo`qligi, kitobxon yosh jihatidan qancha kichik bo`lsa, unga atalgan kitobga nisbatan talabni ham shu qadar kuchaytirar edi. U bolalar kitobini ham mazmun, ham til, ham kitobatchiligi, ham shrifti (harflari yozilishi), ham shakli, ham chopi sifatini



yaxlit holda ko`rar, unda "ishlamaydigan yoki nursiz so`zlarni, tamg`alarni, ta'qiq fikr va o`tkinchi hissiyotlarni" xush ko`rmasdi. Uning fikricha, bolalar adabiyotining asosiy vazifasi bolani har tomonlama chiniqqan, jasur va mustaqil fikrlay biladigan komil inson qilib tarbiyalashdan iborat. Bu – g`oyat murakkab vazifa. Uni butun murakkabligi bilan, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-estetik mohiyati bilan his etish har bir bolalar yozuvchisi, shoiri, dramaturgi, rassomi, noshirining mushtarak muqaddas burchi. "Bolalar ijodkorlari uchun-romannavismi yoki rasmlar tagiga yoziladigan she'rlar muallifimi, kim bo`lishimizdan qat'iy nazar, shunchaki yengil ishning o`zi yo`q",-deb e'tirof etgandi Marshak. Ayni chog`da u bolalar yozuvchilariga "tayyor pedagogik aqidalarni foyda evaziga xarakterga aylantiruvchilar" qabilida mensimay qarovchilarni keskin tanqid qilgan edi. Zotan, uning tushunchasicha, bolalar yozuvchisi bolalar bilan san'at

tilida so`zlashib, tarbiyaning murakkab vazifalarini shu til vositasida amalga oshirishni chin maqsad qilib olgan tom ma'nodagi haqiqiy so`z san'atkoridir. Binobarin, bolalar uchun ijod qiluvchilarga past nazar bilan qarash-jamiyatning kelajagiga past nazar bilan qarashga olib keladi. Shu sabali bolalar uchun yozadigan iste'dodlarni alohida e'tibor bilan tarbiyalash, ularga g`amxo`rlik ko`rsatish, ijodini keng mi lyosda tashviqva targ`ib qilish, qusurlarini samimiyat bilan ko`rsatish va muvaffaqiyatlarini rag`batlantirib turish zarur. Bu uning ijodiy kamolotigagina emas, kichkintoylar uchun katta adabiyotning yaratilishiga ham yo`l ochib berdi. Marshak bolalarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, ular ichki dunyosining barcha tomonlarini aks ettiruvchi xilma-xil mavzularda rang-barang janrlarda asarlar, uning iborasicha, kitoblar (S.Marshak bolalarga atalgan asar tushunchasi o`rnida "bolalar kitobi" ("detskaya knijka") iborasini ishlatishni xush ko`radi va bu bilan bolalarga oid asar hamda kitob tushunchalarini o`zaro uyg`un holda tasavvur etadi ) yozish lozimligini qayta-qayta ta'kidlardi. Uningcha, bolalar kitobi-boshdan oyoq "katta adabiyot" namunasi. U-san'at qodisasi va hammadan avval bola hissiyotiga ta'sir ko`rsata bilmog`i shart: "Biror bir ilmiy haqiqat, biror bir hayotiy dalil, agar u bola

xayolotiga, uning hissiyotiga qaratilmagan bolsa, hech qachon bolaga yetib bormaydi",-deya uqtirar ekan, o`zining xuddi shu aqidasini nazariy asoslaydi. Marshak nazariyotchi sifatida bolalar kitobining ular hissiyotini boyituvchi va xayoloti doirasini kengaytiruvchi fazilatlarini birma-bir sanab, shunday ifodalaydi: Birinchidan, bolalar kitobi qahramonini shunday mohirlik bilan yaratish kerakki, yosh kitobxon u bilan bir umrga haqiqiy do`st bo`la olsun. Kitobxon o`qiyotgan kitobi qahramonining qiyofasini, xarakterini va axloqini aniq tasavvur qila bilishga imkoniyat yaratib berishi zarurligini esda tutishi shart. Shu munosabat bilan u Mark Tvenning Tom Soyeri, K.Kollodining Pinokkiosi darajasidagi yorqin obrazlar kashf etilmog`i lozimligini uqtiradi. Ikkinchidan, bolalarga hikoya qilinadigan voqea-hodisalar "shiddatli oqim" ("stremitelnoe techenie")da qat'iy tartibda epizodlarning o`zaro mantiqiy asoslangan alohadorligida bo`lishi lozim. Bunday "hikoya qilishning shiddatkorligi va alohadorligini" bolalar sevgan yaxshi kitoblarning barchasida ko`rish mumkin. Uchinchidan, bolalar kitobiga "yumor, quvnoq hazil juda-juda kerak..." deb hisoblaydi. To`rtinchidan, bolalar kitobidagi "har bir so`z tekshirilgan" va o`z o`rnidagina qo`llangan bo`lmog`i lozim. Chunki "bolalar fikrlashni, his etishni, so`zlashni" o`zlariga mo`ljallangan kitobdan o`rganadilar. Marshak uchun bolalar kitobidagi har bir so`z sahifalari bilan, ulardagi rang-barang suratlar bilan, muqovadagi shriftlar, hatto qolaversa, kitobchaning shakli va hajmi bilan ham jips bog`liq edi. U bu bilan bolalarga kitob "qalbini", uning adoqsiz imkoniyatlarini his etishga, u bilan butun umrga qadrdon bo`lishga, shu tariqa kitobni sevib qolishlariga yordamlashadi. Marshak bolalar bilan "kitob orqali o`ynab", hamisha har qanday vaziyatda ongli ravishda g`olib chiqar, ko`zda tutgan barcha maqsadlari mo`ljaldagi nishoniga aniq borib yetardi. Shu sababli Marshak kichkintoylarga atalgan kitoblari ustida yakka o`zi emas, balki rassom bilan, ko`p hollarda esa o`zini yaxshi anglaydigan grafik-rassom V.V.Lebedev bilan hamkorlikda jiddiy ishlardi. Shunday hamjihat ijod asnosida "Sirk" kitobi maydonga keldi. Uning har bir sahifasi-tsirkdagi yangi tomosha sahnasi, butun kitob esa - butun boshli mo`jaz tomosha. "Bagaj" va "Muzqaymoq" kitoblari

ham shu xildagi mo`jizakorlik namunalari. Shoir va rassom hamkorligining yuksak cho`qqisi sifatida "Rangdor kitob" ("Raznotsvetnaya kniga") alohida e'tiborga sazovor.

Samuil Marshakning bolalarga atalgan quvnoq she'r va ertaklari XX asrning 30-yillari o`rtalaridan e'tiboran o`zbek matbuotida ko`rina boshladi. Asarlarini o`zbek tiliga o`girib, millatimiz farzandlarining ma'naviy mulkiga aylantira bordilar. Shu tariqa uning o`zbek tiliga o`girilgan she'r va ertaklari jamlamalari sifatida "Biz harbiylarmiz" (1946), "She'r va ertaklar" (1950), "Bir yil nima?" (1953), "She'r va ertaklar" (1959), "Yoykamalak" (1977), "Usta Jek qurgan uy" (1978) va "Oylar kamalagi" (1988) she'riy to`plamlari kichkintoylarga tortiq qilindi. Qolaversa, uning o`zbekchaga o`girilgan bir qator she'r va ertaklari pedagogika bilim yurtlari va institutlariga mo`ljallangan. "Bolalar adabiyoti xrestomatiyasi" (1953, 1967, 1978, 1993), "O`zbek bolalar adabiyoti darslik-xrestomatiyasi" (1976), "Kichkintoylar uchun xrestomatiya" (1978, 1988), shuningdek, o`zbek o`rta maktablari uchun rus tilini o`rganishga bag`ishlangan "Kniga dlya chteniya" (1988) singari o`qish kitoblaridan ham joy ola bordi. Uning bu she'rlarini o`zbek bolalar shoirlarining turli avlodiga mansub Quddus Muhammadiy ("Nabiram bilan so`zlashganda"), Shukur Sa'dulla ("Axmoq sichqoncha haqida ertak", "Bagaj", "Yaxshi kun", "Tegirmonchi, bola va xo`tik"), Ilyos Muslim ("Bizning gerb", "Yil bo`yi", "Yalqovlar bilan mushuk", "Sanoqcha", "Topishmoqlar"), Qudrat Hikmat va Husniddin Sharipov ("Pochta"), Po`lat Mo`min ("Usta buzarmon", "Kitobcha haqida kitobcha", "Bir yil nima?", "Stol qayerdan kelgan?", "Bir o`quvchi haqida", "Mo`ylovi bor olachipor"), Asqad Muxtor ("Petya nimadan qo`rqar edi?"), "Sutingdan ber", "Tipratikan va tulki", "Urushga kirish") va Miraziz A'zam ("Robin Bobin") kabilar turli davrlarda o`zbek tiliga o`giranlar.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. K.Chukovskiyning bolalar adibi sifatidagi alohida mahorati nimada?
2. "Ikkidan beshgacha" asarining yaratilish tarixi va mundarijasi:
  - a) asarda bolalarning til chiqarish masalalari talqini;

- b ) bolalarning qiziqishlar olami yoxud nimavoyga aylanishi;
  - v ) bolalar va yolg`on, ertak munosabatiga doir;
  - g ) kichkintoylarning she`rto`qiy olish salohiyati;
  - d ) bola va obrazlar olami haqida ma`lumot bering.
3. Asar tili va ahamiyatini izohlang.
4. S. Marshakning ijod yo`li.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Pushkinning xalq og`zaki ijodiga munosabati?
2. K.Chukovskiyning ijod yo`li.
3. "Doktor Voyjonim" qissasida timsollar.
4. "Ahmoq sichqoncha" asari mavzusi.
5. "Ahmoq sichqoncha" asarida timsollar.
6. "Stol kelgan qayerdan?" asari haqida gapiring.
7. She`rning tarbiyaviy ahamiyati nimada?.
8. Mavzu bo`yicha test topshiriqlari tuzing?

**14-mavzu: Gulliverning sayohati” (J.Svift ) asarida bolalik xarakterining shakllanishi talqini**

1. Asarning yozilish tarixi va muallifi haqida ma`lumot.
- 2.Asarning janriy xususiytlari va g`oyaviy mundarijasi.
3. Lemyuel Gulliverning mittivoylar o`lkasiga sayohati va uning badiiy talqini
- 4.Sayyohning darozlar o`lkasidagi hayoti ifodasi.
- 5.Asardagi ramziy obrazlar tavsifi.
6. J.Sviftning bu asar orqali ifodalangan ijtimoiy-siyosiy qarashlari.

**Tayanch tushunchalar:** muallif, janr, g`oya, mundarija, badiiy talqin, ramz

**IPT** – sharhlovchi ma'ruza.

**IAT** – mavzuga doir slayd.

Jonatan Svift 1667- yilda Angliyaning yaqin yaqin qo`shnisi va oroldagi mustamlakasi bo`lgan Irlandiyaning poytaxti Dublinda ingliz muhojiri oilasida tug`ilgan. Otasi u tug`ilmasdan sal avvalroq vafot etgan edi. Ziyrak Jo huquqshunos, advokat tog`asi qo`lida tarbiya topadi. Bola boshlang`ich maktabda tahsil ko`rgach , o`n to`rt yoshida tog`asi Dublin universitetining dindorlik fakultetiga o`qishga beradi. Jonatan universitetni tugatgan vaqtda Dublinda irland katoliklarining inglizlarga qarshi qo`zg`oloni yuz beradi. Shu paytda Irlandiyadan quvilgan ingliz oilalari qatori yosh dinshunos olim Svift ham Dublinni tark etadi va “katta yer” –Angliyaga yo`l oladi. Svift bu yerda otasining do`sti Uilyam Templga kotib bo`lish bilan birga uning asrandi qiziga murabbiylik qiladi. Shuningdek uning boy kutubxonasidan bilimni oshirib, gazetalarga maqola, pamphlet, feletonlar, she`rlar yozib turadi. Uning dastlabki asarlaridayoq ijtimoiy hayot masalalarini, siyosiy voqealarni hajv ostiga oladi. Chunonchi, XYU asrning oxirlarida Fransiyada, keyinroq Angliyada qadimgi adabiyot tarafdorlari bilan yangi adabiyot tarafdorlari o`rtasida qizg`in bahslar bo`lib o`tadi. Bu adabiy bahsga janob Templ va uning shogirdi Svift ham qatnashadi. O`shanda buyuk faylasuf olim Bualo qadimgi adabiyotni, folklorshunos, xalq ijodi muxlisi Sharl Perro yangi davr adabiyotini himoya qilib chiqadi. Svift 1697-yili shu bahsga bag`ishlab (ustozni Templning topshirig`i bilan) “Kitoblar jangi” nomli mashhur hajviy pamfletni yozdi. Sviftning bu ilk asarida qadimiy va yangi kitoblar ramziy ma`noda bir-biriga qarshi qo`shin tortishar, qadimgi yunon shoiri Pindar yangi ingliz shoiri Kauliga qarshi ulug` “Iliada” ijodchisi Homer yangi qasidachi Draydenga qarshi jang qilishardi. Bu jangda Zevs, Afina, Apollon, Afroditalar qadimgi adabiyot qo`shinlarini himoya qilar, yangi davr adabiyotiga esa “Adabiy tanqid” nomli mayib-majruh tangri homiylik ko`rsatardi. Svift ijodiga xos kinoya, qochiriqlar shu dastlabki asaridayoq ko`rinib qoladi.

Qadimiy va yangi kitoblar o`rtasidagi jangda Sviftning o`zi ikkala tomonni himoya qildi. U hajviyasini o`rgimchak va asalari haqidagi hikoyat bilan tugatadi. Sviftning fikricha, “Haqiqiy adib o`rgimchak singari o`z ichidan

chiqqan to`qima iplari bilan tanob tortaverishi yaxshi emas, asl ijodkor asalariday hamma yerda hayot materiali sharbatini yig`ib, uni san`at asaliga aylantirishi kerak.” Sviftning ana shundan keyingi hayoti siyosiy kurashlarda toblanadi, u bo`sh vaqtlarida tibbiyot ilmi bilan shug`ullanadi. Chunki u qachondir dengizchi bo`lishi va bunda ana shu kasb qo`l kelishini yaxshi bilardi. U bu orzusiga erishdi ham. Bir necha yil dengiz, okean kemalarida xirurg bo`lib ishlaydi. O`z qahramoni boshidan kechirgan ko`p voqealarning aynan guvohi bo`ladi. Muhimi, siyosiy kurashlardan toliqqan adib, asarlarida bu jarayonni badiiy-kinoyaviy talqin etadi. Jonatan Svift asli ingliz bo`lib, avvallari Irlandiyaga past nazar bilan qaragan bo`lsa ham, haqiqatgo`y ijodkor sifatida har qadamda bechora irlandlarning insoniy huquqlari toptalayotganini ko`rib jim tura olmaydi. U Dublinda ekanligida, Angliyaning hukmparast, olchoq lordlari irland dehqonlarini xonavayron qilayotganligini, irland hukumatining barcha huquqlari tortib olinganligini, irland xalqining taqdiri Londonda hal etilayotganligini g`azab bilan fosh etuvchi asarlar yozdi. Bu singari muammolar “Gulliverning sayohatlari”da ayniqsa yorqin aks ettirilgan. Aslida Jonatan Svift bu asarini boshqa bir buyuk ingliz adibi Daniel Defoning “Robinzon Kruzo” romaniga hajv sifatida boshlagan edi. “Robinzon Kruzo”ning bir necha qismdan iborat davomi bo`lib, ularda qahramon mavjud qirollik tuzumida, adolatli qonunlar asosida oddiy mehnatkash odam o`z baxtini topadi, degan g`oyani ilgari surgan edi. Svift esa aksincha, bir-biridan battar olchoq, ochko`z, molparast, mansabparast, tekinxo`r, takabbur qirollar va ministrar hukmronlik qilgan jamiyatda inson hech qachon baxtini topolmasligini Gulliver sayohat qilgan o`lkalar timsolida ravshan ko`rsatadi.

Lemuyel Gulliver mittivoylar o`lkasida Tog` (Ulkan odam) odamga aylanadi. Oyog`i ostida minglab liliputlar uymalashadi. Gulliverning ro`molchasida chavandozlar ot o`ynatadi, qahramon 600 ta to`shakda uxlaydi. Darozlar o`lkasida esa Gulliverning o`zi mitti bo`lib qoladi. Kichkina qutichasandiqchada yashaydi. Buni burgut changalida osmonga olib chiqib ketadi. Gulliver otlar o`lkasiga borib qolganda, u yerda otlar odamlarni minib yuradi...

Yoxud, mittivoylar “Tog’ odam”ni 91 ta arqon va 36 ta qulf yordamida bog’lab-chirmab tashlaydilar. bu raqamlar muallif hayotiga aloqador deb qaraladi. Aytishlaricha, 36 xil toifadagi guruhlar manfaatini ko`zlab, 91 ta pamflet – hajviya yozgan.

Umuman, “Gulliverning sayohatlari”dagi juda ko`p voqealar ramziy ma`noda hayot voqeligini aks ettirishga qaratilgan. Aytaylik, liliputlar orolida tuxumni uch tarafidan sindiruvchilar bilan poynagidan sindiruvchilar guruhi o`rtasida ashaddiy bahs boradi. Tuxumni uchidan sindirishdan bosh tortganligi uchun 11 ming kishi o`lim jazosiga hukm qilingan. Bu masalaga bag`ishlab yuzlarcha tom kitoblar yozilgan. Adib bu bilan o`z zamonasidagi katoliklar va protestant mazhabidagi dindorlarning ashaddiy ixtiloflari aslida arzimas poydevorga qurilganligi, ammo shu arzimas sabab tufayli juda katta qirg`inbarotlar yuz berayotganligini alamli qahqaha bilan tasvirlaydi. Yoki, yana bir o`rinda adib mittivoylar o`lkasidagi Tremeksenlar va Slemeksenlar, ya`ni baland poshna tarafdorlari bilan past poshna tarafdorlari o`rtasidagi janjalni tasvirlaydi... Shuningdek, romanda hukumat rahbarlarining shaxsiga sig`inish, ularni dabdabali unvonlar bilan ulug`lash masxara qilinadi. Masalan, “Liliputiyaning qudratli imperatori, jahonning quvonchi va dahshati, podsholarning podshosi, insoniyatning eng ulug` farzandi, boshi quyoshga yetgan, bahorday so`lim, yozday himmatli, kuz singari to`kin, qish singari qahrli Golbasto Momaren Evlem Gerdaylo Shefin Molli Oliy Gu Oliy hazratlari...”

Romanda Liliputiya-dagi axmoqona tartiblardan yana biri-yuqori mansablarga qanday odamlar tanlanishi o`tkir hajviy bo`yoqlarda tasvirlanadi: “Birorta amaldor vafot etsa yoki imperatorning g`azabiga uchrasa, bo`shagan lavozimga da`vogar bo`lganlardan besh-olti kishi oily hazratlari va butun saroy ahlini xushnud etib, dor o`ynab berish uchun imperatordan izn so`rashadi. Kimki arqondan qulamay, hammadan balandga sakrasa, bosh o`rin o`shaniki bo`ladi”. Mukofot olish tartiblari ham shunga o`xshash. Imperator tayoq o`ynatganida uning ostidan va ustidan chaqqonlik bilan likillab o`ta oluvchilarga oily mukofotlar beriladi.

Svift o'z hayoti davomida Angliya hukumati rahbarlariga juda ko'p yaxshiliklar qilgan bo'lsa-da, ular adibga bergan va'dalarini tez unutishdi. Bundan insoniy g'ururi ozor topgan adib "Gulliverning sayohatlari" da shunday hazil qiladi: ...har biro dam birinchi ministr qabuliga kirib, arzini qisqa qilib aytganidan so'ng, esida qolishi uchun uni burnidan chimchilashi yoki qorniga bir tepishi kerak bo'ladi... "Gulliverning sayohatlari" muallifi "Robinzon Kruzo" muallifi bilan bahslashar ekan, hayotning cheksiz rang-barangligini, murakkabligini, kulgili va fojiali voqealarga boyligini idrok etishda Daniel Defoga nisbatan mislsiz yuksaklikka ko'tariladi. Shu bilan birga u inson ruhiy holatlarini, qahramonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhitni keng, batafsil tasvirlashni Defodan o'rganadi ham.

Asar qahramoni Gulliver turli afsonaviy joylarga borib, ajoyib-g'aroyib fantastic voqealarni boshdan kechirsa-da, uning xarakteri, fe'l-atvori, ichki dunyosi nihoyatda haqqoniy, realistic bo'yoqlarda chiziladi. U liliputlar o'lkasidagi axmoqona tartib-qoidalarga norozilik bildirmaydi, ularga barcha fuqaro qatori bo'ysunadi. Liliputiyaning fani, qonunlari, urf-odatlarini, bola tarbiyalash jarayoni, ya'ni buni jamiyat va davlat zimmasiga yuklatilishi haqida ajoyib lavhalar keltiriladi.

Romanning 3-4-qismlarida ayniqsa Svift satirasi g'oyat kuchayib, umuminsoniy, falsafiy umumlashmalar darajasiga ko'tariladi. Adib Gulliverning Laputuga sayohati voqealarida o'zga xalqlarni asoratda saqlashga uringan Angliyaning mustamlakachilik siyosatini, davlat rahbarlarining xalqdan uzilib qolganligini, ilm-fanda soxta, savodsiz, ahmoq odamlar ko'payib ketganligini yorqin hajviy bo'yoqlarda tasvirlaydi. Laputu hukumati lapakka o'xshash uchar orolda yashaydi. U faqat xalqdan soliq undiradigan vaqtda, yoki qo'zg'olonlarni bostirish uchun yerga yaqinlashadi. Boshqa vaqtlarda doimo osmonda yashaydi. Laputudagi "Lo'ttibozlar akademiyasi"da axmoqona "ilmiy" loyihalar ishlab chiqiladi. Masalan, lo'ttiboz olimlar marmarni qumga aylantirish, yungsiz qo'ylarni urchitish, uylarni tomidan boshlab eng so'ngida poydevorini qurish haqida bosh qotirishadi. Yana bir o'rinda Gulliver akademiyaning tilshunoslik



maktabiga qilgan tashrifi bayon qilingan. U yerda uch professor ona tilini takomillashtirishning turli loyihalarini muhokama qilishayotgan edi. Birinchi loyihada ko`p bo`g`inli so`zlarni bir bo`g`inlikka aylantirib, fel va sifatdoshlarni chiqarib tashlab, so`zlashuv tilini soddalashtirish taklif qilinardi. Muallif faqat otlargina mavjud predmetlarga mos keladi, deb ta`kidladi. Ikkinchi loyihada hamma so`zlarni to`liq yo`qotish taklif qilinardi. Ushbu loyiha muallifi buning salomatlik va vaqtni tejash uchun naif kattaligini asosiy dalil qilib ko`rsatadi. Chunki so`zlarni talaffuz qilish bo`g`iz va o`pkani toliqtiradi, demak umrni ham qisqartiradi. Yoki muallifning matematika maktabiga tashrifi ham qiziqarli ma`lumotlarga boy. Bu yerda shunday metodda o`qitiladiki, buni Yevropada qo`llash amri mahol tuyuladi. Har bir teorema isboti bilan bosh og`riq dori o`raladigan qog`ozchaga siyohda yoziladi. O`quvchi ana shu qog`ozchani nahorda yutib yuboradi va uch kungacha suv hamda nondan boshqa hech narsa yemaydi. Qog`oz hazm bo`lgandan keyin uning ichidagi dori o`zi bilan teoremani yetaklab, miyaga ko`tariladi. Ammo bolalar dorining acchiqligi va qisman ular sho`xligidan bo`lsa kerak, ular sal chetroqqa borib tuflab tashlashadi... Asarning falsafiy utopiya darajasiga ko`tarilgan oxirgi qismida otlar aqlli zotlarga, odamlar maymunsimon aqlsiz maxluqlarga-yexularga aylanadi. Yexularning eng xunugi va ahmog`i podsho bo`ladi. Bosh vazirning vazifasi –qirolning boshdan oyog`igacha yalab chiqish va unga yangi-yangi ur`g`ochilar topib kelishdan iborat. Yexularning ishi-hammayoqni vayron etish, bir-birini qirib yo`qotish. Ular oltinga va boshqa yaltiroq toshlarga sajda qilishadi.

Romanda shu kabi g`aroyib sarguzashtlar bir talay. Ularning aksariyatida muallif “men”i sezilib turadi.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Asarning yozilish tarixi va muallifi haqida ma`lumot bering.
2. Asarning janriy xususiytlari va g`oyaviy mundarijasini oydinlashtiring.
3. Lemyuel Gulliverning mittivoylar o`lkasiga sayohati va uning badiiy talqinida qanday g`oyalar ilgari surilgan?

- 4.Sayyohning darozlar o`lkasidagi hayoti ifodasida-chi?
- 5.Asardagi ramziy obrazlar tavsifi.
- 6.J.Sviftning bu asar orqali ifodalangan ijtimoiy-siyosiy qarashlariga munosabatingiz?

## **15-mavzu “Garri Potter” (J.Rouling) romani va uning g`oyaviy-badiiy mundarijasi**

### **Reja:**

- 1.Romanning yaratilish tarixi va g`oyaviy mundarijasi.
- 2.Asarda sehr va joduning o`rni va obrazlar olami.
- 3.Garri Potter –yosh sehrigar va uning sarguzashtlari talqini
- 4.Garri Potterni qahramonliklari va Feniks ordeniga sazovor bo`lishi

**Tayanch tushunchalar:** sehr,jodu, sarguzasht, talqin,qahramon,

**IPT**-sharhlovchi ma'ruza.

**IAT** - mavzuga doir yozuvli plakat.

**J.Rowling** qalamiga mansub “**Harry Potter**” romanida sehrigari olami orqali yovuz kuchlarga qarshi kurashish, sehrigari qobiliyatni behuda sarflamaslik va nazoratli boshqarish maqsadida tashkil etilgan maxsus maktab hamda uning sirli ta'lim tizimi haqida so`z boradi. Asar olti kitobdan iborat.

Uning birinchi kitobi “**Harry Potter va Filosof toshi**” deb nomlanadi va unda

11 yoshli Harry Potter o`z ota onasi o`lganligidan, ularni yovuz sehrigar Woldemort o`ldirganidan xabar topadi. Bu odam yovuz sehrigar bo`lib hatto uning ismi ham odamlarda qo`rquv uyg`otar edi. Woldemort o`zining tomoniga og`dirish uchun kuchli sehrigarlarni qidirar, kimki uning yo`liga to`g`anoq bo`lsa ayamasdan o`ldirib yuborar edi. Potterni chaqaloqlik payti uning xolasining uyiga tashlab ketishadi va u o`n bir yoshga kiringach, xat orqali uni Hogwarts deb atalgan va faqat sehrigarlarni o`qiydigan maktabga chaqirishadi. Ammo uning xolasi va uning eri bunga yo`l qo`yishmaydi. Shundan so`ng shu maktabning

qo`riqchisi (keyinchalik Potterni eng yaqin do`sti) Rubius Hagrid uni xolasining uyidan o`qishga olib keladi. Shunday qilib yosh Harry o`ziga Ron va Hermione ismli do`stlarini orttiradi. Ular hamma to`siqlardan birga o`tib, yovuz Woldemortni Filosofiya toshini o`g`irlashga yo`l qo`ymaydilar. Potterni ota-onasini Woldemort o`ldirgan paytda Potterga qo`l tekkinga olmagan. Chunki Harryning ota-onasi buyuk sehirgarlar bo`lib, o`z farzandlariga juda katta sehr hadya etishgan edi. Bu sehr Harryni xavf-xatardan himoya qilishi kerak edi. Woldemort ham shuning uchun Potterni o`ldira olmaydi va o`z kuchini yo`qotadi. Filosof toshi esa juda buyuk tosh bo`lib, o`zida umrboqiy yashash eliksirini ishlab chiqaradi va har qanday metalni oltinga aylantira oladi. Woldemort nega bu toshni o`g`irlamoqchi bo`lganini tushungan bo`lsangiz kerak. Harry bundan tashqari, ko`p qahramonliklar ko`rsatadi. Juda ulkan va bahaybat bo`lgan trolni yengadi va Kvidich (o`sha paytdagi o`yin turi) o`yining eng yosh ishtirokchisiga aylanadi, shu o`yinda g`olib chiqadi. Hogwarts maktabining direktori, sehirgarlik olamidagi eng buyuk sehirgar Albus Dambldor yosh Harryda qandaydir iste`dod borligini va undan kelajakda buyuk sehirgar yetishib chiqishini tushunadi.

Shunday qilib, Potterni bir yillik o`qishi tugaydi va Harry yana o`z xolasinikiga qaytib ketadi.

**Juanna Rouling** kitobining ikkinchi qismi **“Harry Potter va maxfiy hujra”** deb nomlanadi. Bu qismda Potter maktabning 2-kursida ta`lim oladi. O`qishning ilk kunlaridanoq yosh Harryni ko`p sarguzashtlar kutadi.

Bu maktabning asoschilari Godrik Grifindor, Helga Bufenduy, Ravena Kogtevrax va Salazar Slizeren ismli odamlar bo`lib, ularning ichida bir yovuz ya`ni Salazar Slizeren maktabda faqat butun oilasi sehirgar bo`lgan bolalar o`qishi kerak deb hisoblaydi va ota-onasi sehirgar bo`lmagan o`quvchilarni “haromxon” deb haqoratlab, ularni o`ldirishni boshlaydi. Qolgan uchala sehirgar bundan xabar topishib, Slizerenni maktabdan haydashadi. Slizeren maktabdan ketayotib maxfiy hujra paydo qiladi. Bu hujra maktabda qachonki Slizerenning haqiqiy davomchisi paydo bo`lsagina ochiladi va u yerdan juda ham dahshatli

boʻlgan, bir qarashda kishini oʻldiradigan maxluq chiqib, Slizerenning fikricha, maktabda oʻqishga loyiq boʻlmagan oʻquvchilarni oʻldiradi.

Shunday qilib, Harry Potter bu yil ham ajoyib qahramonliklar koʻrsatadi. U maxluqni oʻldirib, maxluq oʻzi bilan olib ketgan Jiny Uisly ismli qizchani qutqaradi. Aytib oʻtish joizki, bu ishlarning boshida Woldemort turar edi va Slizerenga buyurgan ham aynan shu edi. Uning asl ismi Tom Riddle boʻlib, u oʻzidan xotira kundaligi qoldirgan va shu kundalik Harryning qoʻliga tushib qolishi orqali u bu ishlarga aralashib ketadi. Dambldor bu yil ham Harryning mahoratiga, uning dovyurakligiga qoyil qolib, u bilan yaqin doʻstga aylanadi.

Nihoyat, Potterni bu yilgi oʻqishi sarguzashtlarga boy oʻtadi. U oʻz doʻstlari bilan uy-uyariga qaytib ketishadi.

**J.Rouling** kitobining uchinchi qismi “**Harry Potter va Azkaban maxbusi**” deb nomlanadi. Bu qismda Harry Potter va uning doʻstlari 3-kursda taʼlim olishadi. Har yilgidek bu yil ham Potter uchun qiziqarli voqealarga boy oʻtadi. Harry maktabga kelmasidanoq yomon xabar butun odamlar orasida tarqaladi. Sirius Black ismli odam Azkabandan qochipti. Azkaban bu juda ham kechirib boʻlmas gunoh qilganlar uchun qamoqxona boʻlib, u yerda juda qattiq nazorat ostida maxbuslarni saqlashadi. Odamlarning gaplariga koʻra bu odam Harry Potterlar oilasi qayerda ekanligini Woldemortga sotgan va ularning oʻlimiga sababchi boʻlgan. Endi esa u Potterni oʻldirish uchun qamoqxonadan qochgan. Bu gaplarni Harry eshitadi va Blackni topib undan qasd olishga kirishadi.

Ammo asar oxirida bu gaplarning hammasi yolgʻonligi, Potterni ota-onasini boshqa, yaʼni Peter Pedegrew ismli odam sotgani maʼlum boʻladi. Ammo asar davomida Sirius topiladi va qayta qamaladi. Chunki bu haqiqatni faqatgina Harry va uning doʻsti Germiona ismli qiz bilar edi. Ular Siriusni qutqarib uni qochishiga koʻmaklashishadi. Shu yerda yozuvchi Sirius Black Harryning tutungan otasi ekanligini ayon qiladi. Black Harryga uni oʻzining uyiga olib ketishi haqida aytadi. Ammo uning tutungan otasi ekanligini maʼlum qilmaydi. Ular bir umrga qalin doʻst boʻlib qolishadi. Potter ham uning taklifidan

xursand bo`ladi. Axir kim ham o`zi yomon ko`rgan odamlar bilan yashashni xohlar edi.

Yana bir yil o`z nihoyasiga yetdi. Potter vaqtincha xolasinikida yashab, so`ng Blacknikiga ko`chib boradi.

**J.Rouling** kitobining to`rtinchi qismi **“Harry Potter va olov kubogi”** deb nomlanadi. Harry Potter endi maktabning 4-kursida o`qiydi va 14 yoshga qadam qo`yadi. Bu yil Hogwartsda 3 chempion turniri o`tkaziladi va Harry ham qandaydir yo`l bilan bu o`yinga 4- kishi bo`lib tushadi. Bu turnirda qatnashuvchilarning hayoti katta xavf ostiga qoladi. Chunki musobaqa shartlari o`quvchilardan katta mahorat va dovyuraklik talab etadi. Ammo bu turnirga faqat 17 yoshga kirgan o`quvchilar qatnashishi mumkin edi. Afsuski, maktabga boshqa o`qituvchining qiyofasiga kirib olgan Woldemortga xizmat qiladigan bir yovuz odam Harryni o`z xo`jayini bilan uchrashib u bilan kuch sinashishi kerakligi haqida buyruq olgan edi. Turgan gapki, ularning maqsadi Harryni o`ldirish edi. Shuning uchun o`sha odam Harryning ismini qog`ozga yozib, olov kubogiga tashlaydi va Potter turnirning oxirgi shartiga yetib borguncha hamma ishni qiladi. Chunki Woldemortning oldiga borish uchun Potter musobaqadoshlarini birin-ketin yengib labirint ichiga yashiringan(kubogni o`sha yovuz odam sehrlab qo`yadi va unga tekkan kishi Woldemort oldiga tushib qoladi) kubogni birinchi bo`lib topadi.

Shunday qilib Potter Woldemort bilan to`qnashadi. Shu payt Harry ota-onasining va Woldemort o`sha qabristonda(Harry bilan Woldemort qabristonda urishadi. Baxtga qarshi uning Sedric ismli do`sti ham shu yerga tushib qoladi va urushning begunoh qurboniga aylanadi) o`ldirgan Harry do`stining ruhi paydo bo`lib, Harry qochishi uchun imkon yaratishadi. Nihoyat qayg`u va nafratlarga to`la bir yil ham nihoyasiga yetadi. Hammaning ko`ngli cho`kkan, hamma qo`rqqan, hammaning og`zida bitta gap: “Nahotki Woldemort qaytgan bo`lsa!”

Potter yana xayollarga chulg`anib, uyiga qaytadi. Axir uni deb begunoh do`sti olamdan ko`z yumgan edi.

**J.Rouling** kitobining beshinchi qismi **“Harry Potter va Feniks ordeni”** deb nomlanadi. Harry Potter maktabning 5-kursiga qadam qo`yadi. Harry uchun eng ayanchlisi ham shu yil bo`ladi.

Potter maktabga qadam qo`ymasdan uning ismi gazetalarning 1-sahifasida chiqa boshlaydi. Chunki u maktab tashqarisida sehr ishlatgani uchun sud qilinadi. Ammo sud natijalari Harryning foydasiga hal bo`ladi va u maktabga qaytadi. Ammo maktabda hamma o`quvchilar uni yomon ko`rib qolishadi. Sehr jodu ministrligi Hogwarts ustidan o`z tazyiqini o`tqaza boshlaydi. Ular maktabga yangi o`qituvchilar yuborish orqali, maktabni o`zlaricha boshqarmoqchi bo`lishadi. Kelgan o`qituvchilar faqat nazariy bilim berishib, amaliy mashg`ulotlar o`tkazishmaydi. Bu esa o`quvchilarning o`zlari mustaqil shug`ullanishlariga olib keladi. Bu o`quvchilarni Harry o`qita boshlaydi. Chunki u boshqalardan ko`ra ko`p sehrlarni bilar va aqlliroq edi. Ammo bundan shu maktabga yuborilgan o`qituvchi xabar topib, ularni jazolaydi. Endi Woldemort qaytdi, degan gap hamma orasida tarqalgan edi. Ha, u qaytgan edi, juda kuchga to`lib qaytgan edi. Uning yo`liga tushadigan hech qanday mard topilmasdi. Faqatgina Dambldor unga teng kela olardi.

Harry o`zining beshta do`sti bilan Woldemortni qidirib, yo`lga tushishadi. Ammo ular ham Woldemortning tarafdorlariga tutqun bo`ladilar va ularga Feniks ordeni sehrgarlari yordamga kelishadi. Bu orden boshqaruvchisi Sirius Black edi. Biroq Sirius Black shu yerda halok bo`ladi. Harry bir yo`la ham otasidan, ham eng yaqin do`stidan judo bo`ladi. U yana hech kimsiz yetim bo`lib qoladi. Shu urushda Woldemort ham Harryni o`ldirish uchun paydo bo`ladi. Ular orasida jang bo`layotgan bir paytda Dambldor kelib, Harryni qutqaradi va Woldemortni qochishga majbur qiladi. Ammo bu qochish uzoqqa cho`zilmasligini Dambldorning o`zi ham bilar edi. Ular vaqtincha bo`lsa ham undan qutulishdi. Harry va Dambldor yangi jangga tayyorgarlik ko`ra boshlashdi. Yana bir yil o`z nihoyasiga yetadi.

**J.Rouling** kitobining oltinchi va so'nggi qismi "**Harry Potter va qonli shahzoda**" deb nomlanadi. Mazkur yil butun sehrgarlik olami uchun va asosan, Harry Potter uchun oxirgi yil bo'lib qoladi.

Woldemort qochib ketganidan so'ng u o'z jonini 7 bo'lakka bo'lib yashiradi. Dambldor va Harry shu narsalarni topish uchun hamma joyni aylanib chiqib, shu orqali Woldemortni o'ldirmoqchi bo'lishadi. Yangi o'quv yili boshlangach, maktabga yangi o'qituvchilar kelishadi. Harry maktabdagi kuchli sehrgarga aylanadi. Uning nomi hammaning tilida yuradi. Potter 16 yoshga kirib, ancha katta yigitga aylanadi, o'ziga o'qituvchilardan do'stlar orttiradi.

Shuningdek, shu maktabda ishlab yurgan o'qituvchilardan biri Severus Sneip Woldemortga bo'ysunadigan odam bo'ladi. Qisqa vaqt ichida maktab o'quvchilaridan bo'lgan Draco Malfoy ismli bolani ham Woldemort tomonga o'tishga majbur qiladi. Ammo Dambldor 5 yildan buyon shu o'qituvchiga ishonib kelgan. Yovuz kuchlar kundan-kunga maktabga kirishni boshlaydilar. Dambldor va Harry bu paytda Woldemort bilan mashg'ul bo'lib buni sezishmaydi. Ammo qaytib kelishganda, maktabda Woldemortning tarafdorlari to'lib ketganini ko'rishadi. Lekin endi qandaydir chora ko'rishga kech edi. Shu payt Dambldor Harryga tezda ketishini, nima bo'lganda ham qaytmasligi kerakligini uqtiradi. Harry ketishi bilanoq Dambldorni bosqinchilar o'rab olishib, uni o'ldirishadi. Bu ishni Dambldor ishongan odam Severus Sneip amalga oshiradi.

Eng ulug` va eng buyuk sehrgar olamdan o'tadi. Bu ishlar Harryning ko'z oldida yuz beradi. Ular Dambldorni o'ldirishgach, butun Hogwartsni ostun-ustun qilishadi. Maktab qaytib tiklab bo'lmas holga keladi. Biroq, Harry Dambldor boshlagan ishni oxiriga yetkazishga so'z berdi. U ustozining o'limi uchun albatta, qasd oladi.

Ha, yana bir narsani aytib o'tish joizki, shu yillar ichida Harryning 2 do'sti uni doim qo'llab-quvvatlab kelishdi. Ularning ismini bilasiz. Qonli shahzoda esa Severus Sneip ekanligi, Woldemortni faqatgina Harry Potter o'ldira olishi

ham asarning so`nggi qismida batafsil aytib o`tilgan. Yozuvchi ham o`z asaridan ta`sirlangan bo`lsa kerak. Asosiy qahromonimizning hayoti esa har bir o`quvchini qiziqtirishi turgan gap. Biz esa yozuvchidan bundan-da, qiziqroq asarlar, Harry Potterdan esa yangi qahramonliklar kutib qolamiz. Shu asar asosida ajoyib filmlar ishlangan bo`lib ular xuddi shunday nomlar bilan ataladi. Bu nomdagi filmlar hozir katta ekranlarga chiqqan hamda yuqorida keltirilgan olti qism kattayu kichik tomoshabinlarga takror-takror havola etilayotir. Filmda yosh Harry Potter rolini Daniel Radclife o`ynagan. Nazarimizda, ingliz xalqining bu asari butun dunyo bolalarining sevib o`qiydigan kitoblari qatoridan o`rin egallashga ulgurgan.

### **Savol va topshiriqlar:**

1. Romanning mavzuviy mundarijasi va bolalar adabiyotida tutgan o`rni.
2. Asarda sehrgarlikka munosabat.
3. Asarning obrazlar olami.
4. Harry Potter –yosh sehrgar va uning qahramonliklari .
5. Asardagi yovuz kuchlar tarafdorlari va ularning qismati.
6. Roman- fantastikaning yangicha talqini.



## TEST SAVOLLARI

1. "Ularni xalq qalbining tubi, zamonlarning eng qadimi qiziqtirayotgan edi. Va ular folklarga murojaat qilishdi". Bu e'tirof kimga nisbatan aytilgan?

- A)\*aka-uka Grimmlarga;
- B)Sharl Perroga;
- D) X.Andersenga ;
- E) J.Rodariga.

2. "Bolalar va oilaviy ertaklar" to'plamining muallifini aniqlang.

- A) J.Rodari ;
- B) Sharl Perro;
- D) X.Andersen;
- E) \*aka-uka Grimmlar.

3. Aka-uka Grimmlar chop etgan asarlarni aniqlang.

- A) \* "Nemis grammatikasi", "Nemis mifologiyasi";
- B) "Ramayana"
- D) "Mahabxorat
- E) "Iliada" va "Odissey"

4. Angliyaning qadimgi ingliz poemasi qaysi qatorda to'g'ri ko'rsatilgan?

- A) "Ramayana"
- B) "Mahabxorat
- D) "Iliada" va "Odissey"
- E) \* "Beovul'f"

5. Beowulf -qanday ma'noni bildiradi?

- A)ertaklar ma'nosini;
- B) \*"asalari bo'risi", ya'ni ayiq degan ma'noni anglatadi;
- D)yirtqich qush ma'nosini;
- E)odam ma'nosini.

6. Robin Gud haqidagi asarlar qaysi janrga mansub?

- A) ertak;
- B) masal;
- D) \*ballada;
- E) doston

7. Lirik va dramatik elementlar uyg'unligida yaratilgan, ba'zida musiqiy asboblari jo'rligida kuylashga mo'ljallangan, muallifsiz epik asar ..... deyiladi. Tushirib qoldirilgan so'z nima?

- A) ertak;
- B) masal;
- D) \*ballada;
- E) doston .

8. Robin Gud haqidagi balladalar qanday ommalashgan?

A) XV - XVI asrlar mobaynida ko'chirib yozilgan va bir butun to'plamlarga, sikllarga jamlangan.

B) XIX asrning birinchi yarmida Angliyani bosib olgan niderlandlarga qarshi kurash olib borgan Robin Gud haqidagi talqin juda mashhur bo'lgan.

D) Val'ter Skott ("Ayvengo" romanida) va fransuz tarixchisi Ogyust Terri ("Robin Gud" va "Normandlar tomonidan Angliyaning bosib olinishi" kabi ishlarida) ilgari surishgan.

E) \*barcha javoblarga to'g'ri.

9. "Robinson Kruzo" asarining janri va muallifi to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

- A) \*sarguzasht roman, Daniel Defo ;
- B) sarguzasht roman, Jonatan Sviftlar;
- D) detektiv qissa, Daniel Defo
- E) detektiv qissa, Jonatan Sviftlar.

10. "Robinson Kruzo" asarining asosida qanday voqelik yotadi?

- A) to'qima va afsona;
- B) real voqelik;
- D) yozuvchining o'z hayoti;

E)\*Xuan Fernandes orolida yakka-yolg`iz roppa-rosa to`rt yilu to`rt oy

qolib ketgan shotlandiyalik matros Aleksandr Selkirk haqidagi real voqea yotadi.

11. "Robinzon Kruzo" romani qay jihatlari bilan mashhur?

- A) o`zining ko`p sonli nashri mashhur
- B) rus, fransuz, nemis, shotland, golland, grek tillaridagi qayta ishlanmalari,
- D) taqlidlari hamda qalbaki nusxalari orqali dong taratdi;
- E) \* barcha javoblar to`g`ri .

12. Rossiyada "Robinzon Kruzo" qaysi yillarda chop qilindi?

- A) 1762 yildva Peterburgda,
- B) 1785 yilda N.I.Novikovning jurnalida ("Detskoe chtenie dlya serdtsa i razuma") chop etildi,
- D) 1819 yilda S. N. Glinka jurnalining ("Novoe detskoe chtenie") birinchi soni "Robinzon Kruzo" bilan nashr qilindi;
- E) \* noto`g`ri javob yo`q.

13. Asarda keltirilishicha, Robinzon Kruzo orolda necha yil yashagan?

- A) 4 yil;
- B) 7 yil;
- D) 14 yil;
- E) \*28 yil

14. Grimmlar tomonidan yaratilgan ertaklarning 1-jildi qachon va qaysi nom bilan nashr etilgan?

- A)\*1812 yilda, "Bolalar va oilaviy ertaklar";
- B) 1815 yilda, "Tilla g`oz"
- D) 1822 yilda, "Uch aka-uka";
- E) 1850, "Quyvon bilan tipratikan".

15. Grimmlar ertagi keltirilgan javobni aniqlang.

A) “Kitoblar jangi”, “Bochka haqida ertak”, “Zolushka”;

B) “Qor qiz”, “Qizil shapkacha”, “Moovutfurush maktublari”;

D) \**“Yalqov Geys”, “Gansning baxti”, “Botir tikuvchi”, “Tilla g`oz”;*

E) “Ochil dasturxon”, “Ur to`qmoq”, “Susambil”.

16. “Men odam qadam bosmagan, huvillagan bir orolda sargardon bo`lib qoldim, qutulish uchun hech umidim yo`q”. Bu parcha qaysi asar qahramoni kundaligidan olingan?

A) “Gulliverning sayohati”, Gulliver;

B) \**“Robinzon Kruzo”, Robinzon Kruzo;*

D) “Pinokkioning boshidan kechirganlari”, Pinokkio;

E) “Harri Poter”, Harri Poter.

### Test savollari

1. Tulki o`tloqda yurgan g`ozlarni yemoqchi bo`ladi. Ular o`limlari oldidan bitta qo`shiq aytib, so`ngra tulkiga yem bo`lishlarini so`raydi. Ammo uzundan-uzoq “g`ag`a” lari tulkini zeriktiradi... Bu ertak nomi va muallifi to`g`ri ko`rsatilgan javobni aniqlang.

A) “Tilla g`oz”, aka-uka Grimmlar;

B) X.K.Andersen, “Yangi ertaklar”

D) \**“Tulki va g`ozlar”, aka-uka Grimmlar,*

E) “Tilla g`oz”, Charl Perro.

2. “Kitoblar jangi” nomli mashhur hajviy pamfletn kimning qalamiga mansub?

A) \**Jonatan Svivt;*

B) Daniel Defo;

D) K.Chukovskiy

E) Charl Perro

3. “Haqiqiy adib o`rgimchak singari o`z ichidan chiqqan to`qima iplari bilan tanob tortaverishi yaxshi emas, asl ijodkor asalariday hamma yerda hayot materiali sharbatini yig`ib, uni san`at asaliga aylantirishi kerak.”Bu fikr qaysi adibga taaluqli?

- A) Daniel Defoga;
- B) K.Chukovskiya;
- D)\* Jonatan Svivtga;
- E) Sharl Perroga .

4. “Gulliverning sayohatlari”dagi voqealar qanday asosga qurilgan?

- A) barchasi to`qima;
- B) \*ramziy ma`noda hayot voqeligini aks ettirishga qaratilgan;
- D) hayotda qanday bo`lsa, shundayligicha tasvirlangan;
- E) afsona va ertaklar asosida yozilgan.

5. Golbasto Momaren Evlem Gerdaylo Shefin Molli Oliy Gu Oliy hazratlari... Bu qaysi mamlakat imperatori?

- A) \*Liliputiyaning qudratli imperatori;
- B) Angliya hukumati rahbarlari;
- D) Laputu mamalakatining rahbari;
- E) Nilotlar o`lkasi rahbari.

6. Gulliver sayohat qilgan Laputu hukumati qanday xususiyatga ega?

- A) lapakka o`xshash uchar orolda yashaydi.
- B) faqat xalqdan soliq undiradigan vaqtda, yoki qo`zg`olonlarni bostirish uchun yerga yaqinlashadi.
- D) “Lo`ttibozlar akademiyasi”da axmoqona “ilmiy” loyihalar ishlab chiqiladi.
- E) \*barchasi to`g`ri.

7. “Gulliverning sayohatlari”da asar qahramoni qaysi o`lkalarga sayohat qiladi?

- A) \*Liliputiya, Laputiga, darozlar olkasiga;
- B) “Lo`ttibozlar akademiyasi”ga, Angliyaga

- D) Oyga, Amerikaga,
- E) kimsasiz orolga.

8. "Sherlok Xolms" qaysi adibning mashhur qahramoni?

- A) \*Artur Konan Doyl
- B) Daniel Defoga;
- D) Jonatan Svivt;
- E) Sharl Perro .

9. Detektiv janrning asoschisi, bir qancha ilmiy-fantastik, tarixiy asarlar, ko`p sonli hikoyalar, povestlar, she`rlar muallifi qaysi javobda to`g`ri

- A) Daniel Defo;
- B) Jonatan Svivt;
- D) Sharl Perro;
- E) \*Artur Konan Doyl

10. "Sherlok Xolms.. - bu mening o`zim",-ushbu e`tirof kimga tegishli?

- A) Daniel Defoga;
- B) \*Artur Konan Doyl
- D) Jonatan Svivt;
- E) Sharl Perro .

11. Kipling ingliz bolalar adabiyoti an`analarini davom ettirgan, o`zi ertaklarga rasmlar chizib, ularga izohlar bergan. Bu qanday asar deyiladi?

- A) \*anamalistik ertaklar
- B) sarguzashtnoma;
- D) detektiv;
- E) sayohatnoma.

12. "Alisa Ajoyibotlar Mamlakatida" ertagi muallifi qaysi javobda to`g`ri?

- A) Daniel Defo;
- B) Jonatan Svivt;
- D) Sharl Perro .
- E) \*L'yuis Kerrol'

13. Angliyada istehzo va parodiya janridagi ertaklarning paydo bo`lishi qaysi adib nomi bilan bog`liq?

- A) Daniel Defo;
- B) \*L'yuis Kerrol';
- D) Jonatan Svivt;
- E) Sharl Perro .

14. Nega Kerrolning kitoblari "Bolalar uchun emas" deb topilgan?

- A) bolalar hazilida ijtimoiy satira, sog`lom fikr yashirin bo`lgani uchun;
- B) Alisa "boladek bo`lmagan qizcha" sifatida tasvirlagani uchun;
- D) viktorianlik jamiyatida fikr yuritish ta`qiqlangan, muammolar haqida yozishning yo`li bo`lgan usulni o`ylab topganligi uchun;
- E) \*barcha javoblar to`g`ri.

15. "Roland haqida qo`shiq" qanday manbaa?

- A) \*dastlabki fransuz adabiyoti namunasi;
- B) dastlabki italyan adabiyoti namunasi;
- D) dastlabki ingliz adabiyoti namunasi;
- E) dastlabki nemis adabiyoti namunasi.

#### Test savollari

1. "Gargantya va Pantagryuel" qanaqa asar?

- A) ertaklarning yuksak namunasi;
- B) \*ilk bolalar kitobxonligi namunasi;
- D) dastlabki ingliz adabiyoti namunasi;
- E) dastlabki nemis adabiyoti namunasi.

2. "Gargantya va Pantagryuel" asari yozilgan davr va muallifini aniqlang?

- A) \*XVI asr, Fransua Rable;
- B) XVII asr oxiri, Sharl' Perro;
- D) XIX asr, Jyul' Vern;

E) to`g`ri javob yo`q.

3. Fransiyada ertaklarning oltin asri hisoblanadigan davrni aniqlang.

- A) XVI asr;
- B) XVII asr oxiri;
- D) \* XVIII asr;
- E) XIX asr .

4. "Qizil shapkacha", "Jimjimaloq bola", "Zolushka", "Etikli Mushukcha", "Uyqudagi malika", "Ko`k Soqol" kabi ertaklar muallifi to`g`ri ko`rsatilgan javobni aniqlang.

- A) \*Sharl Perro;
- B) X.Andersen;
- D) Grimmlar;
- E) J.Rodari

5. Sharl Perroning nechta ertagi saqlanib qolgan?

- A) 25 ta;
- B) \*11 ta;
- D) 30 ta;
- E) 50 ta.

6. Perro ertaklarida yaxshilik va haqiqatning g`alaba qozonishida qahramonlarga kimlar yordam beradi?

- A) \*sehrGAR personajlar, oqko`ngil Feyra
- B) buvisi, ota-onasi;
- D) do`stlari, qarindoshlari;
- E) to`g`ri javob yo`q.

7. Zamondoshlari uni butundunyo sayyohi, ustaxonasiz kashfiyotchi, deb atashgan. U fransuz adabiyotida ilmiy fantastik janrning asoschisi . Bu ta`rif qaysi ijodkorga nisbatan aytilgan?

- A) Sharl Perro;
- B) \*Jyul Vern ;
- D) L'yuis Kerrol';



E) Jonatan Svivt.

8. Jyul' Vernning "G`aroyib sayohatlar" asarida nima tasvirlangan?

- A) Afrika, Osiyo, Avstraliya, Okeaniya,
- B) Yevropa mamlakatlari, Shimoliy va Janubiy Amerika,
- D) Arktika va Antarktika mamlakatlari tasvirlangan.
- E) \*noto`g`ri javob yo`q.

9. "robinzonad" turkumidagi asar xususiyatini aniqlang?

- A) ularning voqealari kimsasiz orollarda kechadi.
- B) romanlarning voqealari okeanlarda, dengizlarda,
- D) hattoki, planetalararo bo`shliqlarda bo`lib o`tadi.
- E) \* javoblarnin barchasi to`g`ri.

10. Vernning qahramonlari kimlar?

- A) \*tadqiqotchilar, muhandislar, quruvchilar;
- B) bolalar, o`smirlar;
- D) qizlar, yigitlar;
- E) keksalar, donishmandlar.

11. Jahon adabiyotida ilmiy-fantastika janrining asoschisi bo`lib kirib kelgan muallifni aniqlang.

- A) Charl Perro;
- B) \*Jyul Vern ;
- D) L'yuis Kerrol';
- E) Jonatan Svivt

12. "Kichkina shahzoda" ertakona povesti muallifi qaysi javobbda to`g`ri?

- A)\* Antuan de Sent-Ekzyuperi
- B) Jyul Vern ;
- D) L'yuis Kerrol;
- E) Jonatan Svivt.

13. ...1943 yilda yozilgan va unga muallif tomonidan illyustatsiyalar (rasmlar) ishlangan. Tushirib qoldirilgan asar nomini aniqlang.

- A) Gulliverning sayohati” ;

- B) "Robinzon Kruzo";
- D) "Pinokkioning boshidan kechirganlari";
- E) \* "Kichik shahzoda"

14. "Faqatgina bolalar nima izlayotganlarini bilishadi, - deydi ..., - agar u latta qo`g`irchog`ini kuni bilan uynab o`tirsa, u unga eng kerakli va qadrdon narsaga aylanib qoladi, agar bolani qo`lidan qo`g`irchoqni tortib olishsa, ular yig`laydilar..." nuqtalar o`rniga qo`yilishi lozim so`zni toping.

- A) Pinokkio;
- B) Gulliver;
- D)\*Kichik shahzoda;
- E) Robinzon Kruzo.

15. Franchesko Petrarka, Djovanni Bokkacho, Dante Alig`eri, Leonardo do Vinchi, Mikelandjelo kabi buyuk va dunyoga mashhur san`at arboblari qaysi xalq adabiyoti namoyandalar?

- A) \*Italiya adabiyot va san`ati arboblari;
- B) Fransiya;
- D) Ingliz;
- E) Nemis.

#### Test savollari

1. Italiya xalq ertaklarini birinchi bo`lib yig`gan va qayta ishlagan yozuvchini aniqlang.

- A) Jyul Vern ;
- B) \*Janbattista Bazil'e;
- D) Antuan de Sent-Ekzyuperi;
- E) L'yuis Kerrol.

2. "Pantameron" yoki "Ertak haqida ertaklar" qanday asar?

A) "Pantameron" asl ma`nodagi xalq ertaklarining to`plami emas, unda faqat o`rta asr afsonalari va mumtoz asarlar motivlari to`plangan.

B) o`zining shakli jihatidan Bokkachchoning "Dekameron"iga o`xshab ketadi va ellikta novelladan iborat.

D) uni o`nta har xil hikoyachi ayollar besh kun davomida so`zlab berishadi.

E) \*barchasi to`g`ri.

3. G`arb adabiyotida kim adabiy ertak otasi hisoblanadi?

A) \*Bazil'e;

B) Djovanni Bokkacho,

D) Dante Alig`eri;

E) Leonardo do Vinchi.

4. "Pinokkioning sarguzashtlari" asarini jahon bolalariga taqdim etgan buyuk yozuvchi qaysi javobda to`g`ri?

A) Djovanni Bokkacho,

B) Dante Alig`eri;

D) Leonardo do Vinchi

E) \* Karlo Kollodi

5. "Pinokkioning sarguzashtalari" asari yozilgan yili va dastlabki nomi qanday atalgani qaysi javobda berilgan?

A)\* 1881 yilda, "Birta buratinoning tarixi"

B) 1990 yilda, "Bir qo`g`irchoq tarixi"

D) 1870 , "Yolg`onning oyoqlari kalta",

E) 1890, "Oltin kalitcha".

6. Pinokkioning otasini ismi qaysi javobda to`g`ri?

A)Usta Olcha;

B)\*Jipetto;

D) Antonio;

E) Buratino.

7. "Pinokkioning sarguzashtalari" ertak qissasidagi qahramonlar qaysi javobda to`g`ri?

A) \*Qora Chigirtka, Manjafoko, Parini, Jipetto, Antonio;

- B) Arlekino, Manjafoko, Buratino;
- D) Pul'chinello, Kolombino, Jipetto;
- E) Antonio, Pilik, Chippolino.

8. Pinokkio do`sti Pilik bilan qaysi mamlakatga jo`naydi?

- A) Susambil;
- B) Yulduziston;
- D) Sehrgarlar;
- E)\*Tarallabedod

9. Pinokkio besh oy muttasil beg`amlik bilan baxtiyor yashaganidan so`ng nimaga aylanadi?

- A) otga;
- B) \*eshakka;
- D) baliqqa;
- E) kitga.

10. Pinokkio qanday qilib yana yog`och bolaga aylanadi?

- A) sirkka borgach;
- B) do`stini uchratgach;
- D) \* baliq yutib yuborgach;
- E)uyiga qaytib kelgach.

11. "Ota-onalarini mensimay, axmoqlik qilib, o`z tug`ilib o`sgan uyidan bosh olib chiqib ketgan bolalarning holiga voy. Unday bolalarning hayoti juda yomon bo`ladi, ular o`zlarining bemulohaza qilmishlari uchun ming-ming afsus yeydilar." Bu qaysi qahramoni tilidan aytilgan?

- A) Pinokkio;
- B)Pari;
- D) Jipetto;
- E) \*Qora chigirtka.

12. "Galvarsiston mamlakatida jinoyatchilar emas, da`vogarlar-jabrdiy-dalar qamalar edi-da!" Keltirilgan parcha qaysi asardan olingan?

- A) Gulliverning sayohati" ;

- B) "Robinzon Kruzo";
- D) \* "Pinokkioning boshidan kechirganlari";
- E) "Kichik shahzoda"

13. "Pinokkioning sarguzashtlari"ni ruschaga tarjima qilib, qayta ishlagan muallif nomini aniqlang.

- A) \*Aleksey Tolstoy;
- B) L.Tolstoy;
- D) Pushkin;
- E) Marshak.

14. X.K. Andersen nomidagi Oltin medalga sazovor bo`lgan yozuvchi qaysi javobda to`g`ri?

- A) L.Tolstoy;
- B) Pushkin;
- D) Marshak
- E) \* Janni Rodari.

15. Qovoqboy, usta Uzumcha, professor Nok, Limon shahzoda, ishyoqmas Apel'sin, izquvar Sabzil qaysi asar qahramonlari?

- A)\*"Chippolino"
- B) Pinokkio;
- D) Buratino;
- E)Kachal polvon.

16. "Ertak bu turli xil gipotezalarning xazinasini. Ertak bolalarga atrof-muhitni anglashga, o`zining tasavvuri bilan unga tanqidiy yondoshishga, borliqqa yangi yo`llar bilan kirishga kalit bera olishi mumkin"-degan fikr qaysi adibga mansub?

- A)\* Janni Rodari;
- B) L.Tolstoy;
- D) Pushkin;
- E) Marshak.

## Test savollari

1. Rus tilida "Chippolino"ning mashhur bo`lib ketishiga sababchi adib qaysi javobda to`g`ri?

- A) Janni Rodari;
- B) L.Tolstoy;
- D) Pushkin;
- E)\*S. Y. Marshak.

2. Janni Rodari qalamiga mansub asarlar qaysi javobda to`g`ri keltirilgan?

- A)"Yangi yil archalari sayyorasi";
- B)"Jip televizorda"; "Fantaziya grammatikasi" ;
- D) "Jel'somino Yolg`onchilar Mamlakatida" ;
- E) \*noto`g`ri javob yo`q.

3. A.S.Pushkin bolaligida ertaklarni kimlardan eshitganligini ko`p ta`kidlaydi?

- A) o`z enagasi Arina Rodionovna Matveevadan;
- B) buvisi Mar'ya Alekseevna Gannibaldan;
- D)uy xizmatchisi Nikita Kazlovdan hamda Moskva yaqinidagi Zaxarova qishlog`ining dehqonlaridan ;
- E) \*javoblarning barchasi to`g`ri.

4. U Ukrainada, janubda, Nijegorod shahridagi Boldinoda, Janubiy Ural va Orenburg tomonlarda bo`lib ertaklar, maqollar, matallar, qo`shiqlar eshitgan va yozib olgan. Bu fikr kimga nisbatan aytilgan?

- A) Marshakka;
- B) \* Pushkinga;
- D) L.Tolstoyga;
- E) A.Tolstoyga.

5. U .... dostonini yozishni o`n yetti yoshida boshlab, yigirma yoshida tugatadi. Tushirib qoldirilgan asar nomi va uning muallifi to`g`ri ko`rsatilgan javobni aniqlang.

- A) "Shoh Saltan va knyaz Gvidon", Pushkin;
- B)\* "Ruslan va Lyudmila", Pushkin;
- D) "Baliqchi va uning xotini" Grimmlar;
- E) "Oygul bilan Baxtiyor", H.Olimjon.

6. "2 yoshdan 5 yoshgacha" bo`lgan bolalar psixologiyasining tadqiqotchisi qaysi javobda to`g`ri?

- A)L.Tolstoy;
- B)A.S.Pushkin;
- D) \*K.Chukovskiy;
- E) S.Marshak.

7. "Men bolalarni o`rganishga ahd qildim... Bir vaqtlar xalqqa qaytganlaridek men ham "bolalikka qaytishga" qaror qilib, kattalar jamiyati bilan munosabatimni deyarli uzdim va uch yoshli bolalar bilangina muloqotga kirishdim",- deb yozgan edi ....o`zining kundaliklarida. Tushirib qoldirilgan muallif nomini aniqlang.

- A) L.Tolstoy;
- B)A.S.Pushkin;
- D) \*K.Chukovskiy;
- E) S.Marshak.

8. K.Chukovskiy asarlari qaysi javobda to`g`ri ko`rsatilgan?

- A)"Shoh Saltan va knyaz Gvidon";
- B) "Ruslan va Lyudmila",
- D) "Baliqchi va uning xotini";
- E) \*"Moydodir", "Pashsha-xarxasha", "Doktor Voyjonim".

9. "Ahmoq sichqoncha haqida ertak" qaysi ijodkor qalamiga mansub?

- A) L.Tolstoy;
- B) A.S.Pushkin;

D) K.Chukovskiy;

E) \* S.Marshak.

10. K.Chukovskiyning "Muxa -sokotuxa" asarining o`zbekcha qanday tarjimasi qanday nomlanadi?

A)"Jonsarak pashsha";

B)"Pashsha-xarxasha";

D) "Pashsha-oypashsha";

E) \*Barchasi to`g`ri?

11. Godrik Grifindor, Helga Bufenduy, Ravena Kogtevrarn va Salazar Slizeren kabilar qaysi asar qahramoni?

A)\* J.Rowling qalamiga mansub "Harry Potter" romani,

B) K.Chukovskiyning "Ikkidan beshgacha",

D) Tolstoyning "Buratino".

E) K.Chukovskiyning "Doktor Voyjonim".



## Qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati

1. Arzamaseva I.N., Nikolayeva S.A. Detskaya literatura. M.: Akademiya, 2000.
2. Budur N.V., Ivanova E.I., Nikolayeva S.A., Chesnokova T.A. Zarubejnaya detskaya literature. Moskva, "Akademiya", 1998.
3. Belinskiy V.G., Chernishevskiy N.G., Dobrolyubov N.A. O detskoy literature. M., Det.lit. 1983
4. Jumaboyev M. O`zbek va chet el bolalar adabiyoti. Majmua-darslik. T.: O`zbekiston, 2002
5. Kerroll L. Priklyucheniya Alisi v strane chudes. T., :O`qituvchi, 1986.
6. Karlo Kollodi. Pinokkioning boshidan kechirganlari. T., 2009
7. Janni Rodari. Rim ertaklari. T.: -Raduga, 1989-
8. Chukovskiy K. Ot dvux do pyati. T.1,2. M., "Pravda", 1990
9. Barishnya-gersoginya. Skazki zarubejnix pisateley. T., Yosh gvardiya, 1988.
10. Swift J. Gulliverning sayohatlari. T., :Sharq, 2006.
11. Perro Sh. Skazki matushki gusini.- M., 1991
12. Zarubejnaya literature dlya detey i yunosheatva. Pod.red. N.K.Mesheryakovoy, I.S.Chernyayevskoy.- M., 1989.
13. Brandis Yevg. Ot Ezopa do Djanni Rodari. -M., 1980
14. Detskaya literature Avstrii, germanii, Shevetsarii. Uchebnaya xrestomatiya. - M., 1997

## Qaydlar uchun

## MUNDARIJA

So`z boshi .....	3
1-mavzu: Kirish. Chet el bolalar adabiyoti fani, uning maqsadi va vazifalari	4
2-mavzu: Nemis bolalar adabiyoti.....	12
3-mavzu: Aka-uka Grimmlar hayoti va ijodi .....	14
4-mavzu: Angliya bolalar adabiyoti va uning ayrim tamoyillari .....	18
5-mavzu: R. Kipling – bolalar adabiyotining yetuk vakili.....	29
6-mavzu: Fransiya bolalar adabiyoti va uning shakllanish tamoyillari .....	32
7-mavzu: Sharl Perro ertaklarining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari .....	40
8-mavzu: Italiya bolalar adabiyoti.....	42
9-mavzu: X.K. Andersen ertaklarida tarix va zamon ifodasi.....	49
10-mavzu: Janni Rodari – bolalarning ertaknavis adibi.....	61
11-mavzu: Rus bolalar adabiyoti va uning yetakchi xususiyatlari.....	66
12-mavzu: A.S.Pushkin – rus bolalar adabiyoti namoyondasi.....	70
13-mavzu: Korney Chukovskiy va S.Marshak ijodi .....	75
14-mavzu: "Gulliverning sayohati" (J.Svift ) asarida bolalik xarakterining shakllanishi talqini .....	100
15-mavzu "Garri Potter" (J.Rouling) romani va uning g`oyaviy-badiiy mundarijasi .....	106
TEST SAVOLLARI.....	113
Test savollari.....	126
Qo`shimcha adabiyotlar ro`yxati.....	129

**XALILOVA RUXSORA**

**CHET EL BOLALAR ADABIYOTI**

*Metodik qo`llanma*

Muharrir:	A.Narzullayev
Tex.muharrir:	N. Sharipov
Operator:	N.Muhitdinova
Musahhih:	I.Qo`ziyev

*Buxoro davlat universiteti Oquv –metodik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.*

Terishga berildi: 10.12.2020. Bosishga ruxsat etildi: 09.01.2021.  
Qog'oz bichimi 60x84 1/16 Times New Roman garniturasida chop etildi  
Hajmi 8,25 b.t. Adadi 50 nusxa. Буюртма № 11

*“Standart-poligraf” nashriyoti. 100100. Tashkent shahri,  
Bobur ko'chasi, 12-uy. Nashriyot litsenziyasi: AI №183. 08.12.10.*

MCHJ “DUNA POLIGRAF” bosmaxonasida chop etildi.  
Buxoro shahri, Q. Murtazoyev ko'chasi 11 uy.

Бухоро давлат университети  
ўқув-методик кенгаш 5-сонли  
йиғилишининг баённомасидан  
**КЎЧИРМАСИ**

29.12.2020

Бухоро шаҳри

**КУН ТАРТИБИ:**

**4. Турли масалалар.**

Бошланғич таълим назарияси кафедраси ўқитувчиси Р.Халилова томонидан тайёрланган “Чет эл болалар адабиёти” деб номланган методик қўлланмасини нашрга тавсия этиш.

**ЭШИТИЛДИ:**

Г.Тоирова (кенгаш котибаси) - Бошланғич таълим назарияси кафедраси ўқитувчиси Р.Халилова томонидан тайёрланган “Чет эл болалар адабиёти” деб номланган методик қўлланмасини нашрга тайёрлаганлигини маълум килди. Ушбу қўлланмага: БухДУ доценти, Н.Сафарова ва ф.ф.ф.д. (PhD), доцент Г.И.Тоирова ва БДТИ доценти Г.Қурбоновалар томонидан ижобий баҳо берилганлигини таъкидлади. Методик қўлланма муҳокамаси ҳақидаги Мактабгача ва бошланғич таълим факультети (2020 йил 26 ноябрь) ва Бошланғич таълим назарияси кафедрасининг (2020 йил 21 ноябрь) йиғилиш қарори билан таништирди.

Юқоридагиларни инобатга олиб ўқув-методик кенгаш

**ҚАРОР ҚИЛАДИ:**

1. Бошланғич таълим назарияси кафедраси ўқитувчиси Р.Халилова томонидан тайёрланган “Чет эл болалар адабиёти” деб номланган методик қўлланмаси нашрга тавсия этилсин.

Ўқув-методик кенгаш раиси  
Ўқув-методик кенгаш котибаси

Даминов М.И.  
Тоирова Г.И.

Кўчирма аслига тўғри

Ўқув-методик кенгаш котибаси

Тоирова Г.И.

